



SANOATDA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Volume 4
No 2
June, 2026

ILMIY-TEXNIK JURNAL

E-mail:
info@srt-journal.uz
Web-adress:
www.srt-journal.uz



**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
В ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

научно-технический журнал

ISSN (ISSN-L): 3030-3214

**DIGITAL TECHNOLOGIES
IN INDUSTRY**

scientific and technical journal

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SANOATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Ilmiy-texnik jurnali

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Научно-технический журнал

DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY

Scientific and technical journal

№4(2) / 2026

QARSHI – 2026

Ilmiy-texnik jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining 26.07.2023-yildagi
106679-son guvohnomasi.

Ta'sischi

Qarshi davlat texnika universiteti,
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati"
AJ

CHIEF EDITOR

Sherzod Nematov

Rektor, Qarshi davlat texnika
universiteti

E-mail: rektor@kstu.uz

Bosh muharrir o'rinbosari

Abdurashid Khasanov

T.f.d. prof. Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati

E-mail: abdurashidsoli@mail.ru

Mas'ul kotib

Abbas Shadieyev

T.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti

E-mail: a.shodieyev@srt-journal.uz

Editorial address

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh
ko'chasi, 225-uy, Qarshi davlat texnika
universiteti

Tel: (+998) 90 673 64 33

E-mail: info@srt-journal.uz

Veb sayt: www.srt-journal.uz

Texnik muharrirlar

Najmiddin Boymurodov

Ihom Togaev

Tahlil guruhi

Oybek Qayumov,

Uchqun Eshonqulov,

Dizayn

Farusxon Olimov

Jurnalning elektron versiyasini nashr

etish va yangilash uchun mas'ul

Abbos Shodieyev

Chop etilgan

Terishga topshirilgan sana:

15.06.2026 y.

Nashr qilingan sana: 29.06.2026 y.

Format: 60x84 1/8. Times shriftida.

Shartli bosma taboq: 16,125. Bosma

taboq: 16,125. Adadi: 30 nusxa.

Buyurtma №: 197. Qarshi davlat texnika

universitetining "INTELLEKT" MIU

nashriyotida chop etildi.

Manzil: Qarshi, Mustaqillik ko'chasi,

225.

© Sanoatda raqamli texnologiyalar

(E)ISSN: 3030-3214

DOI: [10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026](https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026)

TAHRIRIYAT HAY'ATI

Sherzod Nematov, Rektor. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Abdulla Xursanov, t.f.d., Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston
G'ulom Uzoqov, t.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Abdirashid Hasanov, t.f.d. prof. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati,
O'zbekiston
Xayit Turayev, k.f.d., prof., Termiz davlat universiteti kimyo fakulteti dekani,
O'zbekiston
Eshmurat Pirmatov, t.f.d., prof. Yevroosiyo fanlar akademiyasi akademigi,
Qozog'iston
Bum Sung Kim, t.f.d., prof., Koreya nodir metallar instituti, Janubiy Koreya
Irina Shadrinova, t.f.d., prof. Rossiya fanlar akademiyasi M.V.Melnikov
nomidagi Mineral resurslardan kompleks foydalanish instituti, Rossiya
Gabor Muksi, PhD, DSc, prof. Mishkols universiteti, Vengriya
Marcin Lutynski, PhD, DSc, prof. Sileziya texnologiya universiteti, Polsha
Márton Benke, Prof. Dr., professor, Mishkols universiteti, Vengriya
Tünde Kovács, t.f.d., prof. Óbuda universiteti, Vengriya
Anatoliy Gets, t.f.d., prof., Belarussiya milliy texnika univesiteti, Belarussiya
Pyotr Tsibulenko, t.f.d., prof., Belarussiya milliy texnika univesiteti,
Belarussiya
Shohrux Jo'rayev, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston
Nodir Doniyarov, t.f.d., prof., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston
Behzod Tolibov, t.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish
agentligi, O'zbekiston
Abbos Shodieyev, t.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Baxriddin Voxidov, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston
O'tkir Nosirov, t.f.d., prof., Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiS
ning Olmaliq filiali, O'zbekiston
Gafur Nutfulloyev, t.f.d., dots., Milliy tadqiqotlar universiteti "MISIS" ning
Olmaliq shahridagi filiali, O'zbekiston
Utkir Xalikulov, t.f.d., prof., Olmaliq davlat texnika isticuiti, O'zbekiston
Shahboz Turdiyev, t.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Sarvar Parmonov, t.f.d., dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq
filiali, O'zbekiston
Ulug'bek Hasanov, t.f.f.d., Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston
Jamoliddin Todjiyev, k.f.d., prof., O'zbekiston Milliy universiteti,
O'zbekiston
Asqar Parmonov, k.f.d., prof., O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston
Aktam Saidaxmedov, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnoogiyalar
universiteti, Navoiy, O'zbekiston
Shaxriddin Turobov, t.f.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston
Rustam Nomdorov, t.f.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Uchqun Eshonqulov, t.f.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti,
O'zbekiston
Oybek Qayumov, t.f.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Najmiddin Boymurodov, t.f.f.d., PhD., Qarshi davlat texnika universiteti,
O'zbekiston

*"Sanoatda raqamli texnologiyalar" (e-ISSN:3030-3214) ilmiy-texnik jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasining 30-iyul 2024 yildagi №358-sonli qaroriga
asosan quyidagi ixtisosliklar bo'yicha texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan:*

- 05.00.00 - Texnika fanlari
- 04.00.00 - Geologiya-mineralogiya fanlari
- 02.00.00 - Kimyo fanlari

MUNDARIJA

KON-METALLURGIYA VA ISHLAB CHIQRISH SANOATI

Xasanov Abdirashid Saliyevich, Eshankulova Gulmira Rashidovna. Uran elementining tarixi va O'zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish istiqbollari 10

Nurxonov Xusan Almirza o'g'li, Bo'riyev Feruz Mansur o'g'li, Ravshanov Avaz Ali o'g'li, Bakirov G'ayrat Xoliqberdiyevich. Kon lahimlarini ankerli mahkamlashda qo'llaniladigan kimyoviy ampulalarning o'rni 19

Xujakulov Nurmurod Botirovich, Nasirova Nigora Ramazanovna, Ibotov Bobur Odil o'g'li, Safarov Aminjon Ne'mat o'g'li. Murakkab kumush tarkibli rudalarni turli reagentlar yordamida qayta ishlash orqali sorbsion sianlash jarayoni samaradorligini oshirish 23

Alimov Shoxriddin Muxammadovich, Normurodov Jasurbek Jalol o'g'li. Yoshlik-I konida qoyali tog' jinslarining maydalanish darajasini oshirish uchun portlovchi skvajinalarning maqbul parametrlarini asoslash 28

Ataullayev Azizjon Odilovich, Jo'rayev Nodirbek Normurodovich, Egamberdiyev Ilhom Pulatovich, Yaxshiyev Sherali Namozovich. Besh o'qli RDB tizimidagi issiqlik yuklamalari va deformatsiyalarni hisobga olgan holda aylanuvchi o'q korpusining termomekanik tahlili 33

Jo'rayev Nodirbek Normurodovich, Ataullayev Azizjon Odilovich, Egamberdiyev Ilhom Pulatovich, Yaxshiyev Sherali Namozovich. Mashinali ko'rish texnologiyalari asosida silindrik g'ildiraklarning evolvent tishlari profilini nazorat qilish usulini ishlab chiqish 41

Xasanov Adham Amankulovich, Eshankulova Kumushoy Abdumanap qizi, Ergashev Ro'zibek Alisher o'g'li, Norbekov Islomjon G'ofurjon o'g'li. "Yoshlik I" konida qo'llanilayotgan SBSH-250 MNA-32 burg'ilash dastgohlarining texnologik samaradorligi va tog' jinsi massivining fizik-mexanik ta'sirini tadqiq etish 47

Kayumov Umiddin Erkinovich, Xatamova Dilshoda Normurodovna, Pardayeva Shahlo Saxibjonovna. Kon mashinalarining ichki yonuv dvigatellari uchun so'ruluvchi havoni tozalash samaradorligini oshirish 53

Sidiqov Ravshan Mirzabekovich, Ergashev Mahmud Axbaraliyevich, Axmadaliyev Alisher Madaminovich, Abdurazakov Ulug'bek Mamayusub o'g'li. Polimetall rudalarni boyitishda kombinatsiyalashgan texnologiyaning samaradorligini tadqiq etish 61

Xoliqulov Doniyor Bahtiyorovich, Boltayev Olmos Najmidinovich, Elchiyeva Mohinur Dilshod qizi. Dunyo mis rudasi zaxiralari tarkibida oksidlangan rudalarning o'rni va ularni qayta ishlashning zamonaviy texnologik yechimlari tahlili 67

Toshqodirova Rano Erkinjonovna, Kenjayeva Sevvara Absamatovna. Bioksidlanish eritmalardan olingan temir oksidli pigmentlarni mishyakdan selektiv tozalash jarayonining termodinamik asoslari 74

Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovich, Sharopova Durdona Yo'ldosh qizi. Mis fosfidi (Cu₃P): sintez usullari, elektrokimyoviy xossalari va korroziyaga qarshi qo'llanilishining zamonaviy tahlili 81

Mirzanova Zulfizar Anvarjonovna, Eshonqulov Uchqun Xudoynazar o'g'li, Vakkasov Baxtiyor Abdurahimovich. Metallurgiya ishlab chiqarishi qo'rg'oshin-vismut shlamlarini selektiv eritish va qayta ishlash texnologiyasi 87

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI

Berdimuratova Gulbanu Parxat qizi, Kurbonova Moxigul Mamasaliyevna. Quljuqtov tog'lari devon davri yotqiziqqlarining litologik tarkibi va qatlamlanish xususiyatlari 93

Mavlonov Shohrux Boboxon o'g'li, Fozilov Sadridin Fayzullayevich. Uch monomerli terpolimerlanish reaksiyasida tarkibining strukturaviy o'zgarishlari eksperimental va kinetik model asosida baholash 99

Rustamov Mirzoxid Mansur o'g'li. Gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishini kamaytirish uchun ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasini takomillashtirish 105

Otaxonov Maqsud Yusufovich, Zokirov Ilhomjon Bahtiyor o'g'li, Arifjanov Alisher Abdullayevich, Azizov Khurshid Abduxamidovich. Smart channel qurilmasining sezuvchanligi va minimal suv sarfini eksperimental baholash 111

Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich, Abdusalomova Moxinur Musurmon qizi. Burmachan kamarning postkollizion bosqichining rivojlanishi va postkollizion granitoidlarning shakllanishi 121

Alimov Ma'ruffjon Mavlonberdiyevich, Djalilov Gafur Ganiyevich, Tog'ayev Isomiddin Saparovich. Boysun egilmasidagi yura karbonat formatsiyalarining strukturaviy va litostratigrafik xususiyatlari 127

Shoymurotov To'ychi Xoliqulovich, Tog'ayev Isomiddin Saparovich, Alimov Ma'ruffjon Mavlonberdiyevich, Toshtemirov Shoxruxjon Alisher o'g'li. Chorjo'y pog'onasidagi umid maydoni yura terrigen yotqiziqqlarining neftgazliligining geologik-qidiruv mezonlari 135

Kilichev Ikrom Komil o'g'li, Ibotov Oybek Kuyli o'g'li, Turdiyev Shoxjaxon Shermamat o'g'li, Matniyazov Oxunjon Pulatovich. Buxoro-Xiva regionidagi konlarda uglevodorod olishni jadallashtirish texnologiyalarining samaradorligi 142

Dononov Jasur Ural o'g'li. Yer yoriqlarining makon va chuqurlik bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari 151

Dononov Jasur Ural o'g'li, Shamsidinova Gulzoda Ural qizi. Hududlarning neotektonik tuzilishi va harakatini o'rganishda ierarxik tektodinamik model asosidagi metodologik yondashuv 157

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH

- Buranova Dinara Baxtiyarovna.* “Xiva kvarts qumi – sulton uvays dala shpati – qo‘rg‘oshinli chiqindi” tizimi asosida past haroratda suyuqlanuvchi emal kompozitsiyalarini ishlab chiqish va xossalarini tadqiq etish 166
- Turdiyev Jasurbek Qahramon o‘g‘li, Kuyboqarov Oybek Ergashevich, Panjiyev Ulug‘bek Rustamovich.* Adsorbsiya jarayoniga pH, kontakt vaqti, sorbent miqdori va boshlang‘ich konsentratsiya ta‘sirini o‘rganish 171
- Davronova Munisa Nurali qizi, Eshqurbonov Furqat Bozorovich, Ashurova Asal Abdulolim qizi, Abdullayeva Rayxona Ilhom qizi.* Sherobod argillit minerali bilan to‘ldirilgan ikkilamchi polietilen asosidagi geomembranalar sintezi va xossalarini o‘rganish 180
- Sattorov Laziz Xolmurodovich, Kurbanov Abdiraxim Axmedovich, Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich, Jurayeva Huriyat Zoirovna.* Mashar poyasi sellulozasi asosida tibbiy gips uchun farmatsevtik sifatidagi natriy karboksimetilsellyuloza (Na-CMC) olish va tozalash texnologiyasini ishlab chiqish 186
- Sattorov Laziz Xolmurodovich, Kurbanov Abdiraxim Axmedovich, Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich, Jurayeva Huriyat Zoirovna.* Sellyuloza-bazalt tolali gibridd kompozitlarning issiqlik va ovoz izolyatsiyasi uchun tayyorlanishi hamda fizik-mexanik xossalarini baholash 193
- Rahmanqulov Aliqul Amirkulovich, Maxmanov Ergash Binoqulovich, Xaydarov Tuymurod Zoyirovich, Ro‘ziyev Rufat Toshboyevich.* Binar to‘ldiruvchilar asosida olingan epoksid polimer kompozit qoplamalarning termofizik va o‘tga chidamlilik xossalarini tadqiq etish 199

YENGIL SANOAT TARMOQLARI

- Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No‘monbek Oybek o‘g‘li, Muxammadiyev Umarali Sheraliyevich.* Linterlash jarayoni samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning analitik tahlili va tadqiqot yo‘nalishini asoslash 207

EKOLOGIYA, MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

- Ikromov Abdulaziz A‘zamovich, Urinov Ulug‘bek Komiljonovich, Fayziyev Jahongir Bahromovich.* Koagulyatsiya jarayoni asosida sanoat oqava suvlarini tozalashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari 212

ОГЛАВЛЕНИЕ

ГОРНОДОБЫВАЮЩАЯ МЕТАЛЛУРГИЯ И ОБРАБАТЫВАЮЩАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

Хасанов Абдирашид Салиевич, Эшанкулова Гульмира Рашидовна. История элемента урана и перспективы развития атомной энергетики в Узбекистане 10

Нурхонов Хусан Алмирза угли, Буриев Феруз Мансур угли, Равианов Аваз Али угли, Бакиров Гайрат Холикбердиевич. Роль химических ампул, применяемых при анкерном креплении горных выработок 19

Хужакулов Нурмурод Ботирович, Насирова Низора Рамазановна, Иботов Бобур Одил угли, Сафаров Аминжон Нетьмат угли. Повышения эффективности сорбционного цианирования упорных серебро-содержащих руд с применением различных реагентов для предварительной обработки 23

Алимов Шохриддин Мухамматович, Нормуродов Жасурбек Жалол угли. Обоснование рациональных параметров взрывных скважин для повышения степени дробления скальных горных пород на месторождении «Ёшлик-1» 28

Атауллаев Азизжон Одилович, Жураев Нодирбек Нормуродович, Эгамбердиев Илхом Пулатович, Яхшиев Шерали Намозович. Термомеханический анализ корпуса вращающейся оси с учетом тепловых нагрузок и структурных деформаций в пятиосевой системе ЧПУ 33

Жураев Нодирбек Нормуродович, Атауллаев Азизжон Одилович, Эгамбердиев Илхом Пулатович, Яхшиев Шерали Намозович. Разработка метода контроля профиля эвольвентных зубов цилиндрических колес на основе технологий машинного зрения 41

Хасанов Адхам Аманкулович, Эшанкулова Кумушой Абдуманан кизи, Эргашев Рузибек Алишер угли, Норбеков Исломжон Гофуржон угли. Исследование технологической эффективности буровых установок СБШ-250 МНА-32, применяемых на месторождении «Ёшлик I», и физико-механического воздействия горного массива 47

Каюмов Умиджон Эркинович, Хатамова Дилишода Нормуродовна, Пардаева Шахло Сахибжоновна. Повышение эффективности очистки впускного воздуха двигателей внутреннего сгорания горных машин 53

Сидиков Равшан Мирзабекович, Эргашев Махмуд Ахбаралиевич, Ахмадалиев Алишер Мадаминович, Абдуразаков Улугбек Мамаюсуб угли. Исследование эффективности комбинированной технологии при обогащении полиметаллических руд 61

Холикулов Дониёр Бахтиёрович, Болтаев Олмос Наджмиддинович, Элчиева Мохинур Дилишод кизи. Анализ роли окисленных медных руд в мировых запасах медных руд и современных технологических решений по их переработке 67

Тошкодирова Рано Эркинжоновна, Кенжаева Севара Абсаматовна. Термодинамические основы селективной очистки железистых пигментов от мышьяка, полученных из растворов биоокисления 74

Холикулов Дониёр Бахтиёрович, Шаропова Дурдона Юлдош кизи. ФОСФИД МЕДИ (Cu₃P): Современный анализ методов синтеза, электрохимических свойств и противокоррозионного применения 81

Мирзанова Зулфизар Анваржановна, Эшонкулов Учкун Худайназар угли, Ваккасов Бахтияр Абдураимович. Технология селективного выщелачивания и переработки свинцово-висмутовых шламов металлургического производства 87

ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

Бердимуратова Гульбану Пархат кизи, Курбанова Мохигул Мамасалиевна. Литология и особенности залегания девонских отложений кульдзуктауских гор 93

Мавлонов Шохрух Бобохон угли, Фозилов Садриддин Файзуллаевич. Оценка структурных изменений состава в реакции терполимеризации в трёхкомпонентной системе на основе экспериментальных данных и кинетической модели 99

Рустамов Мирзохид Мансур угли. Совершенствование технологии пеногенирующих шашек для снижения скопления жидкости в газовых скважинах 105

Отахонов Максуд Юсуфович, Зокиров Илхомжон Бахтиёр угли, Арифжанов Алишер Абдуллаевич, Азизов Хуришод Абдухамидович. Экспериментальная оценка чувствительности устройства Smart channel и минимального расхода воды 111

Ахмедов Холхужа Рахматуллаевич, Абдусаломова Мохинур Мусурмон кизи. Развитие постколлизонной стадии складчатых поясов и происхождение постколлизонных гранитоидов 121

Алимов Маруфжон Мавлонбердиевич, Джалилов Гафур Ганиевич, Тогаев Исомиддин Сапарович. Структурные и литостратиграфические особенности юрской карбонатной формации в Байсунском прогиб 127

Шоймуратов Туйчи Холикулович, Тогаев Исомиддин Сапарович, Алимов Маруфжон Мавлонбердиевич, Тоштемуров Шохрухжон Алишер угли. Геолого-поисковые критерии нефтегазоносности юрских терригенных отложений площади Умид Чарджуйской ступени 135

Киличев Икром Комил угли, Иботов Ойбек Куйли угли, Турдиев Шохжахон Шермамат угли, Матниязов Охунжон Пулатович. Эффективность технологий интенсификации добычи углеводородов на месторождениях Бухаро-Хивинского региона 142

Дононов Жасур Урал угли. Особенности пространственного и глубинного распределения разломов земной коры 151

Дононов Жасур Урал угли, Шамсидинова Гульзода Урал кизи. Методологический подход к изучению неотектонической структуры и движения территорий на основе иерархической тектодинамической модели 157

ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО

Буранова Динара Бахтияровна. Разработка и исследование свойств легкоплавких эмалевых композиций на основе системы «Хивинский кварцевый песок – полевоы шпат Султан-Увайс – свинецсодержащие отходы» 166

Турдиев Жасурбек Кахрамон угли, Куйбокаров Ойбек Эргашевич, Панджиев Улугбек Рустамович. Исследование влияния pH, времени контакта, количества сорбента и начальной концентрации на процесс адсорбции 171

Давронова Муниса Нурали кизи, Эшкурбонов Фуркат Бозорович, Ашурова Асал Абдуолим кизи, Абдуллаева Райхона Ильхом кизи. Синтез и исследование свойств геомембран на основе вторичного полиэтилена, наполненных Шерабадским аргиллитом 180

Сатторов Лазиз Холмуродович, Курбанов Абдирахим Ахмедович, Рахматов Худоёр Бобониёзович, Джурсаева Хурият Зоировна. Разработка технологии получения и очистки натриевой карбоксиметилцеллюлозы (Na-CMC) фармацевтического качества из целлюлозы стеблей машара для медицинского гипса 186

Сатторов Лазиз Холмуродович, Курбанов Абдирахим Ахмедович, Рахматов Худоёр Бобониёзович, Джурсаева Хурият Зоировна. Получение и оценка эксплуатационных свойств гибридных композитов на основе целлюлозы и базальтового волокна для тепло- и звукоизоляции 193

Рахманкулов Алижул Амиркулович, Махманов Эргаш Бинокулович, Хайдаров Туймурод Зойирович, Рузиев Руфат Тошбоевич. Исследование теплофизических и огнестойких свойств эпоксидных полимерных композиционных покрытий на основе бинарных наполнителей 199

ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

Назирова Рахматжон Расулович, Каримов Махмуд Рахматович, Абдукахоров Нуманбек Ойбек угли, Мухаммадиев Умарали Шералиевич. Аналитический обзор научных исследований по повышению эффективности процесса линтерования и обоснование направления исследований 207

ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ

Икромов Абдулазиз Азамович, Уринов Улугбек Комилжонович, Файзиев Жахонгир Бахромович. Теоретические основы и практические подходы к очистке промышленных сточных вод на основе процесса коагуляции 212

CONTENTS

MINING METALLURGY AND MANUFACTURING INDUSTRY

- Xasanov Abdirashid Saliyevich, Eshankulova Gulmira Rashidovna.* The history of uranium and prospects for the development of nuclear energy in Uzbekistan 10
- Nurkhonov Khusan Almirza ugli, Boriyev Feruz Mansur ugli, Ravshanov Avaz Ali ugli, Bakirov Ghayrat Kholiqberdiyevich.* The role of chemical capsules used in rock bolt support of mine workings 19
- Xujakulov Nurmurod, Nasirova Nigora, Ibotov Bobur, Safarov Aminjon.* Increasing the efficiency of sorption cyanidation of refractory silver-containing ores using various reagents for pre-treatment 23
- Alimov Shokhridin Mukhammadovich, Normurodov Jasurbek Jalol ugli.* Substantiation of optimal blast hole parameters to enhance the fragmentation efficiency of hard rock masses at the Yoshlik-I deposit 28
- Ataullaev Azizjon Odilovich, Juraev Nodirbek Normurodovich, Egamberdiev Ilkhom Pulatovich, Yakhshiev Sherali Namozovich.* Thermomechanical analysis of a rotating axis housing taking into account thermal loads and structural deformations in a five-axis CNC system 33
- Juraev Nodirbek Normurodovich, Ataullaev Azizjon Odilovich, Egamberdiev Ilkhom Pulatovich, Yakhshiev Sherali Namozovich.* Development of a method for controlling the evolvent teeth profile of cylindrical wheels based on machine view technologies 41
- Khasanov Adham Amankulovich, Eshankulova Kumushoy Abdumanap kizi, Ergashev Ruzibek Alisher ugli, Norbekov Islomjon Gofurjon ugli.* Investigation of the technological efficiency of SBSH-250 MNA-32 drilling rigs used at the “Yoshlik I” deposit and the physico-mechanical impact of the rock mass 47
- Kayumov Umidjon Erkinovich, Khatamova Dilshoda Normurodovna, Pardayeva Shahlo Saxibjonovna.* Enhancement of intake air filtration efficiency for internal combustion engines of mining equipment 53
- Sidikov Ravshan Mirzabekovich, Ergashev Makhmud Axbaraliyevich, Akhmadaliyev Alisher Madaminovich, Abdurazakov Ulugbek Mamayusub ugli.* Investigation of the efficiency of combined technology for polymetallic ore beneficiation 61
- Kholikulov Doniyor Bakhtiyorovich, Boltayev Olmos Najmidinovich, Elchiyeva Mokhinur Dilshod kizi.* Analysis of the role of oxidized copper ores in global copper ore reserves and modern technological solutions for their processing 67
- Toshkodirova Rano Erkinjonovna, Kenjayeva Sevara Absamatovna.* Thermodynamic basis of selective arsenic removal from iron oxide pigments obtained from bio-oxidation solutions 74
- Kholikulov Doniyor Bakhtiyorovich, Sharopova Durdona Yuldosh kizi.* Copper phosphide (Cu₃P): a modern review of synthesis methods, electrochemical properties, and anticorrosion applications 81
- Mirzanova Zulfizar Anvarjonovna, Eshonkulov Uchkun Khudoynazar ugli, Vakkasov Bakhtiyor Abdurahimovich.* Technology of selective leaching and processing of lead–bismuth sludges from metallurgical production 87

GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

- Berdimuratova Gulbanu Parkhat kizi, Kurbanova Moxigul Mamasaliyevna.* The importance of aerospace mapping methods in oil and gas field exploration 93
- Mavlonov Shokhruxh Bobokhon ugli, Fozilov Sadridin Fayzullayevich.* Evaluation of compositional structural changes in terpolymerization of a ternary system based on experimental data and kinetic modeling 99
- Rustamov Mirzokhid Mansur ugli.* Improvement of foam-generating stick technology for reducing liquid loading in gas wells 105
- Otakhonov Maqsud Yusufovich, Zokirov Ilhomjon Bakhtiyor ugli, Arifjanov Alisher Abdullayevich, Azizov Khurshid Abduxamidovich.* Experimental assessment of the sensitivity of the Smart channel device and the minimum water discharge 111
- Akhmedov Xolkuja Rakhmatullaevich, Abdusalomova Mokhinur Musurmon kizi.* Development of the post-collisional stage of fold belts and the origin of post-collisional granitoids 121
- Alimov Ma'ruffjon Mavlonberdiyevich, Djalilov Gafur Ganievich, Togayev Isomiddin Saparovich.* Structural and litho-stratigraphic features of the jurassic carbonate formation of the Boysun flex 127
- Shoymurotov Tuychi Kholiqulovich, Togayev Isomiddin Saparovich, Alimov Maruffjon Mavlonberdiyevich, Toshtemirov Shoxruxjon Alisher ugli.* Geological-search criteria for oil and gas in the jurassic terrigenous deposits of the Umid field of the Charjoy stage 135
- Kilichev Ikrom Komil ugli, Ibotov Oybek Kuyli ugli, Turdiyev Shoxjaxon Shermamat ugli, Matniyazov Oxunjon Pulatovich.* Efficiency of technologies for intensifying the production of hydrocarbons at the deposits of the Bukhara-Khiva region 142
- Dononov Jasur Ural ugli.* Spatial and depth distribution characteristics of geological faults 151
- Dononov Jasur Ural ugli, Shamsidinova Gulzoda Ural kizi.* A methodological approach to studying neotectonic structure and movement of regions based on a hierarchical tectodynamic model 157

CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

Buranova Dinara Baxtiyarovna. Development and investigation of the properties of low-temperature fusible enamel compositions based on the “Khiva quartz sand – Sultan Uvays feldspar – lead-containing waste” system 166

Turdiyev Jasurbek Kahramon ugli, Kuybokarov Oybek Ergashevich, Panjiev Ulugbek Rustamovich. Investigation of the effects of pH, contact time, sorbent dosage, and initial concentration on the adsorption process 171

Davronova Munisa Nurali kizi, Eshkurbonov Furkat Bozorovich, Ashurova Asal Abduolim kizi, Raykhona Abdullayeva Ilkhom kizi. Synthesis and study of the properties of geomembranes based on recycled polyethylene filled with sherobod argillite mineral 180

Sattorov Laziz Kholmurodovich, Kurbanov Abdiraxim Axmedovich, Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich, Juraeva Huriyat Zoirovna. Development of a purification technology for pharmaceutical-grade sodium carboxymethyl cellulose (Na-CMC) from mashar stem cellulose for medical gypsum applications 186

Sattorov Laziz Kholmurodovich, Kurbanov Abdiraxim Axmedovich, Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich, Juraeva Huriyat Zoirovna. Preparation and performance evaluation of cellulose–basalt fiber hybrid composites for thermal and acoustic insulation 193

Rahmankulov Alijul Amirkulovich, Maxmanov Ergash Binokulovich, Khaydarov Tuymurod Zoyirovich, Ruziyev Rufat Toshboevich. Investigation of the thermophysical and fire-resistance properties of epoxy polymer composite coatings based on binary fillers 199

LIGHT INDUSTRIES

Nazirov Rakhmatjon Rasulovich, Karimov Makhmud Rakhmatovich, Abdukahorov Nomonbek Oybek ugli, Mukhammadiev Umarali Sheralievich. Analytical review of scientific research on improving the efficiency of the lintering process and justification of the research direction 207

ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

Ikromov Abdulaziz Azamovich, Urinov Ulugbek Komiljonovich, Fayziyev Jahongir Bahromovich. Theoretical foundations and practical approaches to industrial wastewater treatment based on the coagulation process 212

KON-METALLURGIYA VA ISHLAB CHIQRISH SANOATI
ГОРНОДОБЫВАЮЩАЯ МЕТАЛЛУРГИЯ И ОБРАБАТЫВАЮЩАЯ
ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
MINING METALLURGY AND MANUFACTURING INDUSTRY

UO'K: 553.495:621.039(575.1)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.25

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

URAN ELEMENTINING TARIXI VA O'ZBEKISTONDA ATOM
ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



Xasanov Abdirashid Saliyevich

Texnika fanlari doktori, professor, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish markazi texnologiya bo'yicha direktor o'rinbosari, Olmaliq, O'zbekiston

E-mail: a.xasanov@srt-journal.uz
ORCID ID: 0009-0004-9162-7622
Science ID: DTV-1225-0005



Eshankulova Gulmira Rashidovna

MISIS Olmaliq filiali tayanch doktoranti, Olmaliq, O'zbekiston
E-mail: egr1424@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-5351-3760
Science ID: FTV-0426-0024

Annotatsiya. Ushbu maqolada uran elementining kelib chiqishi, kashf etilish tarixi va yadro fizikasi rivojlanishidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, uranni boyitish texnologiyalari, zamonaviy atom energetikasining rivojlanish tendensiyalari hamda O'zbekistonning global uran bozoridagi strategik mavqei yoritilgan. Mamlakatimizda uran qazib olishning zamonaviy usullari, «Navoiyuran» davlat korxonasi faoliyati, yangi konlarni o'zlashtirish istiqbollari va Jizzax atom elektr stansiyasi loyihasining energetik hamda iqtisodiy ahamiyati baholangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning jahon yadro sanoatidagi roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: uran, yadro energetikasi, uranni boyitish, atom elektr stansiyasi, Navoiyuran, Markaziy Qizilqum, yer ostida tanlab eritish, yadro xavfsizligi, strategik xomashyo, yashil energetika.

Received: 30.05.2026

Accepted: 28.06.2026

Published: 29.06.2026

ИСТОРИЯ ЭЛЕМЕНТА УРАНА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хасанов Абдирашид Салиевич

Доктор технических наук, профессор, заместитель директора по технологиям Центра разработки и внедрения инновационных технологий АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат», Алмалык, Узбекистан

Эшанкулова Гульмира Рашидовна

Базовый докторант Алмалыкского филиала НИТУ «МИСИС», Алмалык, Узбекистан

***Аннотация.** В статье рассмотрены происхождение элемента урана, история его открытия и роль в развитии ядерной физики. Проанализированы технологии обогащения урана, современные тенденции развития атомной энергетики и стратегическое значение Узбекистана на мировом рынке урана. Особое внимание уделено современным технологиям добычи урана, деятельности предприятия «Навоиуран», освоению новых месторождений, а также энергетическому и экономическому значению проекта строительства Джизакской атомной электростанции. Полученные результаты свидетельствуют об укреплении позиций Узбекистана в мировой ядерной промышленности.*

***Ключевые слова:** уран, атомная энергетика, обогащение урана, атомная электростанция, Навоиуран, Центральный Кызылкум, подземное скважинное выщелачивание, ядерная безопасность, стратегическое сырьё, зелёная энергетика.*

THE HISTORY OF URANIUM AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF NUCLEAR ENERGY IN UZBEKISTAN

Xasanov Abdirashid Saliyevich

Doctor of Technical Sciences, Professor, Deputy Director for Technology, Innovation Development and Implementation Center, Almalyk Mining and Metallurgical Complex JSC, Almalyk, Uzbekistan

Eshankulova Gulmira Rashidovna

PhD Researcher, Almalyk Branch of MISIS National University of Science and Technology, Almalyk, Uzbekistan

***Abstract.** This paper examines the origin of uranium, the history of its discovery, and its contribution to the development of nuclear physics. It analyzes uranium enrichment technologies, recent trends in nuclear energy development, and Uzbekistan's strategic position in the global uranium market. Particular attention is given to modern uranium mining technologies, the activities of Navoiuran State Enterprise, the development of new uranium deposits, and the economic and energy significance of the Jizzakh Nuclear Power Plant project. The findings demonstrate Uzbekistan's steadily growing role in the global nuclear industry.*

***Keywords:** uranium, nuclear energy, uranium enrichment, nuclear power plant, Navoiuran, Central Kyzylkum, in-situ leaching, nuclear safety, strategic raw materials, green energy.*

Kirish. Insoniyat tarixi aslida energiya manbalarini qidirish va ularni bo'ysundirish xronikasidan iborat. Olov ustidan qozonilgan ilk g'alabadan boshlab, ko'mir va neft davrigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tish uchun bizga minglab yillar kerak bo'ldi. Biroq XX asrga kelib, ilm-fan olami koinotning eng dahshatli va eng sirli xazinalaridan birini ochishga muvaffaq bo'ldi. Bu — atom yadrosi qa'rida yashiringan va aqlga sig'mas darajada ulkan bo'lgan quvvat edi. Bu buyuk va vayronkor kuchning markazida esa Mendeleev davriy jadvalining 92-raqamli elementi — kumushsimon-oq rangli, og'ir va sirli uran (U) metalli turadi.

Bugungi kunda uran shunchaki kimyoviy element emas. U global geosiyosat tarozisini belgilab beruvchi asosiy tosh, yashil energetikaga o'tish davrining bosh ustuni va davlatlar xavfsizligining kafolatidir. Bu metallning tarixi koinotning yaratilishi bilan boshlanib, bugungi

kunda O'zbekiston sahralaridagi zamonaviy konlarda davom etmoqda [1].

Uranning paydo bo'lish tarixi Yerdagi hech bir jarayon bilan bog'liq emas. U ko'mir yoki neft kabi millionlab yillar davomida organik moddalarning chirishidan hosil bo'lmagan. Uni yaratish uchun tabiatga butun boshli yulduzlarni portlatish to'g'ri kelgan.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi.

Zamonaviy astrofizikaning isbotlashicha, uran kabi o'ta og'ir metallar faqat Koinotdagi eng dahshatli va global halokatlar — so'nuvchi yulduzlar (Supernova) portlashi yoki ikkita neytron yulduzining o'zaro to'qnashishi paytidagina yuzaga keladi. Bunday lahzalarda sodir bo'ladigan aql bovar qilmas harorat va milliardlab neytronlar oqimi yengil yadrolarni bir-biriga qo'shilishga majbur qiladi va natijada uran yadrosi shakllanadi.

Bundan taxminan 4,5 milliard yil avval Koinot changi va qadimgi yulduzlar qoldiqlaridan

biz yashab turgan Yer sayyorasi shakllanayotganda, uran ham uning tarkibiga kirgan. Geologik xususiyatlariga ko'ra, uran tosh jinslariga o'ch metall hisoblanadi. Shu sababli u Yerning markazidagi og'ir temir yadroga cho'kib ketmasdan, sayyoraning ustki qatlamida — biz oyoq bosib turgan Yer po'stlog'ida qolib ketgan. Eng qizig'i, insoniyat bu elementni kovlab olishni boshlagunga qadar, uran milliard yillar davomida o'zidan chiqargan radiatsiya hisobiga Yer bag'rini isitib, vulqonlar va geologik harakatlarni ta'minlab kelgan. Ya'ni, sayyoramizning tirik va issiq ekanligi uchun ham biz urandan qarzdormiz.

Insonlar uran bilan juda qadimdan to'qnash kelishgan, ammo uni tanishmagan. Masalan, qadimgi Rim imperiyasi davrida kulollar va shishasozlar uran ma'dani qo'shilgan tuproqdan yasalgan buyumlarning nafis sarg'ish-yashil tus olishini payqashgan. Biroq uni alohida metall sifatida ajratib olish hech kimning xayoliga kelmagan.



1-rasm. So'nuvchi yulduz (supernova) portlashi natijasida og'ir elementlarning sintezi.

Uran rasman **1789-yilda** nemis kimyogari **Martin Genrix Klaprot** tomonidan kashf etildi. U Saksoniyadagi kumush konlaridan topilgan qora rangli og'ir mineralni tadqiq qilayotganda, uning ichidan noma'lum metall oksidini ajratib olishga muvaffaq bo'ladi. O'sha yillarda ilm-fan olamida yana bir buyuk voqea sodir bo'lgan edi — astronom Uilyam Gershel koinotda yangi sayyorani kashf etib, uni qadimgi yunon xudosi sharafiga Uran deb nomlagandi.

Klaprot ham o'zi topgan yangi elementni mana shu mashhur sayyora sharafiga Uran deb

atashni lozim topadi [2].



2-rasm. Martin Genrix Klaprot.

Shuni aytish kerakki, Klaprot olgan modda sof uran emas, balki uning oksidi edi. Oradan yarim asrdan ko'proq vaqt o'tib, **1841-yilda** fransuz kimyogari **Ejen Peligo** birinchi bo'lib to'q rangli kumushsimon sof uran metallini olishga muvaffaq bo'ldi. Ammo u paytlarda bu metallning ichida qanday dahshatli kuch yashiringanini hali hech kim, hatto olimlarning o'zlari ham tasavvur qila olishmasdi. U uzoq vaqt davomida oddiy bo'yoq va shisha sanoati xomashyosi bo'lib qolaverdi.



3-rasm. Anri Bekkerel.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari uran atrofida butun boshli yangi fan — yadro fizikasining yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu davrda zanjirband sodir bo'lgan ilmiy kashfiyotlar insoniyatning materiya va energiya haqidagi tushunchalarini butunlay ostin-ustun qilib yubordi.



4-rasm. Mariya Kyuri.

Hammasi 1896-yilda fransuz fizigi **Anri Bekkerelning** oddiy bir tasodifidan boshlandi. U uran tuzlarining yorug'lik chiqarish xususiyatini o'rganayotgan edi. Bir kuni u fotoplastinkani qora qog'ozga o'rab, ustiga uran bo'lagini qo'ydi-da, ob-havo bulut bo'lgani uchun ishni keyinga qoldirib, hammasini qorong'i g'aladonga joylashtirdi. Bir necha kundan keyin plastinkani ochib ko'rganda, unda uran tuzining aniq soyasi (tasviri) qolganini ko'rib hayratda qoldi. Bu uranning tashqi yorug'lik yoki issiqliksiz ham, o'z-o'zidan ko'zga ko'rinmas, qog'ozdan o'tib ketuvchi nurlar chiqarishini anglatar edi. Bu hodisa keyinchalik **Mariya va Pyer Kyurilar** tomonidan "radiofaollik" deb nomlandi va ular bu kashfiyot yo'lida o'z sog'liqlarini qurbon qilishdi.

Biroq eng dahshatli va olamshumul yangilik 1938-yilning sovuq dekabr kunlarida sodir bo'ldi. Nemis kimyogarlari Otto Gan va Frits Shtrassman laboratoriyada uran yadrosini neytron zarrachalari bilan o'qqa tutganda, uran yadrosi deyarli teng ikki bo'lakka bo'linib ketganini payqashdi. Fizik ayol Liza Meytner va uning jiyani Otto Frish bu jarayonning matematik va fizik isbotini ishlab chiqishdi.

Bu oddiy kimyoviy reaksiya emas, balki koinot sirining ochilishi edi. Bir dona uran yadrosi bo'linganda, Albert Eynshteynning mashhur formulasiga muvofiq, oddiy yonilg'ilardan millionlab marta kuchli bo'lgan energiya va qo'shimcha yangi neytronlar ajralib chiqardi. Bu yangi neytronlar esa qo'shni uran yadrolarini urib vayron qilar va shu tariqa soniyaning mingga bir

ulushida "zanjirli yadro reaksiyasi" boshlanardi. Mana shu kashfiyot insoniyatni bir vaqtning o'zida ham eng dahshatli qurol — atom bombasi, ham eng kuchli energiya manbai — yadroviy energetika ostonasiga olib keldi.

1-jadval.

2026-yilda dunyoda jami ishlab turgan atom reaktorlari holati

T/r	Davlat	Reaktorlar soni (taxminan)	Izoh
1	AQSH	94	Dunyodagi eng yirik atom energetikasi tarmog'i
2	Xitoy	56 (+29)	Eng tez rivojlanayotgan davlat, yana 29 ta reaktor qurilmoqda
3	Fransiya	56	Elektr energiyasining qariyb 70 % atom energetikasidan olinadi
4	Rossiya	36	Zamonaviy yadro texnologiyalari yetakchilaridan biri
5	Yaponiya	33	Reaktorlarning bir qismi texnik ko'rikda yoki vaqtincha to'xtatilgan
6	Janubiy Koreya	26	Elektr energiyasining 30 % ga yaqini atom energetikasidan olinadi
7	Hindiston	23	Yangi atom elektr stansiyalari faol qurilmoqda
8	Kanada	19	Asosan Ontario provinsiyasida joylashgan
9	Ukraina	15	Zaporozhye AES Yevropadagi eng yirik atom elektr stansiyalaridan biri
10	Buyuk Britaniya	9	Yangi reaktorlar qurilishi rejalashtirilgan
11	Ispaniya	7	Atom elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich yopish rejalashtirilgan
12	Shvetsiya	6	Yangi reaktorlar qurishga ruxsat berilgan
13	Pokiston	6	Xitoy bilan hamkorlikda rivojlanmoqda
14	Chexiya	6	Janubiy Koreya bilan yangi loyiha amalga oshirilmoqda
15	Belgiya	5	AESlarni yopish rejasini keyinga surilgan
16	Finlyandiya	5	Olkiluoto-3 dunyodagi eng qudratli reaktorlardan biri
17	Vengriya	4	"Paksh" AES kengaytirilmoqda
18	Slovakiya	5	Elektr energiyasining 50 % dan ortig'i atom energetikasidan olinadi
19	Shveysariya	4	Referendumdan so'ng yangi reaktorlar qurilishiga ruxsat berildi
20	BAA	4	"Baraka" AES to'liq ishga tushirilgan
21	Braziliya	2	"Angra-1" va "Angra-2" atom elektr stansiyalari
22	Bolgariya	2	"Kozloduy" AES faoliyat yuritilmoqda
23	Argentina	3	"Atucha" va "Embalse" atom elektr stansiyalari
24	JAR	2	Afrikadagi yagona atom elektr stansiyasiga ega davlat
25	Meksika	2	"Laguna Verde" AES
26	Polsha	0 (1)*	Birinci atom elektr stansiyasi qurilishi boshlangan
27	Turkiya	0 (1)*	"Akkuyu" AES sinov bosqichida
28	Ruminiya	2	"Cernavoda" AES
29	Eron	1	"Bushehr" AES
30	Sloveniya	1	"Krško" AES (Xorvatiya bilan hamkorlikda)
31	Niderlandiya	1	"Borssele" AES
32	Armaniston	1	"Metsamor" AES
33	Belarus	2	Ostrovets atom elektr stansiyasi
34	O'zbekiston	0 (2)*	Jizzax atom elektr stansiyasi loyihasi amalga oshirilmoqda

Muhokama. Tabiatdan qazib olingan uranni to'g'ridan-to'g'ri reaktorga solib yoqib bo'lmaydi. Buning sababi — uranning ichki tabiatidagi notekislikdir. Qazib olingan uran tarkibida ikki xil izotop (egizaklar) bo'ladi. Birinchisi — **Uran-238**

bo'lib, u umumiy hajmning 99,3 foizini tashkil etadi, lekin u juda "dangasa" va zanjirli reaksiyaga kirishmaydi. Ikkinchisi — **Uran-235** bo'lib, u atigi 0,7 foiz atrofida uchraydi. Lekin aynan mana shu kamyob izotop yadro yoqilg'isining asl yuragi hisoblanadi.

Reaktor ishlashi uchun uran tarkibidagi Uran-235 ulushini kamida 3-5 foizgacha ko'tarish kerak. Bu jarayon ilm-fanda "uranni boyitish" deb ataladi. Bu ikki izotopning kimyoviy xususiyatlari bir xil, ular faqat vazni bilan bir-biridan juda juz'iy farq qiladi. Shu sababli ularni ajratib olish dunyodagi eng murakkab, eng qimmat va eng maxfiy texnologiya hisoblanadi. Bugungi kunda buning uchun maxsus gaz sentrifugalari ishlatiladi. Uran gaz holatiga keltirilib, daqiqasiga yuz minglab marta aylanadigan barabanlar ichiga yuboriladi. Og'irroq izotoplar devor tomon urilib, yengil va kerakli bo'lgan **Uran-235** markazda yig'ib olinadi.

Bugungi kunda dunyo global iqlim o'zgarishi va havoning isib ketishi muammosi bilan kurashayotgan bir paytda, atom energetikasi insoniyat uchun haqiqiy qutqaruvchiga aylandi. Zamonaviy AESlar — bu uranning vayronkor kuchini jilovlab, undan faqat ezgulik yo'lida, ya'ni elektr energiyasi olishda foydalanadigan ulkan va murakkab muhandislik inshootlaridir.


Uraning quvvatini oddiy misolda tasavvur qilish mumkin: bor-yo'g'i 1 gramm uran-235 izotopi parchalanganda ajraladigan issiqlik, deyarli 3 tonna eng sifatli ko'mir yoki 2 tonna neft yoqilganda chiqadigan energiyaga teng.

Hozirda Yer yuzida 400 dan ortiq yadroviy reaktorlar uzluksiz ishlab turibdi. Chernobil yoki Fukusima fojialaridan to'g'ri xulosa chiqargan ilm-fan bugungi kunda mutlaqo xavfsiz bo'lgan "3+" va 4-avlod reaktorlarini yaratdi. Bu reaktorlar inson omilisiz, hatto qandaydir avariya sodir bo'lgan taqdirda ham, o'z-o'zini avtomatik ravishda o'chirish va radiatsiyani ichkarida qamab qo'yish tizimlariga ega. Eng muhimi, AESlar atmosferaga is gazi (CO₂) chiqarmaydi, shu sababli ular dunyo miqyosida "yashil energetika" maqomini oldi. So'nggi o'n yilliklarda yangi qurilgan reaktorlarning katta qismi Xitoy, Hindiston va BAA hissasiga to'g'ri keldi. Xitoy dunyoda eng tez kengayib borayotgan yadroviy davlatga aylandi va og'irlik markazi Osiyoga "ko'chdi".

Uran — oddiy bozorda sotiladigan tovar

emas. U strategik xomashyo bo'lgani uchun dunyo xaritasidagi kuchlar muvozanatini belgilaydi. Uni qazib olish va qayta ishlash imkoniyatiga ega davlatlar sanoqlidir. Qozog'iston, Kanada va Namibiya dunyo uran bozorining asosiy o'yinchilari hisoblanadi. Ammo so'nggi yillarda dunyoda yadro yoqilg'isiga bo'lgan talabning keskin ortishi va yangi AESlar qurilishi natijasida uranning narxi rekord darajada qimmatlashdi va xalqaro birjalarda bir funt uran uchun 100 dollarlik dovondan oshib o'tdi. Bu sohani dunyodagi eng daromadli va strategik tarmoqqa aylantirdi.

Ko'pchilik bilmasligi mumkin, ammo O'zbekiston dunyo uran sanoatining haqiqiy "nahanglaridan" biridir. Mamlakatimiz zamini bu qimmatbaho metallning zaxiralari bo'yicha ham, uni qazib olish hajmi bo'yicha ham jahonda eng oldingi qatorlarda turadi.



5-rasm. Qiyosiy tahlillar: dunyo miqyosida 2025-yilda asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tomonidan uran qazib olinishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 14-iyuldagi PQ-319-sonli qarori** soha rivojida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu hujjatga ko'ra, "**Navoiyuran**" DKda uran qazib olish hajmini **2030-yilga qadar 15 000 tonnaga** yetkazish strategik vazifa qilib belgilandi. Bugungi kunda yurtimizda tasdiqlangan uran zaxiralari **139 000 tonnani** tashkil etadi va qidiruv ishlari davom etmoqda.

Agar **2021-yilda 3,5 ming tonna** uran qazib olingan bo'lsa, **2025-yil** yakuniga kelib bu ko'rsatkichni **7 ming tonnaga** yetkazish rejalashtirilgan. Bu ishlab chiqarish hajmining qisqa vaqt ichida ikki baravarga oshishini anglatadi.

Yangi konlarni o'zlashtirish va qidiruv ishlarini jadallashtirish maqsadida bir qator "mega-

loyihalar” amalga oshirilmoqda:

1. “Arnasoy” loyihasi (Jizzax): Qiymati 150 mln AQSh dollari bo‘lgan ushbu loyiha 2026-yilda ishga tushiriladi va sohaga yangi texnologik nafas olib kiradi.

2. Fransiya bilan hamkorlik: “Orano” kompaniyasi bilan Navoiy viloyatidagi “Janubiy Jongeldi” konini o‘zlashtirish bo‘yicha yirik sanoat ishlari olib borilmoqda.

3. Geografiya kengaymoqda: Navoiydagi “G‘arbiy Qizilqoq” va Samarqanddagi “Sharqiy Agron” konlarini o‘zlashtirish bosqichi boshlandi. Shuningdek, 2026-yildan Mo‘g‘uliston bilan xalqaro qidiruv ishlari yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbarining **2024-yil 24-may**dagi PF-79-sonli Farmoni bilan radiatsiya va yadro xavfsizligi davlatning qat’iy nazoratiga olindi. MAGATE (IAEA) bilan imzolangan maxsus reja asosida uran chiqindilarini tozalash va atrof-muhit muhofazasi “Navoiyuran” DKning doimiy diqqat markazida turadi. Bu urandan “qo‘rqmaslikka”, aksincha, undan ekologik sof energiya manbai sifatida foydalanishga zamin yaratadi.

Bu korxonada dunyo bozorida o‘zining eng toza va tannarxi eng past mahsuloti (uran oksidi konsentrati yoki "sariq kek") bilan mashhur. 2025-yilgi moliyaviy hisobotlarga ko‘ra, korxonaning yillik daromadi 1,112 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu raqam mamlakatimiz bdyujeti va eksport salohiyati uchun qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanligini tushunish qiyin emas.

2026-yil 24-mart kuni Jizzax viloyatining Forish tumanida O‘zbekiston tarixida ilk bor Atom elektr stansiyasi (AES) qurilishiga rasman ruxsat berildi. Stansiya 3+ avlodiga mansub ikkita yirik **VVER-1000** va ikkita kichik **RITM-200N** reaktorlari bilan jihozlanadi. AES to‘liq ishga tushgach, yiliga 15,4 mlrd kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu mamlakatimiz elektr iste‘molining 15 foizdan ortig‘ini tashkil etadi.

O‘zbekiston uranni yerdan kavlab olishda dunyodagi eng ilg‘or va ekologik toza usul — Yer ostida kimyoviy tanlab eritish texnologiyasini qo‘llaydi. Bunda yer usti tuprog‘i kovlanmaydi, ekskavatorlar ishlamaydi va atrof-muhitga zarar yetkazib chang ko‘tarilmaydi. Shunchaki yer ostiga burg‘ilangan kichik quduqlar orqali maxsus suyuqlik yuborilib, uran yer ostining o‘zida eritiladi va tepaga faqat suyuq aralashma sifatida tortib

olinadi. Sahro tabiati o‘z holicha qolaveradi.

Sanoatdagi eng katta yangiliklardan biri — Navoiy viloyatidagi yillik quvvati **1200 tonna** bo‘lgan yirik “**Qizilqoq**” konida sanoat miqyosida uran qazib olishning muvaffaqiyatli boshlangani bo‘ldi. Bundan tashqari, Jizzaxdagi “**Arnasoy**”, shuningdek “**G‘arbiy Qizilqoq**”, “**Janubiy Jongeldi**” va “**Sharqiy Agron**” kabi yangi istiqbolli maydonlarda qidiruv va o‘zlashtirish ishlari jadal ketmoqda. Fransiyaning “**Orano**” va Yaponiyaning “**Itochu**” kabi dunyo konglomeratlari bilan tuzilgan qo‘shma korxonalar (masalan, “**Nurlikum Mining**”) O‘zbekiston uran sanoatiga eng zamonaviy raqamli texnologiyalar va xorij kapitalini olib kirmoqda.



6-rasm. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida Jizzax atom elektr stansiyasi loyihasi bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish marosimi.

O‘zbekiston o‘zining boy uran zaxiralaridan nafaqat xomashyo sifatida foydalanish, balki uni yuqori texnologiyalar asosida tayyor energiyaga aylantirish maqsadida yangi yadro energetikasi davriga qadam qo‘ydi. Bu yo‘ldagi bosh strategik qadam Jizzax zaminida tashlandi. O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish bo‘yicha dastlabki muhim qadamlar 2024-yilning may oyida, Rossiya Federatsiyasi bilan kichik quvvatli AES qurilishi bo‘yicha atom energetikasi tarixidagi ilk eksport shartnomasi imzolanishi bilan boshlangan edi. Keyinchalik, mamlakatning strategik ehtiyojlaridan kelib chiqib, loyiha ko‘lami sezilarli darajada kengaytirildi.

2026-yilning 24-mart kuni Toshkent va loyiha maydonchasida muhim qo‘shimcha kelishuvlar va hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi” imzolandi. Loyihaning faol amaliy bosqichi esa **2026-yil 4-iyun** kuni boshlandi. Sankt-Peterburg

shahrida bo‘lib turgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin maxsus teleko‘prik orqali integratsiyalashgan AESning birinchi energiya bloki qurilishiga rasman start berdilar. Ushbu tantanali marosimda Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) Bosh direktori **Rafael Grossi** ham ishtirok etib, loyihaning xalqaro xavfsizlik standartlariga mosligini qo‘llab-quvvatladi. Shu kuni poydevorga ilk rasmiy beton quyilib, O‘zbekiston yadroviy energetika xaritasiga kirdi.

Jizzax AES shunchaki elektr stansiyasi emas, balki dunyo yadro sanoatida birinchi marta qo‘llanilayotgan integratsiyalashgan (gibrid) yadro majmuasidir. Loyihaning noobopligi shundaki, bir maydonning o‘zida ham manevrli kichik modulli reaktorlar, ham ulkan bazaviy quvvatga ega katta reaktorlar birlashtiriladi.



7-rasm. Jizzax viloyatidagi birinchi atom elektr stansiyasi maketi.

Stansiya tarkibida Rossyaning eng zamonaviy, suv-suvli yadroviy qurilmasi bo‘lgan, har biri **55 MVt** quvvatga ega **RITM-200N reaktorlaridan** 2 ta o‘rnatiladi. Ilgari faqat atom muzyorar kemalarida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan ushbu texnologiyaning yer ustidagi ilk tijoriy tatbiqi aynan O‘zbekistonda amalga oshirilmog‘da. Birinchi kichik blok 2029-yilning yakunida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatning o‘sib borayotgan iqtisodiyotini barqaror energiya bilan ta‘minlash maqsadida loyihaga 3+ avlodiga mansub, har biri **1000 MVt (1 GVt)** quvvat beruvchi ikkita yirik **VVER-1000 reaktorlari** ham kiritildi. Ushbu bloklar 2033 va 2035-yillarda elektr tarmog‘iga ulanadi.

To‘liq loyiha quvvati **2110 MVt (2,1 GVt)** ga teng bo‘lib, kontraktning bazaviy qiymati **9,5 milliard dollarni** tashkil etadi. Shartnomaga ko‘ra,

qurilish ishlarida **mahalliyashtirish darajasi 30 foizgacha** yetkazilishi nazarda tutilgan.



8-rasm. “Rosatom” davlat korporatsiyasi bosh direktori **Aleksey Lixachyov** va “O‘zatom” agentligi direktori **Azim Ahmedxo‘jayev**.

Jizzax AES nafaqat energetik obyekt, balki mintaqa infratuzilmasini butunlay o‘zgartiruvchi yirik loyihadir. Stansiya qurilishi va unga xizmat ko‘rsatish doirasida Forish tumanida yangi zamonaviy atomchilar shaharchasi — “**Atomgrad**” bunyod etiladi.


Xulosa. Statistik usullar va spektral yoyilmadan foydalangan holda tish profilining og'ishlarini tahlil qilish amalga oshirildi, bu esa nuqsonlarni, shu jumladan og'ish xatolarini, shakllarni va mahalliy shikastlanishlarni tasniflashga yondashuvni ishlab chiqish imkonini berdi. Usulning xatoligini baholash shuni ko'rsatdiki, o'lchashning umumiy xatosi 0,036 mm dan oshmaydi, bu 8-darajali aniqlikdagi tishli g'ildiraklarni nazorat qilish talablariga javob beradi. Bu esa ishlab chiqilgan usulning sanoat ishlab chiqarishi sharoitida amaliy qo'llanilishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


- [1] Lipson, A. Z. (1978). Tishli uzatmalar: Ma'lumotnoma. Mashinasozlik.
- [2] Kalinin, V. N. (1986). Kontrol zubnykh kolesov. Standartizdat.
- [3] Tabachnikov, V. M. (1974). Tishli g'ildiraklar evolventometriyasi. Mashinasozlik.

- [4] Fedotov, A. I. (1984). Izmereniye parametrov zubnykh kolesov. Mashinasozlik.
- [5] Klingelberg GmbH. (2019). Gear metrology (Technical brochure).
- [6] Hoefler GmbH. (2020). Zahnradmesstechnik (Product catalog).
- [7] Goch, G. (2003). Gear metrology. CIRP Annals, 52(2), 659–695. [https://doi.org/10.1016/S0007-8506\(07\)60206-8](https://doi.org/10.1016/S0007-8506(07)60206-8)
- [8] Smith, G. T. (2016). Machine tool metrology: An industrial handbook. Industrial Press.
- [9] Petrov, S. A. (2018). Opticheskiye metody kontrolya zubnykh kolesov. Izvestiya Vuzov. Priborostroyeniye, (6), 45–51.
- [10] Wang, J., & Zhang, Y. (2017). Optical measurement of gear tooth profile. Measurement Science and Technology, 28(8), 85–92.
- [11] Kozlov, A. V. (2020). Tishli ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalar. Mekhatronika, Avtomatlashtirish, Boshqarish, 21(5), 278–285.
- [12] Radzevich, S. P. (2016). Dudley's handbook of practical gear design and manufacture. CRC Press.
- [13] Schultz, M., & Müller, R. (2004). Vision-based gear parameter identification. In Proceedings of SPIE (Vol. 5605, pp. 120–127).
- [14] Chen, X., & Li, W. (2019). Gear type classification using deep convolutional neural networks. IEEE Access, 7, 123456–123465.
- [15] Garcia, J., & Martinez, R. (2021). 3D scanning for gear wheel inspection. Precision Engineering, 67, 234–245.
- [16] Hexagon Manufacturing Intelligence. (2022). Gear metrology solutions (Technical review).
- [17] OpenGear Project. (2023). OpenGear repository. GitHub. GitHub Repository

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Jo'rayev, N. N., Ataulayev, A. O., Egamberdiyev, I. P., & Yaxshiyev, Sh. N. (2026). Mashinali ko'rish texnologiyalari asosida silindrik g'ildiraklarning evolvent tishlari profilini nazorat qilish usulini ishlab chiqish. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.14>

UO‘K: 56.012.3

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.6

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

“YOSHLIK I” KONIDA QO‘LLANILAYOTGAN SBSH-250 MNA-32 BURG‘ILASH DASTGOHLARINING TEXNOLOGIK SAMARADORLIGI VA TOG‘ JINSI MASSIVNING FIZIK-MEXANIK TA‘SIRINI TADQIQ ETISH



**Xasanov Adham
Amankulovich**

Olmalik davlat texnika instituti,
Konchilik fakulteti, “Konchilik
ishi” kafedrası dotsenti, Olmalik,
O‘zbekiston
Science ID: FTV-1225-0014



**Eshankulova Kumushoy
Abdumanap qizi**

Olmalik davlat texnika instituti,
Konchilik fakulteti, “Konchilik
ishi” kafedrası magistranti,
Olmalik, O‘zbekiston



**Ergashev Ro‘zibek
Alisher o‘g‘li**

Olmalik davlat texnika instituti,
Konchilik fakulteti, “Konchilik
ishi” kafedrası magistranti,
Olmalik, O‘zbekiston



**Norbekov Islomjon
G‘ofurjon o‘g‘li**

Olmalik davlat texnika instituti,
Konchilik fakulteti, “Konchilik
ishi” kafedrası magistranti,
Olmalik, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Yoshlik I” konida qo‘llanilayotgan SBSH-250 MNA-32 burg‘ilash dastgohlarining texnik va texnologik imkoniyatlari hamda tog‘ jinsi massivining fizik-mexanik xossalari burchak jarayoniga ta‘siri o‘rganilgan. Tadqiqot davomida tog‘ jinslarining qattqlik koeffitsienti, siqilishga va siljishga bo‘lgan qarshilik ko‘rsatkichlari hamda burg‘ilash tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Protodyakonov shkalasi asosida tog‘ jinslarining burg‘ilanish qiyinchilik darajasi aniqlanib, SBSH-250 MNA-32 dastgohining optimal ish rejimlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari burg‘ilash uskunalari samaradorligini oshirish va energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Yoshlik I” koni, SBSH-250 MNA-32, burg‘ilash dastgohi, tog‘ jinsi massivi, fizik-mexanik xossalari, burg‘ilash tezligi, qattqlik koeffitsienti, Protodyakonov shkalasi, siqilishga chidamlilik, siljishga qarshilik.

Received: 06.05.2026

Accepted: 15.05.2026

Published: 29.06.2026

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ БУРОВЫХ УСТАНОВОК СБШ-250 МНА-32, ПРИМЕНЯЕМЫХ НА МЕСТОРОЖДЕНИИ «ЁШЛИК I», И ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ГОРНОГО МАССИВА

**Хасанов Адхам
Аманкулович**

Алмалыкский государственный
технический институт, Горный
факультет, доцент кафедры
«Горное дело», Алмалык,
Узбекистан

**Эшанкулова Кумушой
Абдуманап кизи**

Алмалыкский государственный
технический институт, Горный
факультет, магистрант
кафедры «Горное дело»,
Алмалык, Узбекистан

**Эргашев Рузибек
Алишер угли**

Алмалыкский государственный
технический институт, Горный
факультет, магистрант
кафедры «Горное дело»,
Алмалык, Узбекистан

**Норбеков Исламжон
Гофуржон угли**

Алмалыкский государственный
технический институт, Горный
факультет, магистрант
кафедры «Горное дело»,
Алмалык, Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследованы технические и технологические возможности буровых установок СБШ-250 МНА-32, применяемых на месторождении «Ёшлик I», а также влияние физико-механических свойств горного массива на процесс бурения. В ходе исследования проанализирована взаимосвязь между коэффициентом крепости горных пород, сопротивлением сжатию и сдвигу, а также скоростью бурения. На основе шкалы Протодеяконова определена категория трудности бурения пород и обоснованы оптимальные режимы работы буровой установки СБШ-250 МНА-32. Результаты исследования направлены на повышение эффективности буровых работ и снижение энергозатрат.

Ключевые слова: месторождение «Ёшлик I», СБШ-250 МНА-32, буровая установка, горный массив, физико-механические свойства, скорость бурения, коэффициент крепости, шкала Протодеяконова, сопротивление сжатию, сопротивление сдвигу.

INVESTIGATION OF THE TECHNOLOGICAL EFFICIENCY OF SBSH-250 MNA-32 DRILLING RIGS USED AT THE “YOSHLIK I” DEPOSIT AND THE PHYSICO-MECHANICAL IMPACT OF THE ROCK MASS

**Khasanov Adham
Amankulovich**

Almalyk State Technical Institute,
Faculty of Mining, Associate
Professor of the Mining
Department, Almalyk, Uzbekistan

**Eshankulova Kumushoy
Abdumanap kizi**

Almalyk State Technical Institute,
Faculty of Mining, Master's Student
of the Mining Department, Almalyk,
Uzbekistan

**Ergashev Ruzibek
Alisher ugli**

Almalyk State Technical Institute,
Faculty of Mining, Master's Student
of the Mining Department, Almalyk,
Uzbekistan

**Norbekov Islomjon
Gofurjon ugli**

Almalyk State Technical Institute,
Faculty of Mining, Master's Student
of the Mining Department, Almalyk,
Uzbekistan

Abstract. This article investigates the technical and technological capabilities of the SBSH-250 MNA-32 drilling rigs used at the “Yoshlik I” deposit, as well as the influence of the physico-mechanical properties of the rock mass on the drilling process. The study analyzes the relationship between the rock hardness coefficient, compressive and shear strength, and drilling speed. Based on the Protodyakonov scale, the drillability category of the rocks was determined, and the optimal operating modes of the SBSH-250 MNA-32 drilling rig were substantiated. The research results contribute to improving drilling efficiency and reducing energy consumption.

Keywords: “Yoshlik I” deposit, SBSH-250 MNA-32, drilling rig, rock mass, physico-mechanical properties, drilling speed, hardness coefficient, Protodyakonov scale, compressive strength, shear resistance.

Kirish. Ochiq kon ishlarida tog‘ jinlarini samarali parchalash – kon sanoatining eng asosiy texnologik jarayonlaridan biridir. “Yoshlik I” koni o‘zining qoyasimon jinlardan iborat massivi bilan ajralib turadi, bu esa burg‘ilash va portlatish ishlariga yuqori talablar qo‘yadi. Konning unumdorligini oshirish va tan narxini pasaytirishda zamonaviy burg‘ilash texnikalarini to‘g‘ri tanlash va ularning ish rejimlarini jins xususiyatlariga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada “Yoshlik I” koni sharoitida “Rudgormash” SBSH – 250 MNA - 32 burg‘ilash dastgohlarining ekspluatatsiya parametrlari va samaradorligi tahlil qilindi.

“Yoshlik I” koni tog‘ jinsi massivi qoyasimon jinlardan tashkil topgan hisoblanadi. Konda ruda

va qoyasimon qatlam jinlarini yumshatish quduq (skvajina) zaryadlari yordamida amalga oshiriladi. Ruda va ustki qatlamlarda portlatish quduqlarini burg‘ilash uchun, bugungi kunda “Yoshlik I” konida “Rudgormash” zavodiga tegishli SBSH-250MN-32 rusumli (boshqa ishlab chiqaruvchilarning analoglari ham bo‘lishi mumkin) sharoshkali burg‘ilash dastgohlaridan foydalanish ko‘zda tutilgan. SBSH sharoshkali burg‘ilash dastgohlarini ekspluatatsiya qilishdagi ko‘p yillik va muvaffaqiyatli tajriba ushbu dastgohlardan “Yoshlik I” karyerida foydalanishni belgilab berdi.

SBSH-250MN-32 rusumli burg‘ulash uskunasi ochiq kon ishlarida professor Protodyakonov shkalasi bo‘yicha mustahkamligi 6-18 birlik bo‘lgan jinlarda texnologik portlatish quduqlarini

burg'lash uchun mo'ljallangan. Uskuna gusenitsali yurish qismi va uning ustiga o'rnatilgan mashinist kabinasi hamda mast (strelka) joylashgan mashina bo'limidan iborat. "Rudgormash SBSH-250MNA-32" (СБШ-250МНА-32) – bu Rudgormash kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan aylanma-zarbali burg'ulash dastgohining ishlashi ilmiy va texnik tamoyillarga asoslangan bo'lib, uning afzallik va kamchiliklari quyidagilardan iborat.

Afzalliklari: Dastgoh 250–270 mm diametrliligi va 29 metrdan 55 metrgacha bo'lgan chuqurlikdagi texnologik portlatish quduqlarini burg'ulashga mo'ljallangan. Bu, konchilikda tog' jinsining parchalanish koeffitsientini optimallashtirish va bitta portlash zaryadidan maksimal effekt olish imkonini beradi. U Professor Protodyakonov shkalasi bo'yicha $f=6$ dan 20 gacha bo'lgan (o'rtacha va juda qattiq) tog' jinslarida samarali ishlaydi. Kuchli aylanma mexanizm (90–120 kVt doimiy yoki o'zgaruvchan tok dvigatellari) va yuqori uzatish tezligi (0–3 m/min) tog' jinsining buzilishida yuqori energiya zichligini ta'minlaydi. Asosiy mexanizmlar (aylantiruvchi, harakatlantiruvchi) uchun yuqori kuchlanishli (masalan, 6000 V) yoki past kuchlanishli (380 V) elektr dvigatellaridan foydalanish esa:

a) an'anaviy dizel tizimlarga nisbatan operatsion xarajatlarni pasaytiradi (elektr energiyasi arzonroq).

b) atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytiradi (ayniqsa, butunlay elektrlashtirilgan konlarda).

c) doimiy tok dvigatellari keng diapazonda tezlikni ratsional boshqarish va katta yuklanishga chidamlilik imkonini beradi. Dastgohning konstruksiyasi -40 dan +50 C gacha bo'lgan harorat sharoitlarida ishlashga moslashtirilgan. Bu uning global miqyosdagi konlarda (shu jumladan O'zbekistonda) qo'llanilishi uchun muhim ilmiy-texnik yechimdir. CAN/ModBUS kabi ilg'or avtomatlashtirish yechimlari tizimni boshqarishni optimallashtiradi. Shovqin va tebranish izolyatsiyasiga ega qulay kabina esa operatorning psixofiziologik charchog'ini kamaytiradi va shu orqali uzoq muddatli ish samaradorligini oshiradi.

Kamchiliklari: Dastgohning og'irligi 80–110 tonna bo'lishi, uning ishlab chiqarish va sotib olish narxini sezilarli darajada oshiradi. Massivlik tufayli

uni bir joydan ikkinchi joyga transportirovka qilish (mobilizatsiya) murakkab va qimmat hisoblanadi. Dastgohning elektr yuritma bilan ishlashi uning barqaror va yuqori kuchlanishli elektr ta'minoti tarmog'iga qattiq bog'liqligini anglatadi. Elektr ta'minotidagi uzilishlar butun burg'ulash jarayonini to'xtatadi. Bu, o'z navbatida, kon ishlarining umumiy uzluksizligi uchun xavf tug'diradi. Aylanma-zarbali burg'ulash texnologiyasi va kuchli kompressor (masalan, 44 m/min) ishlatilishi, garchi suvli changni bostirish tizimi mavjud bo'lsa ham, yuqori akustik shovqin darajasini va ma'lum miqdordagi aerogen chang hosil bo'lishini anglatadi, bu esa atrof-muhit va ishchi salomatligi uchun muammolar tug'diradi. Elektr, gidravlik va mexanik qismlarning kombinatsiyasi texnik xizmat ko'rsatish talabini oshiradi. Ayniqsa, doimiy tok dvigatellari va boshqaruv tizimlari maxsus malaka va ehtiyotkorlikni talab qiladi (bazi modellar AC yuritmalarga o'tgan). Maksimal harakat tezligi 0 dan 1,8km/soat gacha. Katta kon maydonlarida dastgohning skvajinadan skvajinaga o'tish vaqti ish vaqtining samaradorligini qisman pasaytirishi mumkin.

1-jadval

"Rudgormash SBSH-250MNA-32" (СБШ-250МНА-32) burg'ulash dastgohining texnik tavsifi.

Nomlanishi	O'lchov birligi	SBSH-250/270 KP "Rudgormash"
Burg'ulash usuli	-	Aylanma
Quduq diametri	mm	230;250;270;310
Burg'ulash chuqurligi	m	29,0
Burg'ulash chuqurligining aylanish chastotasi	ayl/min	0-120
Uzatish kuchi	t(kN)	40(392)
Kompressor unumdorligi	m ³ /min	50
Siqilgan havo uzatish (bosimi)	kg/sm ² (bar)	7.15
Yuritma (privod) turi	-	Elektr
Dizel dvigateli quvvati	kVt (l.s)	-
Ta'minlovchi kuchlanish	V	6 000 (3 fazali, 50 Gts)
Massasi	t	110,0
Tushirilgan machta bilan uzunligi	m	19,0
Kengligi	m	6.5
Tushirilgan machta bilan balandligi	m	7.1

Burg'ulash stanogining unumdorligini topish uchun bizga kerakli bo'lgan tog' jinsining siqilishga chidamlilik chegarasi σ_{sj} ; tog' jinsining siljishga bo'lgan chidamliligi σ_{sd} ; tog' jinsi zichligi γ ;

burgilash stavining aylanish chastotasi n_v ; o'qqa beriladigan optimal kuch P_0 kabi ko'rsatgichlarni aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

Tog' jinsi massivining Protodyakonov bo'yicha qattqlik koeffitsienti (f) va uning bir o'qli siqilishga bo'lgan mustahkamligi σ_{sj} o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Konchilik ishlarida, xususan, "Yoshlik I" kabi yirik konlarda burg'lash rejimi va portlatish ishlarini loyihalashda ushbu bog'liqlikdan keng foydalaniladi. Mixail Protodyakonov tomonidan taklif etilgan klassik empirik formulaga ko'ra, tog' jinlarining siqilishga chidamlilik chegarasi (MPa o'lchov birligida) qattqlik koeffitsienti orqali aniqlanadi.

Agar tog' jinsi massivining qattqligi 8-16 oralig'ida bo'lsa, siqilishga bo'lgan chidamlilik ko'rsatgichi quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_{sj} = f * 100 \text{ (kg/sm}^2\text{)}$$

$$\sigma_{sj} = 8 * 100 = 800 \text{ kg/sm}^2 = 80 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sj} = 10 * 100 = 1000 \text{ kg/sm}^2 = 100 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sj} = 12 * 100 = 1200 \text{ kg/sm}^2 = 120 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sj} = 14 * 100 = 1400 \text{ kg/sm}^2 = 140 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sj} = 16 * 100 = 1600 \text{ kg/sm}^2 = 160 \text{ MPa}$$

"Yoshlik I" konidagi tog' jinsi massivi uchun siqilishga bo'lgan chidamlilik chegarasi tog' jinsi massivi qattqligidan kelib chiqib, 80MPa dan 160MPa gacha oralig'ida o'zgarib boradi.

Konchilik mexanikasida tog' jinlarining siljishga bo'lgan qarshiligi odatda ularning siqilishdagi mustahkamligining bir qismini tashkil etadi. "Yoshlik I" koni sharoitidagi jinlar uchun bu nisbat quyidagicha aniqladi:

$$\sigma_{sd} \approx (0.1 \div 0.2) * \sigma_{sj}$$


$$\sigma_{sd} \approx 0.12 * 80 \approx 9.6 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sd} \approx 0.14 * 100 \approx 14 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sd} \approx 0.16 * 120 \approx 19.2 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sd} \approx 0.18 * 140 \approx 25.2 \text{ MPa}$$

$$\sigma_{sd} \approx 0.20 * 160 \approx 32 \text{ MPa}$$



I-rasm. "Yoshlik I" konining fizik-mexanik xossalari o'zaro bog'liqligining grafik tasviri.

Chiziqli bog'liqlik: Qattqlik koeffitsienti (f) oshishi bilan siqilishga mustahkamlik to'g'ri chiziqli o'sadi.

Notekis o'sish: Siljishga qarshilik σ_{sd} qiymatlari koeffitsient o'zgarishi (0.12 dan 0.20 gacha) hisobiga eksponentsialroq tus oladi. Bu kon sharoitida qattqiroq jinlarda siljish jarayonlari murakkablashishini anglatadi.

Amaliy ahamiyati: Burg'ulash rejimini tanlashda 80 MPa dan 160 MPa gacha bo'lgan diapazonda qurilmaning yemirilish tezligi va energiya sarfi aynan shu siljishga qarshilik koeffitsientlarining o'zgarishiga bog'liqlik tadqiqot natijasida aniqlandi.

Tadqiqot natijasida aniqlab olingan siqilishga va siljishga bo'lgan chidamlilik chegaralaridan hamda tog' jinsi massivining zichligidan foydalangan holda "Yoshlik I" koni sharoitida tog' jinsining burg'ulanish ko'rsatgichini aniqlab olamiz.

$$P_b = 0.07 * (\sigma_{sj} + \sigma_{sd}) + 0.7 * \gamma$$

O'rganilayotgan konimizda asosiy hajmni tashkil etuvchi jinlar qattqligini $f=12$ deb qabul qilib, σ_{sj} va σ_{sd} larning qiymatlarini 1-rasmdagi grafik natijalaridan qabul qilib olamiz.

$$\sigma_{sj} = 120 \text{ MPa;}$$

$$\sigma_{sd} = 19.2 \text{ MPa;}$$

$$\gamma = 2.6;$$

$$P_b = 0.07 * (120 + 19.2) + 0.7 * 2.6 = 11.6$$

Natija $P_b=11.6$ ga teng bo'lganligi uchun "Yoshlik I" tog' jinsi massivi III sinf qiyin burg'ulanuvchi tog' jinlari sinfiga kirishi aniq bo'ldi.

Tog' jinlarining burg'ulanish qiyinchiligi ko'rsatgichi hamda burg'ulash dastgohi stavining aynalish chastotasi qiymatlaridan foydalanilgan holda burg'ulash dastgohining burg'ulash tezligi topiladi.

Tog' jinsining burg'ulash qiyinchiligi ko'rsatgichiga bog'liq bo'lgan k koeffitsient ko'rsatgichi, burg'ulash qiyinchiligi ko'rsatgichi P_b , dolota diametric d_D (sm) dan foydalanib o'qqa beriladigan eng optimal kuchni topib olamiz:

$$P_0 \geq k * P_b * d_D$$

Bu formulani $f=12$ bo'lgan holatga moslab hisoblab olamiz

$$P_0 \geq k * P_b * d_D = 0.741 * 11.6 * 25 = 214.9 \text{ kN}$$

Burg'ulash tezligini topamiz:

$$V_b = (3.5 * P_0 * n_v) / (P_b * d_D^2)$$

$$V_b = (3.5 * 214.9 * 120) / (11.6 * 25^2) = 12.4 \text{ m/soat} = 0.207 \text{ m/minut}$$

n_v -burg'ilash dastgohi stavining aylanish-chastotasi (m/minut)


Yuqoridagi hisoblash ko'rinishi orqali $f=8-12$ gacha bo'lgan qiymatlari hisoblanib grafik tasvirga joylab olindi. Burg'ilash dastgohining burg'ilash tezligi tog' jinsining burg'ilanish qiyinchiligi ko'rsatgichiga mos holatda o'zgarib boradi. Natijalarni quyidagi grafik tasvir orqali ko'rishimiz mumkin.

“Yoshlik I” konidagi tog' jinslarining qattqlik koeffitsienti ($f=8-16$) va siqilishga bo'lgan mustahkamligi ($\sigma_{sj} = 80-160 \text{ MPa}$) hisobga olinganda, ushbu jinslar murakkab burg'ilanuvchi toifaga kiradi. SBSH-250MNA-32 dastgohi o'zining elektr yuritmasi va yuqori aylanish momenti (0-120 ayl/min) bilan ushbu qattiq jinslarda samarali ishlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar:

Bog'liqlik tahlili: Tog' jinsining qattqligi oshishi bilan burg'ilash tezligining pasayishi chiziqli bo'lmagan xarakterga ega. Xususan, $f=12$ bo'lgan holatda burg'ilash tezligi $v = 0.207 \text{ m/min}$ ekanligi aniqlandi.


Texnik yechimlar: Dastgohning elektrlashtirilgan tizimi operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan birga, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtiradi. Biroq, dastgohning yuqori massasi (110 tonna) va elektr tarmog'iga bog'liqligi mobilizatsiya jarayonlarida ma'lum cheklovlarni keltirib chiqaradi.

Optimizatsiya: O'qqa beriladigan optimal kuchni ($P_0 \geq 214.9 \text{ kN}$) to'g'ri belgilash burg'ilash asbobining (dolota) yemirilishini kamaytiradi va umumiy burg'ilash jarayonini barqarorlashtiradi.



2-rasm. “Yoshlik I” konida burg'ilash dastgohining burg'ilash tezligi tog' jinsi massivining burg'ilanish qiyinchiligiga bog'liqligining grafik tasviri.

“Yoshlik I” konining asosiy hajmni tashkil etuvchi tog' jinsi massivini burg'ilashda burg'ilash dastgohi “Rudgormash SBSH-250MNA-32”ning $f=12$ bo'lganda burg'ilash tezligining $v=0.207 \text{ m/minut}$ grafik tasvirdagi holati.



3-rasm. “Yoshlik I” konida tog' jinsi massivining qattqlik ko'rsatgicgi $f=12$ bo'lgan holatda burg'ilash dastgohining burg'ilash tezligi qiymatining grafik tasviri.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, “Yoshlik I” koni sharoitida SBSH-250MNA-32 burg'ilash dastgohlaridan foydalanish texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan. Protodyakonov shkalasi bo'yicha $f=12$ qattqlikka ega jinslar uchun burg'ilash jarayonini 0.207 m/min tezlikda olib borish optimal hisoblanadi. Tog' jinsi massivining fizik-mexanik xossalari burg'ilash dastgohining unumdorligi va texnik holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Tog' jinsining qattqligi (Protodyakonov shkalasi bo'yicha) burg'ilash jarayonining asosiy cheklovchi omilidir. Qattqlik koeffitsienti ortishi bilan jinsning siqilishga va siljishga bo'lgan qarshiligi eksponentsial ravishda o'sib boradi, bu esa burg'ilash tezligining pasayishiga va asbob (dolota)ning tezroq yemirilishiga olib keladi. Jins massivi qancha mustahkam bo'lsa, burg'ilash asbobini jinsga kirib borishini ta'minlash uchun shunchalik yuqori o'qqa beriladigan kuch va aylanish momenti talab etiladi. Noto'g'ri tanlangan kuch (kam bo'lsa – asbob "sirpanadi", ko'p bo'lsa – asbob sinadi) dastgohning mexanik qismlariga (reduktor va uzatmalar qutisi) ortiqcha yuklama beradi. Tog' jinsining zichligi burg'ilash jarayonida hosil bo'lgan maydalangan jins (shlam) ni quduqdan chiqarib tashlash samaradorligiga ta'sir qiladi. Yuqori zichlikdagi jinslarda shlam og'irroq bo'ladi, bu esa kompressordan yuqori bosim va havo oqimi unumdorligini talab qiladi. Tog' jinsining fizik-mexanik xossalari burg'ilash rejimini

tanlashda (aylanish chastotasi va uzatish kuchi) boshqaruvchi omil hisoblanadi. “Yoshlik I” koni kabi qoyasimon jinslar ustunlik qiladigan hududlarda burg‘ilash dastgohlarining ishonchli ishlashi va yuqori unumdorlikka erishish uchun, jinsning fizik-mexanik xossalarini monitoring qilish (laboratoriya tahlillari), olingan ma’lumotlar asosida burg‘ilash rejimini avtomatik moslashtirish,

asboblarni (dolota) tog‘ jinsining turi va qattiqligiga qarab tanlab ishlatish zarur. Tadqiqot natijasida taklif etilgan yondashuv yuqorida keltirilgan omillarni kompleks hisobga olish burg‘ilash dastgohining resursini 15-20% ga uzaytirish, hamda 1 metr burg‘ilangan quduq uchun ketadigan elektr energiyasi va sarf materiallari xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Томаков, П. И., & Наумов, И. К. (1992). Ochiq kon ishlari texnologiyasi, mexanizatsiyasi va kon ishlarini tashkil qilish (M. J. Normatova, Tarj.). Moskva konchilik instituti nashriyoti.
- [2] Shadiyev, M. I., & Satibaldiyev, B. M. (2014). Konchilik va burg‘ilash uskunalari. Faylasuflar nashriyoti.
- [3] Хасанов, А. А., & Хожикулов, Х. Т. (2024). Горнотехнические условия эксплуатации месторождений «Ёшлик I» и «Кальмакыр» и выбор способа отработки. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 2(2), 31–38.
- [4] Хасанов, А. А. (2022). Состояние добычи и переработки вольфрамowych руд и концентратов в мировой практике. Journal of Advances in Engineering Technology, (1), 68–71.
- [5] Khasanov, A., Khasanov, U., Toshtemirov, U., Abdurakhmanov, D., & Melnikova, T. (2024). Studying the condition of tungsten-containing man-made waste in the territory of Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 538, 03023.
- [6] Mutalova, M., Khasanov, A., Toshtemirov, U., Melnikova, T., & Yuldashava, N. (2024). Modern technology for enrichment of tailings from an enrichment plant processing tungsten ores. E3S Web of Conferences, 538, 01002.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Xasanov, A. A., Eshankulova, K. A., Ergashev, R. A., & Norbekov, I. G. (2026). “YOSHLIK I” KONIDA QO‘LLANILAYOTGAN SBSH-250 MNA-32 BURG‘ILASH DASTGOHLARINING TEXNOLOGIK SAMARADORLIGI VA TOG‘ JINSI MASSIVINING FIZIK-MEXANIK TA‘SIRINI TADQIQ ETISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.6>

UO‘K: 621.43.038.5:622

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.9

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KON MASHINALARINING ICHKI YONUV DVIKATELLARI UCHUN SO‘RILUVCHI HAVONI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH



**Kayumov Umidjon
Erkinovich**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti,
“Konchilik elektr mexanikasi”
kafedrası, katta o‘qituvchisi,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: kayumov_umidjon@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-2147-8973
Science ID: MNV-0426-0004



**Xatamova Dilshoda
Normurodovna**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti,
“Konchilik ishi” kafedrası t.f.d.
professori, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: dilyon_hat@bk.ru
ORCID ID: 0009-0002-8336-9884
Science ID: DNV-0925-0004



**Pardayeva Shahlo
Saxibjonovna**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, “Hayot
faoliyati xavfsizligi” kafedrası v.b.
dotsenti, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
pardayevashahlo33@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-4847-6901
Science ID: FNV-0426-0003

Annotatsiya. Ochiq kon ishlari sharoitida ichki yonuv dvigatellari yuqori konsentratsiyadagi abraziv chang muhitida ishlaydi, bu esa silindr-porshen guruhining jadal yedirilishiga, dvigatel quvvatining pasayishiga, yoqilg‘i sarfining ortishiga hamda dvigatel resursining qisqarishiga olib keladi. Mazkur maqolada so‘rish havosi tarkibidagi chang zarrachalarining dispers tarkibi va konsentratsiyasining dvigatelning asosiy birikmalari ya‘ni silindr – porshen – halqa holatiga, moy plyonkasi parametrlariga hamda kuch qurilmasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga ta‘sir komplekslari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘lchami 5–20 mkm bo‘lgan zarrachalar eng katta xavf tug‘dirib, tezlashgan abraziv yedirilish hamda yonish kamerasining germetikligi yomonlashishiga sabab bo‘lishi aniqlangan. Nazariy va ekspluatatsion ma‘lumotlar asosida kirish havosini tozalash samaradorligini oshirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ishda ko‘p bosqichli kombinatsiyalashgan havo filtri konstruksiyasi ishlab chiqilib taklif etilgan bo‘lib, u multitsiklonli dastlabki tozalash, ikki bosqichli elektrostatik filtr hamda standart filtrlovchi element orqali yakuniy tozalash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Taklif etilgan tizim 0,1–20 mkm o‘lchamdagi zarrachalarni past aerodinamik qarshilik sharoitida ushlab qolishni ta‘minlab, umumiy tozalash samaradorligini 95% gacha oshiradi.

Kalit so‘zlar: ichki yonuv dvigateli, havo filtri, havoning ifloslanishi, yedirilish, silindr, porshen, porshen halqalari, chang zarrachasi, yedirilish jadalligi, dvigatel resursi, dvigatel quvvati, filtratsiya, abraziv zarrachalar, ko‘p bosqichli tozalash, multitsiklon, elektrostatik filtrlash.

Received: 15.05.2026

Accepted: 03.06.2026

Published: 29.06.2026

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОЧИСТКИ ВПУСКНОГО ВОЗДУХА ДВИГАТЕЛЕЙ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ ГОРНЫХ МАШИН

**Каюмов Умиджон
Эркинович**

Навоийский государственный
университет горного дела и
технологий, старший
преподаватель кафедры «Горная
электромеханика», Навои,
Узбекистан

**Хатамова Дилшода
Нормуродовна**

Навоийский государственный
университет горного дела и
технологий, кафедра «Горное
дело», доктор технических наук
(DSc), профессор, Навои,
Узбекистан

**Пардаева Шахло
Сахибжоновна**

Навоийский государственный
университет горного дела и
технологий, и.о. доцента
кафедры «Безопасность
жизнедеятельности», Навои,
Узбекистан

Аннотация. В условиях открытых горных работ двигателя внутреннего сгорания эксплуатируются в среде с повышенной концентрацией абразивной пыли, что приводит к интенсивному износу цилиндра-поршневой группы, снижению мощности, увеличению расхода топлива и сокращению ресурса двигателя. В статье выполнен комплексный анализ влияния дисперсного состава и концентрации пылевых частиц во впускном воздухе на трибологическое состояние основных узлов двигателя, параметры масляной плёнки и эксплуатационные показатели силовой установки. Показано, что наибольшую опасность представляют частицы размером 5–20 мкм, вызывающие ускоренный абразивный износ и ухудшение герметичности камеры сгорания. На основе теоретических и эксплуатационных данных обоснована необходимость повышения эффективности очистки впускного воздуха.

Разработана и предложена конструкция многоступенчатого комбинированного воздушного фильтра, включающего мультициклонную предварительную очистку и двухступенчатую электростатическую сепарацию с последующей доочисткой стандартным фильтрующим элементом. Предлагаемая схема обеспечивает улавливание частиц в широком диапазоне размеров (0,1–20 мкм) при низком аэродинамическом сопротивлении и повышает общую эффективность очистки до 95%. Применение разработанной системы позволяет снизить интенсивность износа цилиндра-поршневой группы, увеличить ресурс базового фильтра и двигателя в целом, уменьшить удельный расход топлива и повысить надёжность эксплуатации горных машин в условиях высокой запылённости.

Ключевые слова: Двигатель внутреннего сгорания, воздушный фильтр, загрязнение воздуха, износ, цилиндр, поршень, кольца, частица пыли, интенсивность износа, ресурс ДВС, мощность ДВС, фильтрация, абразивные частицы, многоступенчатая очистка, мультициклон, электростатическая фильтрация, ресурс двигателя.

ENHANCEMENT OF INTAKE AIR FILTRATION EFFICIENCY FOR INTERNAL COMBUSTION ENGINES OF MINING EQUIPMENT

**Kayumov Umidjon
Erkinovich**

Navoi State University of Mining
and Technologies, Senior Lecturer
of the Department of Mining
Electromechanics, Navoi,
Uzbekistan

**Khatamova Dilshoda
Normurodovna**

Navoi State University of Mining
and Technologies, Department of
Mining Engineering, Doctor of
Technical Sciences (DSc),
Professor, Navoi, Uzbekistan

**Pardayeva Shahlo
Saxibjonovna**

Navoi State University of Mining
and Technologies, Acting Associate
Professor of the Department of Life
Safety, Navoi, Uzbekistan

Abstract. Under open-pit mining conditions, internal combustion engines operate in environments with a high concentration of abrasive dust, which leads to intensive wear of the cylinder–piston group, power reduction, increased fuel consumption, and a decrease in engine service life. This paper presents a comprehensive analysis of the influence of the particle size distribution and concentration of dust in the intake air on the tribological condition of key engine components, the parameters of the oil film, and the operational performance of the power unit. It is shown that particles with sizes of 5–20 μm pose the greatest risk, causing accelerated abrasive wear and deterioration of combustion chamber sealing. Based on theoretical considerations and operational data, the necessity of improving the efficiency of intake air purification is substantiated.

A design of a multi-stage combined air filtration system is developed and proposed, including multicyclone pre-cleaning, two-stage electrostatic separation, and final purification using a conventional filter element. The proposed system ensures effective capture of particles within a wide size range (0.1–20 μm) under low aerodynamic resistance and increases the overall filtration efficiency up to 95%. The implementation of the developed system makes it possible to reduce the wear rate of the cylinder–piston group, extend the service life of both the base filter and the engine as a whole, decrease specific fuel consumption, and improve the operational reliability of mining machines under high-dust conditions.

Keywords: *internal combustion engine, air filter, air pollution, wear, cylinder, piston, piston rings, dust particles, wear rate, engine service life, engine power, filtration, abrasive particles, multi-stage filtration, multicyclone, electrostatic filtration, engine durability.*

Kirish. Hozirgi vaqtda qulay geologik sharoitlarda va yuqori gorizontlarda joylashgan ko'plab foydali qazilma konlari zaxiralarning kamayib borishi sababli, yangi zaxiralarni qazib olish jarayonlarini jadallashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Biroq foydali qazilmalar zaxiralarning aksariyati katta chuqurliklarda va murakkab geologik sharoitlarda joylashgan bo'lib, bu ularni qazib olish va tashish jarayonlarini ancha murakkablashtiradi [1].

Foydali qazilma konlarini samarali o'zlashtirish va belgilangan ishlab chiqarish rejalarini bajarishda ichki yonuv dvigatellari bilan jihozlangan mashina va mexanizmlarning roli nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, ularning ekspluatatsion ishonchligini ta'minlash hamda resurslarni tejash dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Ichki yonuv dvigatellarini yuqori changlangan havo muhitida ekspluatatsiya qilish ularning texnik holati va xizmat muddatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, havoda qattiq zarrachalarning, ayniqsa o'lchami 10 mkm dan kichik bo'lgan mayda dispers fraksiyalarning mavjudligi abraziv va korroziyaviy-mexanik yedirilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi.


Harakatlanish jarayonida avtotransport vositalari atrof-muhit havosini o'ziga tortadi, bunda havo tarkibida ma'lum miqdorda chang mavjud bo'ladi. Quruq ob-havo sharoitida uning konsentratsiyasi taxminan 60–70 mg/m³ ga yetadi, chang tarkibiga esa kalsiy, temir, kremniy oksidlari va boshqa komponentlar kiradi [2].

Chang zarrachalari tarkibidagi kremniy oksidi (kvarts)ning sirt qattiqligi yuqori sifatli po'latlarning qattiqligidan qariyb 2 baravar yuqori. O'rta quvvatli dvigatel bir soat davomida taxminan 3000 m³ havo so'rib oladi. Havo tozalash tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda, bir ish smenasi davomida

dvigatel silindrlariga bir necha kilogrammgacha chang kirib borishi mumkin. Qattiq zarrachalar silindrlar, porshenlar va boshqa ishqalanadigan detallarni intensiv yedirilishiga sabab bo'lib, natijada dvigatelning xizmat muddati sezilarli darajada qisqaradi.

Materiallar va usullar. Burg'ilash-portlatish, ekskavatsiya va transport jarayonlarida hosil bo'ladigan mineral chang yuqori abraziv xususiyatga ega. Chang zarrachalarining o'lchami 1 dan 100 mkm gacha o'zgaradi. Ayniqsa, o'lchami 10 mkm dan kichik bo'lgan mayda dispers fraksiyalar xavfli hisoblanadi, chunki ular havo tizimlarining filtrlovchi elementlaridan o'tib ketishi va silindr-porshen guruhiga yemiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-rasmda ichki yonuv dvigateling kirish tizimining funksional tuzilmasi va uning elementlari majmuasi keltirilgan bo'lib, unda dvigatelga havo bilan kirib kelgan chang zarrachalarining asosiy birikmalari bilan o'zaro ta'siri ko'rsatilgan.



1-rasm. Ichki yonuv dvigateling kirish tizimining funksional tuzilmasi.

1 – havo sovitgichi (interkuler), 2 – turbina, 3 – kompressor, 4 – havo filtri, 5 – EGR tizimi, 6 – dizel DPF filtri, 7 – shovqin so'ndirgichi, 8 – ichki yonuv dvigateli.

Yuqori changlangan sharoitlarda ichki yonuv dvigatellari o'rtacha 15–18% gacha quvvat

yo'qotadi, bu esa silindr-porshen guruhi detal-
larining abraziv yedirilishi bilan izohlanadi.
Ifloslantiruvchi zarrachalar silindrga kirib, qattiq
abraziv sifatida ta'sir ko'rsatadi va silindr devorlari,
porshen halqalari, porshen vtulkalari hamda asosiy
podshipniklarning yedirilishini tezlashtiradi.
Natijada gazlarning sizib chiqishi ortadi, siqilish
darajasi pasayadi va mexanik yo'qotishlar ulushi
oshadi [3,4].

Bundan tashqari, motor moyining abraziv
zarrachalar bilan ifloslanishi natijasida uning
xossalari yomonlashadi, ishqalanish kuchlari ortadi,
bu esa dvigatel quvvatining pasayishiga olib keladi.

Changli muhitda havo qabul qilish tizimi tez
ifloslanadi, filtrlar o'zining o'tkazuvchanlik
qobiliyatini yo'qotadi. Bu esa kirish qismida
qarshilikning ortishiga olib keladi.



2-rasm. Karyer avtosamosvalining havo filtrining
ifloslanish darajasi.

A) – ekspluatatsiyadan oldin; B) – 50 moto-soat ishlagandan
keyin.

Yuqorida keltirilgan rasmda ko'rinib
turibdiki, 50 moto-soat ekspluatatsiya davomida
havo filtri to'liq ifloslangan, holbuki uning xizmat
muddati 250 moto-soatni tashkil etadi, ya'ni filtr
resursi 5 baravarga qisqargan.

Chang zarrachalari silindr – porshen guruhiga
kirib borgach, ularning tarkibidagi qattiq
komponentlar tufayli motor moyi bilan
moylanadigan uzal yuzalarida abraziv yedirilish
jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Mazkur uzellarning to'g'ri va uzoq muddatli
ishlashi moylash muhitining mavjudligi bilan
ta'minlanadi. Moylash tizimi ajratuvchi plyonka
hosil qilib, ishqalanishdagi mexanik yo'qotishlarni
kamaytiradi hamda ushbu elementlarning yedirilish
intensivligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Qattiq mineral zarrachalar so'rilayotgan havo
bilan birga silindrga kirib, gilza, porshen va porshen

halqalari ishchi yuzalari orasidagi tirqishlarga
tushadi, kontakt zonasiga singib kiradi, ishqalanish
sharoitlarini buzadi va bir – biri bilan
ta'sirlashayotgan elementlarning abraziv yedirilishini
sezilarli darajada tezlashtiradi.

O'lchamlari moy plyonkasining minimal
qalinligi h_{min} dan kichik bo'lgan mayda dispers
chang zarrachalari porshenning qaytma-ilgarilanma
harakati jarayonida porshen halqalari bilan silindr
orasidagi tirqishlarga kirib boradi.

“Porshen – porshen halqasi – silindr” birikma
ishchi yuzalari bilan kontaktga kirishganda, bunday
abraziv muhit bir – biri bilan ta'sirlashayotgan
elementlar materiallari tuzilmasining jadal
yedirilishiga olib keladi.

O'zgaruvchan aylanish tezligi va
yuklamalarda ishlovchi ichki yonuv dvigatelida
moy plyonkasining minimal qalinligi h_{min} vaqt
bo'yicha o'zgaruvchi kattalik hisoblanadi. U
moylash materialining qovushqoqligi η bilan
belgilanadi, bu esa ishchi muhit haroratiga bog'liq
bo'ladi, juftlangan yuzalarning nisbiy harakat
tezligi v_w ga bog'liq hamda dvigatel elementlariga
ta'sir etuvchi yuklama N ga teskari proporsionaldir.

$$h_{min} = C \cdot \frac{\eta \cdot v_w}{N} \quad (2)$$


bu yerda:

C – bir – biri bilan ta'sirlashayotgan
elementlarning geometrik o'lchamlari va
parametrlarini hisobga oluvchi koeffitsiyent;

η – moylash materialining dinamik
qovushqoqligi, Pa·s;

v_w – yuzalarning nisbiy sirpanish tezligi, m/s;

N – kontakt zonasidagi normal yuklama, N.



3-rasm. Porshen – porshen halqalari – silindr
juftligida moy plyonkasining hosil bo'lishi.


Ushbu nisbat dvigatelning turli ish rejimlarida
moy plyonkasining qalinligi o'zgarish dinamikasini

miqdoriy baholash hamda chegaraviy moylanish sharoitlarining yuzaga kelishini oldindan aytish imkonini beradi.

3-rasmda porshen–porshen halqalari–silindr juftligida moy plyonkasining hosil bo‘lish jarayoni keltirilgan.

Ichki yonuv dvigatellarining standart ishqalanish elementlarida moy plyonkasining qalinligi keng oraliqlarda o‘zgarib turadi. Bu holat dvigatel yuklamasi, aylanish tezligining o‘zgaruvchanligi hamda moy haroratining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Odatdagi ish sharoitlarida moy plyonkasining minimal qalinligi h_{min} qiymatlari odatda 0,5 dan 50 mkm gacha bo‘lgan oraliqda kuzatiladi.

Abrziv yedirilish quyidagi holatlarda yuzaga keladi: ta’sir etuvchi yuklama N ortishi natijasida — ya’ni mexanik yuklamaning oshishi, haroratning ko‘tarilishi yoki moyning yopishqoqligi kamayishi tufayli — o‘zaro ta’sirlashuvchi sirtlar orasidagi masofa minimal qiymatgacha yaqinlashadi va $d_p \geq h_{min}$ sharti bajariladi (4-rasm). Chang zarrachalari, odatda, notekis shaklga ega bo‘lib, o‘tkir ko‘p qirrali qirralar bilan tavsiflanadi. Bunday zarrachalar ishqalanayotgan sirtlarda tiralishlar hosil qiladi, yoriqsimon izlar paydo qiladi hamda metallning mikroskopik zarrachalarini ajratib chiqaradi. Ushbu metall zarrachalari keyinchalik dvigatel birikmalarini tashkil etuvchi elementlar materialining tuzilmasiga singib ketadi.



4-rasm. “Porshen – porshen halqalari – silindr” birikmalarining chang mineral zarrachalari bilan o‘zaro ta’sir zonasining sxematik modeli.


1 – tirsakli val, 2 – karter, 3 – shatun, 4 – sovituvchi suyuqlik, 5 – silindrlar bloki, 6 – porshen, 7 – yonish kamerasi, 8 – silindrlar bloki kallagi, 9 – kirish klapani, 10 – chiqish klapani, 11 – kulachok, 12 – klapan prujinalari, 13 – taqsimlash vali, 14 – forsunka.

Moy plyonkasining qalinligi tebranishlari natijasida, uning ichida joylashgan chang zarrachalari parchalanib, yanada mayda fragmentlarga bo‘linishi mumkin. Hosil bo‘lgan mayda zarrachalar sirtlar orasidagi tirqishlarga, ayniqsa moy plyonkasi qalinligi minimal bo‘lgan zonalariga kirib boradi. Bu esa abraziv yedirilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

“Porshen – porshen halqalari – silindr” uzelinig changning mineral zarrachalari bilan o‘zaro ta’sir zonasining sxematik modeli 4-rasmda keltirilgan. Dvigatel birikmalarida moy plyonkasining minimal qalinligi yuzaga kelishi sababli, o‘lchami 1 mkm dan katta bo‘lgan barcha chang zarrachalari elementlarning tezlashgan abraziv yedirilishiga olib keladi.

Natijalar va muhokama. Silindr gilzasi va porshen halqalarining ishchi yuzalarining yedirilishi yonish kamerasining germetikligini buzilishiga olib keladi, bu esa siqilayotgan ishchi muhitning sizib chiqishiga sabab bo‘ladi. Natijada siqish takti oxiridagi bosim pasayadi, yoqilg‘i-havo aralashmasining alanganish sharoitlari yomonlashadi hamda dvigatelning samarali quvvati kamayadi.

Shu bilan birga, ishchi siklning termodinamik samaradorligi pasayishi hisobiga yoqilg‘ining solishtirma sarfi ortishi kuzatiladi.



5-rasm. Ichki yonuv dvigateli silindri ishchi yuzalarining xos yedirilish turlari.

A) – silindr ishchi yuzasining abraziv yedirilishi; B) – chang zarrachalarining uzoq muddat ta’siri natijasida yuzaning mikrorelyefi.

“Porshen – porshen halqalari – silindr” tizimida radial va o‘q bo‘ylab tirqishlarning ortishi ishlatilgan gazlarning dvigatel karteriga o‘tishini kuchaytiradi. Ushbu jarayon moyning harorati oshishiga, uning termo-oksidlanish asosida tezroq eskirishiga hamda moylash xossalari pasayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, gaz oqimi moy bug‘lari va tomchilarining olib chiqib ketilishiga sabab bo‘ladi, bu esa moy sarfining ortishiga va chiqarish taktining

ifloslanishiga olib keladi.


5-rasmda silindr yuzasining xos yeyilish turlari keltirilgan.

Hozirgi kunda ichki yonuv dvigatellarida havo filtrlari qo'llanilishi amaliyoti shuni ko'rsatadiki, filtrlash tizimlari o'lchami 10 mkm gacha bo'lgan zarrachalarni samarali ushlab qoladi, biroq undan mayda zarrachalar filtr orqali o'tib ketadi.

Bundan tashqari, har bir tozalash siklidan so'ng filtrning mayda dispers zarrachalarni ushlab qolish qobiliyati pasayib boradi.

So'rilayotgan havodagi chang zarrachalari o'lchami bilan silindrlar, porshenlar va porshen halqalarining yedirilish darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Quyida 6-rasmda chang zarrachalari o'lchamiga bog'liq holda silindrlar, porshenlar va porshen halqalarining nisbiy yedirilishi ko'rsatilgan [7,8].



6-rasm. Chang zarrachalari o'lchamiga bog'liq holda nisbiy yeyilishning o'zgarishi.

Yuqorida keltirilgan grafikda yirik zarrachalar bilan bog'liq past darajadagi yedirilish ularning abraziv xossalari pastligi bilan emas, balki filtr tomonidan samarali ushlab qolinishi bilan izohlanadi.

Porshen halqalari chegaraviy ishqalanish sharoitida ishlaydi va nihoyatda sezgir elementlar hisoblanadi, shu sababli ularning yedirilish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi.

Shuningdek, silindrning kontakt yuzasi katta bo'lganligi sababli bu yerda abraziv yedirilish ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Porshenning nisbatan kam yedirilishi esa uning silindr bilan to'liq emas, balki davriy ta'sirlanishi bilan izohlanadi. Bu holat moy plyonkasining qayta tiklanishiga va zarrachalarning


moy bilan birga olib chiqib ketilishiga imkon beradi [9].

O'lchami 1 mkm dan katta bo'lgan chang zarrachalari abraziv yedirilishni keltirib chiqaradi, biroq eng katta ta'sir 5–12 mkm oraliqdagi zarrachalarda kuzatiladi.

Shunday qilib, ichki yonuv dvigatellarining ishlash samaradorligi va ishonchliligini oshirish havo filtrlash tizimini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan havoni samarali tozalashni ta'minlaydigan yangi, innovatsion havo filtrlari konstruksiyalarini yaratish zarurati yuzaga keladi.

Havo filtrining samaradorligini va xizmat muddatini oshirish, shuningdek ichki yonuv dvigateliga chang zarrachalarining kirib kelishini kamaytirish maqsadida ko'p bosqichli havo filtrlash qurilmasini qo'llash taklif etiladi. Ushbu qurilma multitsiklonli va elektrostatik filtrlarda dastlabki tozalash prinsipi asosida ishlaydi.

7-rasmda ichki yonuv dvigatellarida qo'llash uchun mo'ljallangan ko'p bosqichli kombinatsiyalashgan havo filtri konstruksiyasi keltirilgan.



7-rasm. Ko'p bosqichli kombinatsiyalashgan havo filtri.

1 – multitsiklonli havo filtri, 2 – setka, 3 – siklon, 4 – uyurma hosil qiluvchi element, 5 – quvur, 6 – so'ruvchi havo yo'li, 7 – chang yig'gich, 8 – qopqoq, 9 – birlamchi elektrostatik filtr korpusi, 10 – ignasimon sterjen elektrod, 11 – silindrsimon metall quvur, 12 – yakuniy elektrostatik filtr korpusi, 13 – metall plastina ko'rinishidagi elektrod, 14 – ignasimon sterjen elektrod, 15 – qopqoq, 16 – sterjen, 17 – havo yo'li, 18 – havo filtri, 19 – filtrlavchi element, 20 – qopqoq, 21 – sterjen, 22 – dvigatelga havo yetkazib beruvchi quvur.

Ko'p bosqichli kombinatsiyalashgan havo filtri quyidagicha ishlaydi: dvigatelga so'rilayotgan

havo avval multitsiklonli havo filtri (1) ning setkalari (2) orqali o'tib, siklonlarga (3) kiradi. Bu yerda havo uyurma hosil qiluvchi qurilma (4) yordamida aylantiriladi va havo oqimidan yirik chang zarrachalari ajratilib, chang yig'gichda (7) to'planadi.

Tozalangan havo siklonning chiqish trubkasi (5) orqali so'ruvchi havo yo'li (6) orqali dvigatelga yo'naltiriladi va birlamchi elektrostatik filtrga (9) kiradi. Ushbu filtrda havodagi mayda chang zarrachalari dastlabki elektr zaryad oladi, ularning bir qismi silindrsimon quvur (11) devorlarida ushlab qolinadi, qolgan asosiy qismi esa yakuniy elektrostatik filtrga (12) yo'naltiriladi.

Elektrostatik filtr quyidagicha ishlaydi: filtr (12) ichida kuchlanish beriladigan elektrodlar (13, 14) joylashgan. Ifloslangan havo ushbu zonadan o'tganda, chang zarrachalari elektr zaryadiga ega bo'ladi.

Keyinchalik havo oqimi cho'ktiruvchi elektrodlar (14) orasidagi hududga kiradi, bunda elektrodning biri musbat, ikkinchisi esa manfiy zaryadlangan bo'ladi. Elektr maydoni ta'sirida zaryadlangan chang zarrachalari havo oqimidan og'ib, qarama-qarshi zaryadga ega elektrodlanga tortiladi.

Natijada zarrachalar elektrodlar yuzasiga cho'kadi va elektrostatik kuchlar ta'sirida chang qatlami ko'rinishida ushlab turiladi.

Mayda chang zarrachalaridan tozalangan havo oqimi havo yo'li (17) orqali asosiy havo filtri (18) ga yo'naltiriladi va undan keyin ichki yonuv dvigatelining silindriga uzatiladi.

Xulosa: Multitsiklon va elektrostatik filtr asosida ishlovchi kombinatsiyalashgan havo filtri ichki yonuv dvigatellari uchun, ayniqsa ifloslangan

muhitlarda ishlashda, eng samarali havo tozalash sxemalaridan biri hisoblanadi. Uning afzalligi inertsia va elektrostatik tozalash usullarining uyg'unlashuvi bilan izohlanadi.

Multitsiklon 8–20 mkm o'lchamdagi yirik va o'rta zarrachalarni samarali ajratib olsa, elektrostatik filtr odatiy filtrlarda ushlanmaydigan 0,1–2 mkm oraliqdagi mayda dispers zarrachalarni ushlab qoladi. Natijada havo filtrlash samaradorligini 95% gacha oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Multitsiklonlarda tozalash jarayoni filtrlovchi material ishtirokisiz, markazdan qochma kuchlar hisobiga amalga oshiriladi, elektrostatik filtrda esa qarshilik hosil qiluvchi zich g'ovakli tuzilma mavjud emas. Shu sababli bosim yo'qotishlari va gidravlik qarshiliklar juda kichik bo'ladi.

Bunday filtrlardan asosiy havo filtridan oldin foydalanilganda yuzaga keladigan gidravlik qarshiliklar filtr o'lchamlarini va havo o'tkazuvchi kanallarning kesimini kattalashtirish orqali kamaytiriladi.

Ishlab chiqilgan ko'p bosqichli kombinatsiyalashgan havo filtridan foydalanish multitsiklon yordamida changning asosiy qismini ajratib tashlash hisobiga asosiy havo filtrining xizmat muddatini oshirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ichki yonuv dvigatellarini kuchli changlangan sharoitlarda ekspluatatsiya qilishda dolzarb hisoblanadi hamda silindr–porshen guruhining yedirilishini kamaytiradi hamda ularning xizmat muddatini uzaytiradi.

Shuningdek, havoning samarali tozalanishi yoqilg'ining to'liq yonishini ta'minlaydi, bu esa yoqilg'ining solishtirma sarfini kamaytirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


- [1] Teng, G., Shi, G., & Zhu, J. (2022). Influence of pleated filter geometry on pressure drop during dust loading: Experimental and modeling study. *Scientific Reports*, 12, 20331. <https://doi.org/10.1038/s41598-022-20331>
- [2] Allam, S., & Mimi Elsaid, A. (2020). Factors affecting fuel economy in vehicles and optimization criteria for pleated air filter design to improve internal combustion diesel engine performance: Experimental and CFD approaches. *Separation and Purification Technology*, 241, 116680. <https://doi.org/10.1016/j.seppur.2020.116680>
- [3] Dziubak, T. (2024). Experimental testing of filter materials for two-stage air intake systems of internal combustion engines. *Energies*, 17(11), 2462. <https://doi.org/10.3390/en17112462>

Abstract. This paper presents the results of a comprehensive study of lead–bismuth sludges generated during sulfuric acid production in copper metallurgy. The physicochemical properties of the sludge, including moisture content, particle size distribution, density, and acidity, were investigated. The results confirmed the presence of significant amounts of lead, bismuth, copper, zinc, and precious metals, demonstrating the industrial value of the sludge as a secondary raw material. An efficient hydrometallurgical processing technology was developed, incorporating water washing, selective salt leaching, carbonation, and thermal treatment. Experimental studies showed that, under optimal operating conditions, lead was selectively transferred into solution while precious metals remained in the solid residue. High-purity metallic lead was subsequently obtained from the produced lead carbonate. The proposed technology promotes comprehensive utilization of metallurgical waste, reduces environmental impact, and improves resource efficiency.

Keywords: lead–bismuth sludge, selective leaching, carbonation, lead, precious metals, hydrometallurgy, processing.

Введение. Переработка и утилизация отходов металлургического производства рассматриваются как один из ключевых факторов обеспечения экологической безопасности и рационального природопользования в условиях индустриального развития.

Металлургическая отрасль относится к числу наиболее ресурсоемких и экологически нагруженных секторов промышленности, формирующих значительные объемы твердых и дисперсных отходов [7]. В их состав входят шлаки, пылевые фракции, шламы и другие

техногенные образования, содержащие широкий спектр токсичных и потенциально опасных компонентов, способных оказывать негативное воздействие на почвенные, водные и атмосферные экосистемы, а также на здоровье населения [2, 5].

В связи с этим формирование эффективной системы обращения с отходами металлургического производства приобретает приоритетное значение. Научно обоснованные подходы к переработке и утилизации данных отходов направлены не только на снижение уровня экологической нагрузки, но и на вовлечение вторичных ресурсов в хозяйственный оборот. Технологические процессы переработки предусматривают физико-химическую обработку отходов с целью получения ценных компонентов и создания новых материалов, что способствует сокращению объемов захоронения и уменьшению потребности в первичном сырье [10]. Таким образом, интеграция методов утилизации и вторичного использования отходов является важным направлением повышения ресурсной эффективности и экологической устойчивости металлургического производства.

Материалы и методы. В металлургическом производстве меди значительное количество газообразных продуктов направляется на последующую переработку с целью получения серной кислоты. Образующийся технологический газ первоначально поступает в промывное отделение, где осуществляется его многоступенчатая очистка от твердых и растворимых примесей. Очищенный газ далее используется в контактном процессе синтеза серной кислоты. При этом улавливаемые примеси переходят в состав шламов, которые формируются в результате газоочистки [1].

Полученные шламы направляются на участок нейтрализации кислых сточных вод, после чего аккумулируются в специальных накопителях. В дальнейшем данные отходы транспортируются и складываются на территории металлургического предприятия. Длительная эксплуатация сернокислотного цеха привела к накоплению значительных объемов шламовых отходов, характеризующихся

повышенным содержанием тяжелых металлов и ценных компонентов, таких как свинец, висмут, медь и благородные металлы [6, 9].

Химический состав исследуемых шламов определялся с использованием стандартных методов аналитической химии, включая атомно-абсорбционный и гравиметрический анализ. Средние значения содержания основных компонентов представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Среднее содержание шлама производства серной кислоты

Компонент	Содержание, %								г/т	
	Pb	Cu	Zn	S _{общ}	S _{SO4}	MgO	CaO	Bi	Au	Ag
СВШ	45,0	2,6	0,4	11,0	8,1	0,1	1,23	0,4	5-10	250-400

Результаты и их обсуждение.

Исследуемый свинцово-висмутовый шлам (СВШ) характеризуется рядом физико-химических параметров, определяющих особенности его переработки. Влажность материала составляет в среднем 10–12 %, при этом в зависимости от сезонных условий возможны колебания в диапазоне 5–15 %. Исходная дисперсность шлама находится в пределах 0–20–30 мкм, однако в процессе длительного хранения в накопителях и естественной сушки происходит агломерация частиц с образованием агрегатов размером от 1 до 300 мкм, что приводит к неравномерности гранулометрического состава.




Рис.1. Вероятностное распределение влажности свинцово-висмутового шлама.

Минералогический состав шлама представлен преимущественно тонкодисперсным сульфатом свинца (PbSO₄), образующимся в виде возгонов при охлаждении технологических газов [12]. Истинная плотность

PbSO₄ составляет около 5 г/см³, тогда как насыпная плотность шлама в естественном состоянии достигает 2 г/см³, а при уплотнении — до 2,3 г/см³. Водородный показатель среды варьируется в пределах pH=2,5–3,5, что свидетельствует о кислой природе материала, обусловленной присутствием серной кислоты.




Рис.2. Истинная и насыпная плотность PbSO₄ в свинцово-висмуте шламе.

В качестве объекта исследования использовался свинцово-висмутый шлам сернокислотного производства с химическим составом, приведенным в таблице 1, а также с промышленно значимым содержанием благородных металлов, в частности золота и серебра.

Полученные результаты подтверждают целесообразность комплексной переработки данного техногенного сырья [13, 15].

В ходе исследований разработана технологическая схема переработки СВШ, направленная на получение очищенного карбоната свинца, пригодного для дальнейшего получения металлического свинца без стадии дополнительного рафинирования [8, 11]. Процесс включает последовательные стадии кислотного выщелачивания, горячей водной промывки, двухстадийного солевого выщелачивания, карбонизации, термической обработки и восстановительной плавки. Технологическая схема переработки свинцово-висмутевого шлама (рисунок 2).

Далее технологический процесс реализуется следующим образом. Для извлечения меди и цинка в раствор применялась горячая водная промывка при температуре 60–90 °С в течение 2 часов при соотношении твердого и

жидкого фаз Т:Ж=1:3. Промывка осуществлялась до достижения pH=5,5–6,0 при температуре около 80 °С. В результате формировался продуктивный раствор с концентрацией меди до 6 г/л и цинка до 20 г/л, пригодный для последующего извлечения данных металлов.




Рис.3. Технологическая схема получение карбоната свинца.




Рис.4. Изменение значений pH шлама по сериям измерений.

Оставшийся после промывки твердый остаток подвергался двухстадийному солево-выщелачиванию с использованием растворов хлорида натрия концентрацией 250 и 150 г/л

соответственно. Процесс проводился при температуре 90–95 °С, продолжительность каждой стадии составляла 2 часа при соотношении Т:Ж=1:3. После выщелачивания пульпа подвергалась фильтрации с целью отделения нерастворимых компонентов. Экспериментальные исследования позволили установить оптимальные параметры процесса, обеспечивающие максимальное извлечение свинца в раствор.

Полученный раствор хлорида свинца подвергался стадии карбонизации с использованием кальцинированной соды при доведении рН среды до 8,5–9. В результате протекала реакция образования карбоната свинца:



После карбонизации суспензия фильтровалась, при этом жидкая фаза возвращалась в оборотный цикл, что повышает ресурсную эффективность процесса. Осадок карбоната свинца подвергался прокатке при температуре 450 °С с образованием оксида свинца (глёта). Далее глёт в присутствии восстановителя (графита) и флюсов направлялся на восстановительную плавку, в результате

которой получен металлический свинец с содержанием основного компонента 99,06 %.

Твердые остатки, образующиеся после солевого выщелачивания и содержащие благородные металлы, могут быть направлены либо на переработку в составе медного штейна, либо подвергнуты дополнительному гидрометаллургическому извлечению золота и серебра, что подтверждает комплексный характер разработанной технологии [3, 14].

Заключение. Проведенные исследования показали, что солевое выщелачивание при температуре 60–80 °С, соотношении Т:Ж=1:3 и продолжительности 2–4 часа обеспечивает селективное извлечение свинца при сохранении кварца и благородных металлов в твердой фазе, при этом повышение температуры способствует увеличению степени его растворения. На основе полученных результатов разработана эффективная технология переработки свинцово-висмутового шлама сернокислотного производства, обеспечивающая высокое извлечение ценных компонентов и характеризующаяся улучшенными технико-экономическими показателями, что подтверждает ее промышленную перспективность.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

- [1] Саидахмедов, А. А., Хасанов, А. С., & Мирзанова, З. А. (2020). Технология переработки техногенных отходов цветной металлургии. Ташкент: Фан.
- [2] Хасанова, А. С., Умаралиев, И. С., & Саидахмедов, А. А. (2024). Переработка продуктов газоочистки медного производства. Навои.
- [3] Мирзанова, З. А., Муносибов, Ш. М., & Рахимжонов, З. Б. (2019). Гидрометаллургические методы извлечения цветных металлов из отходов. Ташкент: ТГТУ.
- [4] Каримова, Ш. К., Ташалиев, Ф. У., & Каршибоев, Ш. Б. (2021). Комплексная переработка техногенных отходов металлургии. Самарканд.
- [5] Юсупов Б.Т., Абдуллаев Х.А. Основы переработки шламов металлургических производств // Ташкент, 2018, С. 140–158.
- [6] Туляганов А.А., Рузиев Ш.У. Технология извлечения свинца из вторичных сырьевых ресурсов // Ташкент, 2022, С. 55–73.
- [7] Саидахмедов А.А., Мирзанова З.А. Исследование процессов солевого выщелачивания свинцовых шламов // Журнал «Горный вестник Узбекистана», 2021, №3, С. 45–50.
- [8] Хасанов А.С., Умаралиев И.С. Технологические особенности переработки сернокислотных шламов // Журнал «Цветные металлы Центральной Азии», 2022, №2, С. 30–36.
- [9] Абдурахманов Н.М., Тошпулатов Б.А. Экологические аспекты переработки промышленных отходов // Ташкент, 2017, С. 90–104.
- [10] Рахимов К.Д., Каримов Д.С. Современные методы извлечения благородных металлов из техногенного сырья // Ташкент, 2020, С. 118–135.


- [9] Норматов Ш.Р., Исмоилов А.Б. Комплексное использование минерального сырья и отходов // Ташкент, 2019, С. 72–89.
- [10] Турсунов Б.М., Ходжаев Р.С. Гидрометаллургия цветных металлов // Ташкент, Фан, 2016, С. 200–230.
- [11] Саидахмедов А.А., Хасанова А.С. Разработка технологий извлечения металлов из пылей и шламов // Журнал «Инновации в металлургии», 2023, №1, С. 22–28.
- [12] Абдуллаев Ш.А., Юлдашев Ф.Х. Физико-химические основы переработки техногенных материалов // Ташкент, 2018, С. 150–168.
- [13] Рузиев Ш.У., Мирзаев А.К. Переработка отходов металлургического производства и повышение их ресурсной эффективности // Ташкент, 2021, С. 95–110.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Мирзанова, З. А., Эшонкулов, У. Х., & Ваккасов, Б. А. (2026). Технология селективного выщелачивания и переработки свинцово-висмутовых шламов металлургического производства. Цифровые технологии в промышленности, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.32>

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI
ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UO'K: 56.012.3

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.1

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

QULJUQTOV TOG'LARI DEVON DAVRI YOTQIZIQLARINING
LITOLOGIK TARKIBI VA QATLAMLANISH XUSUSIYATLARI



Berdimuratova Gulbanu Parxat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 1-kurs
magistranti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: gulbanuberdimuratova5@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-3223-5078
Science ID: MQR-0326-0124



Kurbonova Moxigul Mamasaliyevna

Dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: pmokhi2010@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-5874-3531
Science ID: 10-FTN-0326-0014

Annotatsiya. Mazkur maqolada QuljuqtoV tog'lari hududida keng tarqalgan devon davri yotqiziqIarining litologik tarkibi, qatlamlanish xususiyatlari hamda fasial o'zgaruvchanligi kompleks va tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hududda uchraydigan terrigen, karbonat va vulkanogen jinslarning mineralogik-petrografik tarkibi, strukturaviy-matritsali tuzilishi va stratigrafik joylanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Devon yotqiziqIarining qatlamlanishida kuzatiladigan ritmik almashinuvlar, fasial zonallik va organogen jinslarning shakllanish xususiyatlari paleogeografik sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Olingan ma'lumotlar devon davrida hududda sayoz dengiz, delta va rifli platforma muhitlari navbatma-navbat ustunlik qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, cho'kindi to'planish jarayonlarining tektonik faollik va vulkanizm bilan bog'liqligi ham ilmiy asosda yoritilgan. Maqola natijalari QuljuqtoV tog'lari devon kompleksining geologik evolyutsiyasini tiklash, uning stratigrafik tizimdagi o'rnini aniqlash hamda mintaqaning paleogeografik rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot xulosalari mintaqaviy geologiya, stratigrafiya va paleogeografiya sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Devon davri, QuljuqtoV tog'lari, litologik tarkib, qatlamlanish tuzilishi, fasial o'zgaruvchanlik, terrigen jinslar, karbonat jinslar, rif komplekslari, paleogeografiya, organogen yotqiziqIar.

Received: 05.04.2026

Accepted: 11.04.2026

Published: 29.06.2026

ЛИТОЛОГИЯ И ОСОБЕННОСТИ ЗАЛЕГАНИЯ ДЕВОНСКИХ
ОТЛОЖЕНИЙ КУЛЬДЖУКТАУСКИХ ГОР

Бердимуратова Гульбану Пархат кизи

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, магистрант 1 курса, Ташкент, Узбекистан

Курбанова Мохигул Мамасалиевна

Доцент, Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье проведён комплексный и системный анализ литологического состава, особенностей слоистости и фациальной изменчивости девонских отложений, широко распространённых на территории гор Кулджуктау. В ходе исследования особое внимание уделено минералого-петрографическому составу терригенных, карбонатных и вулканогенных пород, их структурно-матричному строению и стратиграфическому положению. Ритмичность чередования слоёв, фациальная зональность и особенности формирования органогенных пород девонских отложений интерпретируются в тесной связи с палеогеографическими условиями осадконакопления. Полученные данные свидетельствуют о том, что в девонский период на исследуемой территории последовательно доминировали мелководно-морские, дельтовые и рифово-платформенные среды осадконакопления. Также на научной основе показана взаимосвязь процессов осадкообразования с тектонической активностью и вулканизмом. Результаты исследования позволяют реконструировать геологическую эволюцию девонского комплекса гор Кулджуктау, определить его место в стратиграфической системе и более глубоко понять особенности палеогеографического развития региона. Сделанные выводы имеют важное научное значение для региональной геологии, стратиграфии и палеогеографии.

Ключевые слова: девонский период, горы Кулджуктау, литологический состав, слоистое строение, фациальная изменчивость, терригенные породы, карбонатные породы, рифовые комплексы, палеогеография, органогенные отложения.

THE IMPORTANCE OF AEROSPACE MAPPING METHODS IN OIL AND GAS FIELD EXPLORATION

Berdimuratova Gulbanu Parkhat kizi

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, 1st year
Master's student, Tashkent, Uzbekistan

Kurbanova Moxigul Mamasaliyevna

Associate Professor, Mirzo Ulugbek National University of
Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article presents a comprehensive and systematic analysis of the lithological composition, bedding characteristics, and facies variability of Devonian deposits widely distributed in the Quljuqtov Mountains. Particular attention is paid to the mineralogical and petrographic composition of terrigenous, carbonate, and volcanogenic rocks, as well as to their structural–matrix features and stratigraphic position. Rhythmic alternation of layers, facies zonation, and the characteristics of organogenic rock formation within the Devonian deposits are interpreted in close connection with the paleogeographic conditions of sedimentation. The obtained data indicate that during the Devonian period shallow-marine, deltaic, and reef-platform environments successively predominated in the study area. In addition, the relationship between sediment accumulation processes and tectonic activity and volcanism is substantiated on a scientific basis. The results of the study contribute to the reconstruction of the geological evolution of the Devonian complex of the Quljuqtov Mountains, the determination of its position within the stratigraphic framework, and a deeper understanding of the stages of paleogeographic development of the region. The conclusions of the research are of significant scientific importance for regional geology, stratigraphy, and paleogeography.

Keywords: Devonian period, Quljuqtov Mountains, lithological composition, stratification structure, facies variability, terrigenous rocks, carbonate rocks, reef complexes, paleogeography, organogenic deposits.

Kirish. Quljuqtov tog'lari O'zbekiston janubidagi paleozoy geologik strukturasi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan biri bo'lib, u yerda uchraydigan devon davri yotqiziqlari mintaqaning qadimiy paleogeografik rivojlanishi, tektonik jarayonlari va cho'kindi hosil bo'lish

dinamikasi haqida muhim ilmiy ma'lumotlar beradi. Devon davri Yer geologik tarixidagi eng faol biologik va geologik transformatsiyalar davri bo'lib, aynan shu davrda dengiz ekotizimlarining kengayishi, marjon riflarning rivojlanishi, terrigen va karbonatli cho'kindi havzalarning almashinuvi

kuzatilgan. Quljuqtov hududida devonning quyi, oʻrta va yuqori boʻlimlariga mansub qatlamlarning yaxshi saqlanganligi, ularning litologik tarkibidagi murakkablik, fasial oʻzgaruvchanlik va ritmik qatlamlanish devonning regional stratigrafiyasini oʻrganishda alohida ilmiy qiymatga ega ekanini koʻrsatadi. Qatlamlarning litologik tarkibida qumtoshlar, slaneslar, ohaktoshlar, mergellar, dolomitlar va vulkanogen jinslarning almashib kelishi Quljuqtov hududining geologik rivojlanishida bir-biridan farq qiluvchi paleomuhitlar, jumladan sayoz dengiz, delta, qirgʻoqboʻyi va organogen karbonat platformalarini aks ettiradi. Shu bois, mazkur majmuaning qatlam tuzilishi va litologiyasi hududning paleogeografik dinamikasini tiklash, choʻkindi jarayonlarining tabiatini aniqlash va devon davrining mintaqaviy geologik evolyutsiyasini yoritishda asosiy ilmiy manba hisoblanadi. Quljuqtov devon kompleksi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar geologik qatlamlarning lateral va vertikal oʻzgaruvchanligi, rif zonalarini rivojlanishi, terrigen oqimlarning faolligi hamda tektonik harakatlarning choʻkindi yigʻilishiga taʼsiri kabi murakkab jarayonlarni chuqur anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot Quljuqtov togʻlaridagi devon yotqiziqlarining litologik tarkibi va qatlamlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish orqali hududning geologik tuzilishi hamda paleogeografik tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Quljuqtov togʻlari devon davri yotqiziqlari oʻzining murakkab litologik tarkibi, strukturaviy xilma-xilligi va paleogeografik sharoitlari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda devon kompleksi asosan qumtoshlar, slaneslar, ohaktoshlar, mergellar, dolomitlar, vulkanogen materiallar va karbonatli terrigenous qatlamlar bilan xarakterlanadi. Qatlamlarning ritmik almashinuvi hududda devon davrida marjon riflari, qirgʻoqboʻyi muhitlar, sayoz dengiz sharoitlari, delta zonalarini va kuchli gidrodinamik jarayonlar mavjud boʻlganini koʻrsatadi. Stratigrafik kesimlarda qumtoshlarning toʻlqinli oʻzan izlari, bioturbatsiya izlari, karbonat qatlamlarda esa rif organizmlari boʻlaklari uchrashi hududning paleoekologik oʻziga xosligini belgilaydi. A.K.Norkulov devon qatlamlari haqida

“Quljuqtov devon kompleksida terrigen va karbonat yotqiziqlar mutanosibligi hududning geodinamik rivojlanishidagi keskin oʻzgarishlarni aks ettiradi” [1] – deya alohida taʼkidlaydi.

Litologik tarkibning asosiy qismini tashkil etuvchi qumtoshlar koʻpincha oʻrta va qoʻpol donali, baʼzan konglomeratik tuzilishga ega boʻlib, ularning minerologik asosini kvarts, dala shpati, slyuda va temir oksidlari tashkil etadi. Bu, oʻz navbatida, Quljuqtov hududida devon davrida kuchli oqimlar va oʻzanlarning faol boʻlganidan dalolat beradi. A.Bogdanovning fikriga koʻra: “Devon qumtoshlari yuqori energiyali muhitda toʻplangan boʻlib, ularning granulometrik tarkibi paleogidrodinamik jarayonlarni tiklashda muhim manba hisoblanadi” [2].

Hududning karbonatli yotqiziqlari — ohaktosh va dolomitlar — koʻpincha bioklastik, mikritli, oolitli tuzilishga ega boʻlib, ular devon davrida keng tarqalgan rif massivlari va sayoz dengiz platformalari mavjud boʻlganidan darak beradi. Oʻzbek geologi M. R. Qosimov ushbu qatlamlar haqida shunday yozadi: “Quljuqtovning karbonat massivlari devon davrida barqaror shelf hududi boʻlganini koʻrsatadi, bu qatlamlar koʻp hollarda marjon rif organizmlarining boʻlaklariga boy” [3].

Quljuqtov devon yotqiziqlarida slaneslar va mergellar ham keng tarqalgan boʻlib, ular koʻpincha organik moddalarga boy, yupqa qatlamli va oraliq dengiz muhitining tinch choʻkindi jarayonlarini aks ettiradi. Slanets qatlamlari koʻpincha qora yoki kulrang rangli boʻlib, bu anaerob sharoitlarda choʻkish jarayonini anglatadi. Yapon geologi S.Tanaka bu jarayonni “Devon slaneslari organik moddalarning yuqori konsentratsiyasini koʻrsatadi va ular koʻpincha paleoʻrmon mikroqoldiqlari bilan bogʻliq boʻladi” – deya izohlaydi [4].

Quljuqtov devon kesimlarida uchraydigan yana bir muhim litotip — vulkanogen jinslar, ayniqsa toshqol (tuf), vulkanik konglomeratlar va bazaltli qatlamlardir. Bu qatlamlar hududda devonning ayrim bosqichlarida vulkanik faollik kuzatilganini koʻrsatadi.

Quljuqtov togʻlari devon yotqiziqlarining litologik tarkibida stratigrafik izchillik, qatlamlarning almashinuvi, litofatsial zonallik va paleoekologik belgilar hududning qadimiy geologik taraqqiyoti haqida toʻliq tasavvur beradi.


Sh.Erkinov ta'kidlaganidek: "Devon yotqiziqlari tarkibining murakkabligi Quljuqtov hududining geologik evolyutsiyasida turli cho'kindi havzalar almashganini ko'rsatadi" [5].

Devon davri qatlamlarining qatlamlanish tuzilishi va fasial o'zgaruvchanligi tog' jinslarining cho'kindi muhitdagi dinamik jarayonlar, paleogeografik sharoitlar va geologik rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu davr Yer tarixidagi eng faol paleoekologik transformatsiyalar davri sifatida ajralib turadi. Devon yotqiziqlari, ayniqsa O'rta Osiyo, Ural, Tyan-Shan va Quljuqtov kabi hududlarda, terrigen, karbonat, vulkanogen va organogen qatlamlarning murakkab ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Bu qatlamlarning litologik ritmikligi paleogeografik sharoitda turli cho'kindi havzalarning almashganini ko'rsatadi. Yevropalik geolog R.Conderning fikricha "Devon qatlamlaridagi ritmik qatlamlanish — bu dengiz regressiya va transgressiyalarining geologik yozuvidir" [6].

Devon davri cho'kindi havzalari fasial o'zgaruvchanlikning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Qumtoshlardan ohaktoshlarga, slaneslardan dolomitlarga o'tuvchi fasiyalar turli paleomuhitlarni — daryo-delta tizimlari, sayoz shelflar, marjon rif platformalari, lagunar havzalar, chuqurroq dengiz o'zanlarini aks ettiradi.

Qatlamlanish tuzilishidagi vertikal almashinuvi ko'pincha klassik litofatsial ketma-ketliklarni aks ettiradi:

— qumtosh → slanes → ohaktosh → mergel → dolomit → rifal karbonat → terrigen-seriyali qatlamlar (1-rasm).



1-rasm. Quljuqtov tog'lari hududidagi devon davri yotqiziqlarining stratigrafik kesimi va litologik tuzilishi.

Rasmda Quljuqtov tog'lari hududidagi devon

davri yotqiziqlari stratigrafik kesimi va litofatsial tuzilishi vizual tarzda ko'rsatilgan. Tasvirda turli lithotiplarning qatlamlanishi aniq ajralib turadi: qumtoshlar, slaneslar, ohaktoshlar, mergellar va dolomitlar hamda vulkanogen materiallar o'zaro ritmik ravishda almashgan. Qatlamlarning vertikal va lateral ketma-ketligi devon davrida hududda mavjud bo'lgan sayoz dengiz, delta zonalar va rifli platforma muhitlarini aks ettiradi. Shuningdek, rasmda qumtoshlar va slanes qatlamlaridagi to'lqin izlari, bioturbatsiya belgilarining mavjudligi ham ko'rsatilgan bo'lib, bu paleoekologik sharoitning tinch va faol bosqichlarini namoyon qiladi. Karbonat qatlamlarda marjon rif fragmentlari va oolitli ohaktoshlar bilan ifodalangan rif va sayoz platformalarning rivojlanishi, hududning devon davridagi paleogeografik xususiyatlarini yaqqol ko'rsatadi. Vulkanogen qatlamlar esa hududda devon davrida vulkanik faollikning mavjudligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, rasm Quljuqtov tog'laridagi devon yotqiziqlari litologiyasini, fasial zonallikni va stratigrafik tartibni kompleks tarzda vizualizatsiya qiladi.

Bu ritmlar paleoekologik sharoitning o'zgaruvchanligi dengiz sathining ko'tarilishi va pasayishi, iqlimning nam yoki quruq davrlari, tektonik ko'tarilishlar va cho'kish jarayonlari bilan bog'liq. Gollandiya geologi J.Voto bu haqda "Devon qatlamlanishining murakkabligi tektonik-cho'kish havzalarining noaniq, ko'p bosqichli rivojlanishidan kelib chiqadi" — deya alohida ta'kidlaydi [7].

Devon davri fasial o'zgaruvchanligi eng yaxshi karbonat fasiyalarida namoyon bo'ladi. Marjon riflari, oolitli ohaktoshlar, bioklastik ohaktoshlar, mikritli karbonatlar va lagunar dolomitlar bir hudud ichida qisqa masofalarda keskin o'zgaradi. Bu rif zonalarining rivojlangan hududlari, ayniqsa Quljuqtov, Gisor va Turkiston tog'larida ko'plab paleobentos organizmlarining qoldiqlariga boy ekanligini ko'rsatadi.

Terrigen yotqiziqlarning fasial zonalligi, ayniqsa qumtosh va slanes paketlarining turlicha granulometriyasi, delta fronti va o'zanlarning migratsiyasini aks ettiradi. Bu jarayonlar kuchli gidrodinamika, tebranuvchi qirg'oq chiziqlari, fliş tipli sedimentatsiya va o'zgaruvchan iqlim sharoitlari bilan bog'liq. O'zbekistonlik geolog Sh.Erkinov bu haqda "Devon davrida terrigen

havzalar o'ta dinamik bo'lgan, qumtosh-slanes ketma-ketligi fasiyalarning gidrodinamik energiyasi bilan bevosita bog'liq"dir deya ta'kidlaydi.

Devon davri geologik rivojlanishi tektonik harakatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu davrda qator orogenetik jarayonlar boshlangani tufayli ko'tarilishlar va cho'kishlar natijasida katta sedimentatsion havzalar shakllangan. Ayniqsa, O'rta Osiyo hududida devonning o'rta va yuqori bo'limlari kuchli tektonik faollik, vulkanogen materiallarning ko'payishi va sedimentatsiya sharoitining keskin o'zgarishi bilan ajralib turadi. G.Keller bu haqda shunday yozadi: "Devon davridagi tektonik reaktivlik fasiyalarning keskin lateral o'zgarishiga olib kelgan bo'lib, bu jarayon tog'-oldi va platforma hududlarining bir-biridan farqlanishini kuchaytirgan" [8].

Umuman olganda, Quljuqtov tog'lari hududida rivojlangan devon davri yotqiziqlarining qatlamlanish tuzilishi va fasial o'zgaruvchanligi mintaqaning qadimiy ekologik, geodinamik va tektonik tarixini rekonstruksiya qilishda muhim geologik ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ladi. Qatlamlarning vertikal va lateral yo'nalishlarda almashinuvi, litologik tarkibning murakkabligi hamda cho'kindi jinslar orasidagi genetik bog'liqlik devon davrida hududda sodir bo'lgan paleogeografik jarayonlarning dinamik xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi [9]. Ayniqsa, terrigen, karbonat, vulkanogen va organogen yotqiziqlarning ketma-ketligi turli sedimentatsion muhitlarning davriy almashganidan dalolat beradi. Rif-komplekslarning rivojlanishi va karbonat platformalarning shakllanishi hududda barqaror sayoz dengiz sharoitlari hukmron bo'lgan davrlarni aks ettirsa, qumtosh va slanes qatlamlarining ustunligi kuchli gidrodinamik jarayonlar, delta tizimlari va faol qirg'oqbo'yi muhitlarining mavjudligini ko'rsatadi. Qatlamlarning ritmik takrorlanishi esa dengiz transgressiya va regressiyalari, iqlim o'zgarishlari hamda tektonik ko'tarilish va cho'kish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan [10]. Litofatsial zonallikning aniqligi, ayniqsa lateral yo'nalishda qisqa masofalarda kuzatiladigan keskin fasial almashinuvlar devon davrida cho'kindi havzalarining murakkab tuzilishga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Vulkanogen qatlamlarning qatnashuvi esa hududning geodinamik faol zonada

joylashganini va devon davrida tektonik jarayonlar bilan birga vulkanizm ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi [11]. Shu jihatdan, Quljuqtov tog'lari devon yotqiziqlarining qatlamlanish xususiyatlari va fasial o'zgaruvchanligi mintaqaning geologik evolyutsiyasini, paleomuhitlarning rivojlanish bosqichlarini hamda tektonik jarayonlarning cho'kindi to'planishga ta'sirini kompleks tarzda yoritib beradi.

Xulosa. Quljuqtov tog'lari devon davri yotqiziqlarining litologik tarkibi va qatlamlanish xususiyatlari mintaqaning paleozoy tarixini chuqur anglash, cho'kindi hosil bo'lish jarayonlarining tabiatini yoritish va geologik rivojlanish dinamikasini tiklashda alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, devon yotqiziqlari hududda murakkab litofatsial zonallik, ritmik qatlamlanish, terrigen va karbonatli jinslarning izchil almashinuvi, shuningdek organogen to'planish jarayonlarining keng miqyosda amal qilganini aks ettiradi. Qumtoshlar, slaneslar, ohaktoshlar, dolomitlar va mergellar kabi asosiy jins tiplari hududda turli paleogeografik sharoitlar — delta tizimlari, sayoz dengiz platformalari, qirg'oqbo'yi muhitlari va rif komplekslarining almashib borganini ko'rsatadi [12]. Bunday fasial o'zgaruvchanlik devon davri davomida mintaqada tektonik harakatlar, dengiz transgressiyalari va regressiyalarining faol bo'lganidan dalolat beradi. Stratigrafik kesimlarda uchraydigan bioklastik ohaktoshlar, oolitli karbonatlar, qumli-slanesli ketma-ketliklar va vulkanogen qatlamlar hududning geodinamik jihatdan faol bo'lganini yana bir bor tasdiqlaydi. Litologik tarkib va qatlamlanish tuzilishining batafsil o'rganilishi Quljuqtov hududi devon kompleksining nafaqat mintaqaviy, balki global stratigrafik tizimdagi o'rnini ham aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Quljuqtov devon yotqiziqlari paleoekologik va tektonik jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab cho'kindi tizimiga ega bo'lib, mintaqaning geologik evolyutsiyasini tiklashda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, mazkur maqola Quljuqtov tog'lari devon qatlamlarining litologik tarkibi va qatlamlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritib, hududning paleogeografik va geodinamik tarixiga oid

kompleks ilmiy xulosalar chiqarishga asos yaratdi. |


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Norkulov, A. (2014). O‘zbekiston paleozoy stratigrafiyasi. Fan.
- [2] Bogdanov, A. (2001). Devonian sedimentology of Central Asia. Moscow University Press.
- [3] Qosimov, M. (2019). O‘zbekiston tog‘ jinslari litologiyasi. Universitet.
- [4] Tanaka, S. (1998). Marine paleoenvironment of the Devonian. Kyoto Press.
- [5] Erkinov, Sh. (2020). O‘zbekiston geologik tuzilishining paleozoy kompleksi. Fan va texnologiya.
- [6] Richard, C. (2008). Devonian sedimentary systems. Springer.
- [7] Johannes, V. (2003). Paleozoic stratigraphy of Eurasia. Elsevier.
- [8] Keller, G. (2005). Tectonic evolution of Paleozoic basins. Springer.
- [9] Bell, J. M. (2010). Devonian reef complexes and paleoecology. Geological Society of London.
- [10] Ivanov, L. P. (2012). Stratigraphic correlation of Paleozoic sequences in Central Asia. Nauka Publishers.
- [11] Ahmedov, R. S. (2016). Sedimentology and facies analysis of Paleozoic basins. Ilm-Ziyo.
- [12] Muller, T., & Schmidt, K. (2015). Paleogeography of the Paleozoic: Principles and case studies. Springer.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Berdimuratova, G. P., & Kurbonova, M. M. (2026). Quljuqtov tog‘lari devon davri yotqiziqlarining litologik tarkibi va qatlamlanish xususiyatlari. *Sanoatda Raqamli Texnologiyalar*, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.1>

UO‘K: 678.7:541.124

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.2

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

UCH MONOMERLI TERPOLIMERLANISH REAKSIYASIDA TARKIBINING STRUKTURAVIY O‘ZGARISHLARI EKSPRIMENTAL VA KINETIK MODEL ASOSIDA BAHOLASH



Mavlonov Shohrux Boboxon o'g'li

PhD, dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro,
O'zbekiston

E-mail: shoxrux-mavlonov@mail.ru

ORCID ID: 0009-0009-1652-6369

Science ID: FBX-0326-0012



Fozilov Sadridin Fayzullayevich

DSc, professor, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro,
O'zbekiston

E-mail: sadriddinf@mail.ru

ORCID ID: 0009-0009-0313-6134

Science ID: DBX-0326-0003

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda TDMA–stiroł–malein angidrid tizimida terpolimerlanish kinetikasi va tarkibiy o'zgarishlari eksperimental hamda kinetik model asosida o'rganildi. Inisiator konsentratsiyasi $16,8 \times 10^{-6}$ dan $51,3 \times 10^{-6} \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1}$ gacha oshirilganda konversiya 6,4% dan 15,2% gacha, reaksiya tezligi $4,075 \times 10^{-6}$ dan $8,965 \times 10^{-6} \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ gacha ortdi. Stiroł konsentratsiyasi ortishi bilan tezlik $3,11 \times 10^{-6}$ dan $11,07 \times 10^{-6} \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ gacha oshgani aniqlandi. Past konversiyada tarkib boshlang'ich qiymatlarga yaqin bo'lsa-da, ayrim tizimlarda kompozitsion drift kuzatilib, MA ulushi 0,50 dan 0,70 gacha ortdi. Eksperimental natijalar model bilan yuqori moslikda ($\pm 0,02-0,04$) bo'ldi.

Kalit so'zlar: terpolimerlanish, kinetika, TDMA–St–MA tizimi, kompozitsion drift, reaktivlik nisbatlari, kinetik modellashtirish, radikal polimerlanish.

Received: 05.04.2026

Accepted: 11.04.2026

Published: 29.06.2026

ОЦЕНКА СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ СОСТАВА В РЕАКЦИИ ТЕРПОЛИМЕРИЗАЦИИ В ТРЁХКОМПОНЕНТНОЙ СИСТЕМЕ НА ОСНОВЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ДАННЫХ И КИНЕТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ

Мавлонов Шохрух Бобохон угли

PhD, доцент, Бухарский государственный технический
университет, Бухара, Узбекистан

Фозилов Садриддин Файзуллаевич

DSc, профессор, Бухарский государственный технический
университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация. В данной работе исследованы кинетика терполимеризации и структурные изменения в системе TDMA–стирол–малеиновый ангидрид на основе экспериментальных данных и кинетического моделирования. При увеличении концентрации инициатора от $16,8 \times 10^{-6}$ до $51,3 \times 10^{-6} \text{ моль} \cdot \text{л}^{-1}$ конверсия возрастает с 6,4% до 15,2%, а скорость реакции — с $4,075 \times 10^{-6}$ до $8,965 \times 10^{-6} \text{ моль} \cdot \text{л}^{-1} \cdot \text{с}^{-1}$. Установлено, что с увеличением содержания стирола скорость реакции возрастает от $3,11 \times 10^{-6}$ до $11,07 \times 10^{-6} \text{ моль} \cdot \text{л}^{-1} \cdot \text{с}^{-1}$. В области низких конверсий состав близок к исходному, однако в ряде систем наблюдается композиционный дрейф (увеличение доли MA от 0,50 до 0,70). Экспериментальные данные хорошо согласуются с моделью ($\pm 0,02-0,04$).

Ключевые слова: терполимеризация, кинетика, система TDMA–стирол–малеиновый ангидрид, композиционный дрейф, реакционные коэффициенты, кинетическое моделирование, радикальная полимеризация.

EVALUATION OF COMPOSITIONAL STRUCTURAL CHANGES IN TERPOLYMERIZATION OF A TERNARY SYSTEM BASED ON EXPERIMENTAL DATA AND KINETIC MODELING

Mavlonov Shokhrux Bobokhon ugli

PhD, Associate Professor, Bukhara State Technical University,
Bukhara, Uzbekistan

Fozilov Sadridin Fayzullayevich

DSc, Professor, Bukhara State Technical University, Bukhara,
Uzbekistan

Abstract. This study investigates the kinetics of terpolymerization and structural changes in the TDMA–styrene–maleic anhydride system based on experimental data and kinetic modeling. Increasing the initiator concentration from 16.8×10^{-6} to $51.3 \times 10^{-6} \text{ mol}\cdot\text{L}^{-1}$ led to an increase in conversion from 6.4% to 15.2% and reaction rate from 4.075×10^{-6} to $8.965 \times 10^{-6} \text{ mol}\cdot\text{L}^{-1}\cdot\text{s}^{-1}$. It was found that increasing styrene content enhances the reaction rate from 3.11×10^{-6} to $11.07 \times 10^{-6} \text{ mol}\cdot\text{L}^{-1}\cdot\text{s}^{-1}$. At low conversion, the composition remains close to the initial feed; however, compositional drift is observed in some systems (MA fraction increases from 0.50 to 0.70). The experimental results show good agreement with the model (± 0.02 – 0.04).

Keywords: terpolymerization, kinetics, TDMA–styrene–maleic anhydride system, compositional drift, reactivity ratios, kinetic modeling, radical polymerization.

Kirish. Hozirgi kunda neft-kimyxo sanoatida yuqori samarali funksional prisadkalar sintez qilish uchun uch monomerli sistemalarda sodir bo‘ladigan terpolimerlanish jarayonlarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda [1,2]. Bunday sistemalarda turli kimyoviy tabiatga ega monomerlarning birgalikda polimerlanishi natijasida murakkab mikrostrukturaga ega makromolekulalar hosil bo‘ladi [3,4]. Ushbu strukturaviy xususiyatlar esa hosil bo‘layotgan terpolimerlarning fizik-kimyoviy, reologik va ekspluatatsion xossalarini belgilaydi [5].

Adabiyotlarda radikal sopolimerlanish va terpolimerlanish jarayonlari keng o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan monomerlarning reaktivlik nisbatlari, zanjir o‘shish va terminatsiya mexanizmlariga asoslanadi [6]. Klassik Mayo–Lewis va Fineman–Ross tenglamalari yordamida ikki komponentli tizimlar uchun reaktivlik koeffitsientlarini aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, uch va undan ortiq monomerli sistemalarda kinetik modellashtirishda zamonaviy yondashuvlar, jumladan, matematik modellar usullari keng qo‘llanilmoqda [7].

Shunga qaramay, uch monomerli sistemalarda terpolimerlanish jarayonida tarkibning strukturaviy


o‘zgarishlari yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan bo‘lib, konversiyaga bog‘liq ravishda terpolimer tarkibining o‘zgarishlari va uning kinetik parametrlar bilan bog‘liqligi to‘liq aniqlanmagan. Bundan tashqari, eksperimental natijalar va kinetik modellar o‘rtasidagi moslikni kompleks baholash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda maqsadi uch monomerli sistemada terpolimerlanish jarayonida tarkibning strukturaviy o‘zgarishlarini eksperimental ma‘lumotlar va kinetik model asosida baholashdan iborat, shuningdek, terpolimer tarkibining konversiyaga bog‘liq o‘zgarishi o‘rganilib, eksperimental natijalar kinetik model hisoblari bilan taqqoslandi hamda tizimning asosiy kinetik qonuniyatlari aniqlandi.

Materiallar va usullar. TDMA–stirol–malein anhidrid (TDMA–St–MA) uch monomerli sistemasida terpolimerlanish jarayonining kinetikasini o‘rganish va boshlang‘ich kinetik qonuniyatlarini aniqlash maqsadida tajribalar past konversiya oralig‘ida (0–15%) va (50–95%) konversiya darajasiga olib borildi.

Ishlatilgan moddalar va reagentlar: Tadqiqotlarda tetradetsil metakrilat (TDMA), metakril kislotaning yuqori molekulyar spirtlar,

xususan tetradetsil spirt bilan esterifikatsiyasi orqali olindi. Ushbu jarayon kislota katalizatori (sulfat kislota) ishtirokida olib borilib, suv ajralishi bilan boradi.



Metakrilat monomerleri ishlab chiqarish va sifat ko'rsatkichlari MDH hududida GOST 20370–74 (metakril kislota efirlari uchun) yoki unga mos texnik shartlar (TU) bilan tartibga solindi, stiro (St) (GOST 10003–90) va malein anhidrid (MA) (GOST 11138–78) monomerleri qo'llanildi. Inisiator sifatida azo-tipidagi birikma — IMDN ishlatildi. Monomer/inisiator nisbatlari 125:1, 200:1 va 800:1 diapazonlarda tanlandi. Erituvchi sifatida toluol qo'llanilib, u reaksiya muhitining bir jinsliliğini va issiqlik uzatilishini ta'minladi. Monomerlar: 80TDMA/10St/10MA, 10TDMA/80St/10MA va 10TDMA/10St/80MA mol nisbatlarida tadqiq qilindi. Tadqiqotda ishlatilgan barcha reagentlar yuqori tozalik darajasiga ega bo'lib, qo'shimcha tozalashsiz qo'llanildi. Monomerlarning tarkibiy tozaligi va ingibitorlardan tozalanganligi polimerlanish kinetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hisobga olib, ular ishlatishdan oldin zarur hollarda vakuum distillyatsiyasi yoki ingibitorlarni yo'qotish orqali tayyorlandi.

Reaktivlarning konsentratsiyasi umumiy kine-tik tenglamada quyidagicha ifodalanadi:

$$R_p = k_p[M][R] \quad (2)$$

Terpolimerlanish jarayoni: Terpolimerlanish reaksiyalari inert muhitda (N₂ atmosferasi) 95 ± 5 °C haroratda olib borildi. Reaksiya davomiyligi 0–360 minut oralig'ida o'zgartirildi. Har bir vaqt nuqtasida namunalar olinib, monomer konversiyasi aniqlandi. Reaksiya tezligi quyidagi umumiy kinetik ifoda bilan tavsiflanadi:

$$R_p = -\frac{d[M]}{dt} \quad (3)$$

Radikal terpolimerlanishda stasionar holat sharoitida:

$$[R] = \sqrt{\frac{2fk_d[I]}{k_t}} \quad (4)$$


Natijada umumiy tezlik tenglamasi:

$$R_p = k_p[M] = \sqrt{\frac{2fk_d[I]}{k_t}} \quad (5)$$

Natijalar va ularning muhokamasi.

Terpolimerlarning strukturasi aniq tasvirlash uchun monomerlarning konversiyasiga harorat, inisiator

konsentratsiyasi, reaktivlik koeffitsiyentlari aniqlash maqsadida radikal mexanizm usuli yordamida terpolimerning 5-15% gacha bo'lgan unumida monomerlarning turli xil mol nisbatlarida olib borildi va terpolimerlanish jarayonining kinetikasi o'rganilib, terpolimer sintez reaksiyasi quyidagicha tasvirlandi.



1-rasm. TDMA, St va MA monomerlar asosida terpolimer sintez jarayoni.

TDMA, stiro va malein anhidrid ishtirokida olib borilgan terpolimerlanish jarayonida monomerlar konversiyasiga terpolimerlanish davomiyligi, inisiatorning turi va uning konsentratsiyasi, erituvchi tabiati, haroratlarning o'zgarishi terpolimerning molekulyar massasi, strukturasi shakllanishiga ta'sirlari tadqiq qilindi.

1-jadval

[IMDN] ning 95 oC ± 5 oC 150 minutda terpolimerlanish tezligiga ta'siri

Namuna №	IMDN × 10 ⁻⁶ mol·L ⁻¹	Konversiya, %	R _p × 10 ⁻⁶ mol·L ⁻¹ ·s ⁻¹
1	16.8	6.4	4.075
2	25.2	8.2	4.89
3	33.6	10.6	5.705
4	42.0	12.4	7.335
5	51.3	15.2	8.965

$$[TDMA] = 2.01 \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1}, [St] = 1.44 \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1}, [MA] = 0.72 \text{ mol} \cdot \text{L}^{-1}$$

TDMA–ST–MA terpolimerlanish kinetikasiga monomerlar konsentratsiyasining ta'siri jadval va grafiklarda keltirilgan natijalar asosida miqdoriy jihatdan baholanganda inisiator ishtirokida, doimiy harorat va vaqt sharoitlarida olib borilganda, kinetik farqlarni bevosita monomer tarkibi bilan bog'lash imkonini berdi shuningdek stiro konsentratsiyasi oshirilishi bilan polimerlanish tezligi va umumiy konversiya izchil ravishda ortishiga olib keldi.

Stirolning past konsentratsiyalarida umumiy konversiya 7,0–8,5% oralig'ida kuzatiladi. Stirolni miqdori oshirilganda esa konversiya 13,9–15,6 % gacha, terpolimerlanish tezligi R_p esa 3,11 × 10⁻⁶ dan 11,07 × 10⁻⁶ mol·L⁻¹·s⁻¹ gacha ortadi. Bu holat stirolning radikal polimerlanishga yuqori moyilligi

hamda TDMA–ST–MA tizimida asosiy aktiv radikal hosil qiluvchi monomer ekanligini ko'rsatadi.

TDMA konsentratsiyasi oshirilganda ham konversiya 9,1% dan 14,3% gacha, terpolimerlanish tezligi R_p esa $4,17 \times 10^{-6}$ dan $11,60 \times 10^{-6}$ mol·L⁻¹·s⁻¹ gacha ortadi. Biroq stiroлга nisbatan TDMA molekulasida uzun alifatik yon zanjirlarning mavjudligi sababli molekulaning hajmi kattalashadi. Natijada reaksiya markaziga boshqa molekularning yaqinlashishi qiyinlashadi hamda jarayon davomida muhit qovushqoqligining ortishi molekularning erkin harakatlanishini cheklaydi.

MA konsentratsiyasi oshirilganda konversiya 5,6% dan 15,7% gacha ortadi, ammo terpolimerlanish tezligi R_p esa $2,58 \times 10^{-6}$ dan $11,50 \times 10^{-6}$ mol·L⁻¹·s⁻¹ oralig'ida qoladi. Bu MA monomerining gomopolimerlanishga kam moyilligi bilan izohlanadi. Shu sababli MA asosan TDMA yoki stiroл bilan o'zaro ta'sirlashib, terpolimer zanjiriga aktiv markaz orqali qo'shiladi.

2-jadval

IMDN initsiatori ishtirokida (TDMA–St–MA) terpolimerlanish tezligiga monomerlar konsentratsiyasining ta'siri (reaksiya davomiyli 150 min, Harorat = 95 °C ± 10°C)

Namuna №	Monomer konsentratsiyasi (mol·L ⁻¹)	Konversiya (%)	$R_p \times 10^6$ (mol·L ⁻¹ ·s ⁻¹)
6 [TDMA]	0.28	7.02	3.11
7	0.86	8.35	4.31
8	2.01	13.9	9.10
9	2.59	15.6	11.07
10 [St]	0.72	9.1	4.17
11	2.16	11.4	7.48
12	2.88	14.3	11.60
13 [MA]	1.00	5.6	2.58
14	3.01	12.1	8.83
15	4.02	15.7	11.50

* [TDMA] = 1.44 mol·L⁻¹, [St] = 2.01 mol·L⁻¹, [IMDN] = 33.6 × 10⁻⁶ mol·L⁻¹

** [St] = 1.44 mol·L⁻¹, [MA] = 1.44 mol·L⁻¹, [IMDN] = 33.6 × 10⁻⁶ mol·L⁻¹

*** [St] = 1.44 mol·L⁻¹, [MA] = 1.44 mol·L⁻¹, [IMDN] = 33.6 × 10⁻⁶ mol·L⁻¹

3-jadvalda TDMA–ST–MA terpolimerlari uchun boshlang'ich monomer (F), terpolimer tarkibidagi monomerlar nisbati (f), umumiy konversiya darajasi hamda terpolimer zanjiriga kiritilgan monomerlarning mol ulushlari keltirilgan.

3-namunada boshlang'ich monomer nisbati F=1.43, polimer tarkibidagi nisbat esa f=1.40 ni tashkil etdi. Ushbu sharoitda umumiy konversiya 10,6% bo'lib, terpolimer tarkibida TDMA, stiroл va MA monomerlarining mol ulushlari mos ravishda

1,44:1,44:2,01 ga teng bo'ldi.

6-namunada boshlang'ich monomer nisbati F=2.00, polimer tarkibida esa f=1.90f = 1.90f=1.90 bo'lib, konversiya 7,02 % ni tashkil etdi. Bu holatda terpolimer tarkibida stiroл ulushi 0,28, TDMA — 1,44 va MA — 2,01 ga teng bo'ldi.

9-namunada yuqori konversiya (15,6%) kuzatilib, boshlang'ich monomer nisbati F=0.85, polimer tarkibi esa f=0.98 ni tashkil etdi. Ushbu sharoitda stiroлning mol ulushi 2,59, TDMA — 1,44 va MA — 2,01 ga teng bo'ldi.

10-namunada konversiya 9,1% bo'lib, monomer nisbati F=0.71, polimer tarkibi f=0.37 ga teng. Terpolimer tarkibida stiroл 1,44, TDMA 0,72 va MA 2,01 mol ulushlarda aniqlangan.

12-namunada boshlang'ich monomer nisbati F=2.88, polimer tarkibi f=2.31 va konversiya 14,3% ni tashkil etdi. Bu sharoitda TDMA ning terpolimer zanjiridagi mol ulushi 2,88 ga yetib, stiroл (1,44) va MA (2,01) ulushlari deyarli o'zgarmagan holda saqlanib qoldi.

3-jadval

Terpolimer tarkibi ([IMDN] = 33.6 × 10⁻⁶ mol·L⁻¹ Harorat = 95°C ± 3°C, Vaqt = 150 daqiqa)

Namuna	Monomerlarning boshlang'ich miqdori (F)	Terpolimer tarkibidagi miqdor (f)	Konversiya, %	[TDMA] mol ulushi	[St] mol ulushi	[MA] mol ulushi
3	1.43	1.4	10.6	1.44	1.44	2.01
6	2.00	1.9	7.02	0.28	1.44	2.01
9	0.85	0.98	15.6	2.59	1.44	2.01
10	0.71	0.37	9.1	1.44	0.72	2.01
12	2.88	2.31	14.3	1.44	2.88	2.01
13	2.14	1.8	5.6	1.44	1.44	1.00
15	1.074	0.96	15.7	1.44	1.44	4.02

* Fenil protonlari cho'qqilari asosida hisoblangan.

** Asetoksi protonlari cho'qqilari asosida hisoblangan.

*** Elementar tahlil bo'yicha kislorod foizi asosida hisoblangan.


13-namunada konversiya eng past qiymatlardan biri bo'lib, 5,6% ni tashkil etdi. Monomer nisbati F=2.14, polimer tarkibi f=1.80 bo'lib, zanjir tarkibida stiroл 1,44, TDMA 1,44 va MA 1,00 mol ulushlarda kuzatildi.

15-namunada esa eng yuqori konversiya (15,7%) qayd etildi. Bu holatda boshlang'ich monomer nisbati F=1.074, polimer tarkibi f=0.96 bo'lib, terpolimer tarkibida stiroл 1,44, TDMA 1,44 va MA 4,02 mol ulushlarda aniqlangan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, TDMA–St–MA terpolimerlanish jarayonida monomerlarning polimer zanjiriga kirishi ularning boshlang'ich nisbatiga to'liq proporsional emas. Stiroл va TDMA asosan zanjirning strukturaviy va elastik segmentlarini shakllantiradi, malein angidrid (MA) esa funksional guruhlarni kirituvchi

komponent sifatida ishtirok etadi. MA ning terpolimer tarkibiga qo‘shilishi ko‘pincha boshqa monomerlar bilan o‘zaro propagatsiya orqali amalga oshadi. Bu esa kinetik jarayonlarni boshqarish, terpolimer tarkibini nazorat qilish va ularning funksional xossalarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Terpolimer tarkibining konversiyaga bog‘liq o‘zgarishini va kinetik model bilan taqqoslash: Sintez qilingan terpolimer monomerlar aralashmasida konversiya jarayonida monomerlarning zanjirga kiritilish darajasi kumulyativ tarkib funksiyasi F_i orqali baholandi va eksperimental natijalar kinetik model qiymatlari bilan solishtirildi (2-rasm).



2-rasm. (a) 0.8/0.1/0.1, (b) 0.1/0.8/0.1 va (c) 0.1/0.2/0.7 TDMA–St–MA monomerlar nisbatlarida kumulyativ terpolimer tarkibi F_i (eksperimental ma’lumotlar va model qiymatlari)

(0,8/0,1/0,1) boshlang‘ich tarkibda konversiya 0,05–0,90 oralig‘ida o‘zgarganda, terpolimer tarkibida asosiy komponent sifatida TDMA ulushi deyarli o‘zgarmay $F \approx 0,75–0,80$ oralig‘ida saqlanadi. Ikkinchi va uchinchi monomerlar ulushi mos ravishda $F \approx 0,12–0,15$ ni tashkil etib, konversiya ortishi bilan ularning o‘zgarishi $\pm 0,02$ dan oshmaydi.

(0,1/0,8/0,1) tarkibli sistemada esa butun konversiya davomida stirok asosiy komponent sifatida ustunlik qiladi va uning ulushi $F \approx 0,80–0,83$ oralig‘ida kuzatiladi. Shu bilan birga, TDMA ulushi $F \approx 0,10–0,13$, MA ulushi esa $F \approx 0,06–0,10$ diapazonda o‘zgaradi.

(0,1/0,2/0,7) sistemada konversiya ortishi bilan sezilarli tarkibiy qayta taqsimlanish kuzatiladi. Past konversiyada MA ulushi $F \approx 0,50–0,55$ bo‘lsa, yuqori konversiyada u $F \approx 0,65–0,70$ gacha oshadi. Aksincha, stirok ulushi $F \approx 0,35–0,40$ gacha kamayadi, TDMA ulushi esa deyarli barqaror bo‘lib, $F \approx 0,10–0,12$ atrofida saqlanadi.

Uchala sistemada ham kinetik model asosida hisoblangan qiymatlar eksperimental natijalar bilan yuqori darajada mos kelib, maksimal og‘ish $\pm 0,02–0,04$ dan oshmaydi. Bu esa modelning yuqori aniqlikda ($\pm 0,03$) ishlashini, tanlangan matematik yondashuvning to‘g‘riligini va uning adekvatligini tasdiqlaydi. Model yordamida terpolimer tarkibining o‘zgarishini oldindan bashorat qilish mumkin bo‘lib, TDMA–St–MA tizimida monomerlar nisbatini tanlash orqali yakuniy strukturaviy va funksional xossalarni maqsadli boshqarish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bu yondashuv reaktivlik nisbatlarini aniqlash uchun ishonchli eksperimental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. TDMA–stirok–malein anhidrid sistemasida terpolimerlanish jarayoni monomerlar nisbati va inisiator konsentratsiyasiga bog‘liq holda kechishi aniqlandi. Inisiator miqdori ortishi bilan konversiya va reaksiya tezligi oshadi. Stirok jarayonni tezlashtiruvchi asosiy komponent bo‘lib xizmat qiladi, TDMA esa asosan diffuzion omillar orqali ta’sir ko‘rsatadi, malein anhidrid esa selektiv ravishda terpolimer zanjiriga inkorporatsiyalanadi. Eksperimental natijalar kinetik model bilan yuqori moslikda ($\pm 0,02–0,04$) bo‘lib, modelning adekvatligini tasdiqladi. Olingan natijalar terpolimer tarkibini boshqarish va uning xossalarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] Speight, J. G. (2014). The chemistry and technology of petroleum (5th ed., pp. 811–835). CRC Press.
 [2] Rudnick, L. R. (2017). Lubricant additives: Chemistry and applications (3rd ed., pp. 245–278). CRC Press.

- [3] Matyjaszewski, K., & Möller, M. (Eds.). (2012). Polymer science: A comprehensive reference (Vol. 5, pp. 101–135). Elsevier.
- [4] Matyjaszewski, K., & Davis, T. P. (Eds.). (2009). Handbook of radical polymerization (pp. 361–410). Wiley.
- [5] Totten, G. E. (Ed.). (2013). Fuels and lubricants handbook (pp. 421–450). ASTM International.
- [6] Odian, G. (2010). Principles of polymer chemistry (pp. 215–250). Springer.
- [7] Wulkow, M. (2008). PREDICI: Polymer reaction engineering simulation (pp. 55–110). Wiley-VCH.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Mavlonov, Sh. B., & Fozilov, S. F. (2026). Uch monomerli terpolimerlanish reaksiyasida tarkibining strukturaviy o'zgarishlari eksperimental va kinetik model asosida baholash. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.2>

UO‘K: 622.276.1/4

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.21

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

GAZ QUDUQLARIDA SUYUQLIK YIG‘ILISHINI KAMAYTIRISH UCHUN KO‘PIK HOSIL QILUVCHI SHASHKA TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH



Rustamov Mirzoxid Mansur o'g'li

Texnika fanlari falsafa doktori, Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi, O'zbekiston

E-mail: mirzoxidrustamov406@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-9626-3351

Science ID: FQD-0226-0030

Annotatsiya. Gaz quduqlarida konlarni ishlatishning so‘nggi bosqichlarida suyuqlik yig‘ilishi (liquid loading) muammosi keng tarqalgan bo‘lib, u quduq mahsuldorligining keskin pasayishiga olib keladi. Mazkur tadqiqotda gaz quduqlarida suyuqlik zichligini kamaytirish orqali uni samarali chiqarishga qaratilgan ko‘pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasi takomillashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, laboratoriya tajribalari va dala sinovlarini o‘z ichiga oladi. Olingan natijalarga ko‘ra, taklif etilgan tarkib suyuqlikning effektiv zichligini 35–45% ga kamaytiradi hamda quduq mahsuldorligini 18–27% ga oshiradi. Ushbu texnologiya gaz quduqlarini samarali ishlatishda iqtisodiy jihatdan samarali yechim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: gaz quduqlari, liquid loading, shashka, ko‘pik, ko‘p fazali oqim, sirt faol moddalar.

Received: 25.05.2026

Accepted: 23.06.2026

Published: 29.06.2026

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕНОГЕНЕРИРУЮЩИХ ШАШЕК ДЛЯ СНИЖЕНИЯ СКОПЛЕНИЯ ЖИДКОСТИ В ГАЗОВЫХ СКВАЖИНАХ

Рустамов Мирзохид Мансур угли

Каршинский международный университет, доктор философии (PhD) по техническим наукам, Карши, Узбекистан

Аннотация. В газовых скважинах на поздних стадиях разработки месторождений широко распространена проблема накопления жидкости (liquid loading), приводящая к снижению продуктивности скважин. В данной работе предложена усовершенствованная технология пеногенирующих шашек, направленная на снижение плотности жидкости и повышение эффективности её выноса. Методика исследования включает теоретический анализ, лабораторные эксперименты и промышленные испытания. Полученные результаты показали снижение эффективной плотности жидкости на 35–45% и увеличение дебита скважин на 18–27%. Разработанная технология является экономически эффективным решением для повышения производительности газовых скважин.

Ключевые слова: газовые скважины, жидкостная нагрузка, пенообразование, многофазный поток.

IMPROVEMENT OF FOAM-GENERATING STICK TECHNOLOGY FOR REDUCING LIQUID LOADING IN GAS WELLS

Rustamov Mirzokhid Mansur ugli

Karshi International University, PhD in Technical Sciences, Karshi, Uzbekistan

Abstract. *Liquid loading is a common problem in gas wells at the late stage of reservoir development, significantly reducing production efficiency. This study presents an improved foam stick technology aimed at reducing liquid density and enhancing lifting efficiency. The methodology includes theoretical analysis, laboratory experiments, and field testing. The results show a reduction in liquid density by 35–45% and an increase in well productivity by 18–27%. The proposed technology is economically viable and effective for gas well deliquification.*

Keywords: *gas wells, liquid loading, foam stick, multiphase flow, surfactants.*

Kirish. Hozirgi kunda tabiiy gaz jahon energetika balansining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Gaz resurslaridan samarali foydalanish, uglevodorod zaxiralarini maksimal darajada o'zlashtirish va quduqlar mahsuldorligini oshirish neft-gaz sanoati oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, gaz konlarini ishlatishning keyingi bosqichlarida quduqlarning ishlash sharoiti murakkablashib, texnologik muammolar soni ortib boradi.

Gaz quduqlarida kuzatiladigan asosiy muammolardan biri quduq tubida suyuqlik yig'ilishi bo'lib, u neft-gaz sanoatida liquid loading atamasi bilan ma'lum. Ushbu holat gaz oqimining tezligi suyuqlikni quduq bo'ylab yuqoriga ko'tarish uchun yetarli bo'lmagan sharoitlarda yuzaga keladi. Natijada qatlam suvi yoki gaz kondensati quduq tubida to'planib, quduqda qo'shimcha gidrostatik bosim hosil qiladi. Bu esa gaz oqimining harakatlanishini qiyinlashtiradi va quduq mahsuldorligining keskin pasayishiga olib keladi.

Konlarni uzoq muddat ishlatish jarayonida qatlam bosimining pasayishi ushbu muammoni yanada kuchaytiradi. Qatlam bosimi kamaygan sari gaz oqimining energiyasi pasayadi va natijada suyuqlikni quduqdan chiqarish qobiliyati cheklanadi. Bu holat ayniqsa past debitli quduqlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada quduqlarning ishlash samaradorligi pasayadi va ayrim hollarda ularning ishdan chiqishiga olib keladi.

Gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosi ko'p fazali oqimlar gidrodinamikasi bilan chambarchas bog'liq. Quduq ichida gaz va suyuqlik fazalarining bir vaqtda harakatlanishi turli oqim rejimlarining shakllanishiga olib keladi. Gaz

oqimining tezligi kamayganda suyuqlik fazasi pastga tushib ketadi va quduq tubida to'planadi. Shu sababli gaz quduqlarida suyuqlik chiqarish jarayonini samarali tashkil etish uchun ko'p fazali oqimlar qonuniyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida neft-gaz sanoatida turli texnologik usullar ishlab chiqilgan. Ular orasida mexanik usullar (пленжер-лифт), gidrodinamik usullar (velocity string) va kimyoviy usullar mavjud. Mexanik usullar quduq konstruksiyasini o'zgartirishni talab qiladi va ko'p hollarda yuqori xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi. Gidrodinamik usullar esa ma'lum sharoitlarda samarali bo'lib, barcha quduqlar uchun universal yechim hisoblanmaydi.

Kimyoviy usullar, xususan, ko'pik hosil qiluvchi reagentlar asosidagi texnologiyalar so'nggi yillarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarda maxsus yuza-faol moddalar quduqqa kiritilib, suyuqlik bilan reaksiyaga kirishib ko'pik hosil qiladi. Ko'pikning hosil bo'lishi natijasida suyuqlikning effektiv zichligi kamayadi va gaz oqimi uni quduq bo'ylab yuqoriga ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda ko'pik hosil qiluvchi reagentlarning qattiq shakldagi turlari – shashka texnologiyasi amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyaning afzalligi shundaki, u quduqqa oson tushiriladi, qo'shimcha uskunalar talab qilmaydi va past debitli quduqlarda ham samarali ishlaydi. Biroq mavjud shashka tarkiblarining barqarorligi, yuqori minerallashgan suvlar sharoitida samaradorligi va ko'pik hosil qilish qobiliyati yetarli darajada emas.

Shu munosabat bilan gaz quduqlarida

suyuqlik zichligini kamaytirishga asoslangan ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasini takomillashtirish, uning kimyoviy tarkibini optimallashtirish va qo'llash samaradorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosini samarali bartaraf etishga qaratilgan takomillashtirilgan shashka texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosi neft-gaz sanoatida keng o'rganilgan va u quduq mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning nazariy asoslari ilk bor Turner va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular gaz quduqlarida suyuqlikni uzluksiz chiqarish uchun zarur bo'lgan minimal gaz tezligini aniqlash metodikasini taklif etgan [4].

Turner modeliga muvofiq, gaz oqimining tezligi ma'lum kritik qiymatdan yuqori bo'lgandagina suyuqlik tomchilari gaz bilan birga quduq bo'ylab yuqoriga harakatlanadi. Agar gaz tezligi ushbu qiymatdan past bo'lsa, suyuqlik quduq tubida to'planib qoladi. Ushbu nazariya gaz quduqlarida liquid loading muammosini tushuntirishda asosiy ilmiy baza bo'lib xizmat qiladi.

Keyinchalik Coleman va hammualliflar tomonidan Turner modeli takomillashtirilib, quduq parametrlarini hisobga olgan holda aniqroq prognoz modellari ishlab chiqilgan. Ular gaz oqimining turbulentslik darajasi va quvur diametrining ta'sirini ham inobatga olgan holda suyuqlik chiqarish sharoitlarini baholash usulini taklif etgan.

Gaz quduqlarida ko'p fazali oqimlar gidrodinamikasi ham suyuqlik yig'ilishi jarayonini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Beggs va Brill tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gaz-suyuqlik oqimlarining turli rejimlari (bubble, slug, annular, mist) aniqlangan va ularning quduq ishlash samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan [3]. Ushbu rejimlar gaz va suyuqlik fazalarining taqsimlanishi hamda ularning harakatlanish xususiyatlari bilan farq qiladi.

Ahmed va Guo tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gaz quduqlarining ishlash samaradorligi qatlam parametrlari, bosim rejimi va flyuid xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi

ko'rsatib berilgan [1, 2]. Ularning ishlarida gaz quduqlarida debitni oshirish va ishlash rejimini optimallashtirish masalalari keng yoritilgan.

Gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosini bartaraf etish uchun turli texnologik usullar ishlab chiqilgan. Brown va Takács ishlarida mexanik usullar, jumladan plunjer-lift va gaz-lift texnologiyalari keng tahlil qilingan [5, 6]. Ushbu usullar quduq ichidagi gidrodinamik sharoitlarni o'zgartirish orqali suyuqlikni quduqdan chiqarishga qaratilgan.

Biroq mexanik usullar har doim ham samarali bo'lmaydi va ular qo'shimcha uskunar hamda yuqori ekspluatatsion xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli so'nggi yillarda kimyoviy usullarga, ayniqsa ko'pik hosil qiluvchi reagentlarga asoslangan texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ko'pik hosil qiluvchi reagentlar asosidagi texnologiyalar Schramm va boshqa tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ko'pik hosil bo'lishi natijasida suyuqlikning effektiv zichligi kamayishi va gaz oqimining uni yuqoriga ko'tarish qobiliyati oshishi isbotlangan. Ko'pik gaz pufakchalarining suyuqlik plyonkalari bilan o'ralgan dispers tizimi bo'lib, u suyuqlikning gidrostatik bosimini kamaytiradi.

Ko'pik texnologiyalarining yana bir muhim jihati ularning qo'llanish osonligi va iqtisodiy samaradorligidir. Ushbu texnologiyalar quduq konstruksiyasini o'zgartirishni talab qilmaydi va past debitli quduqlarda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

So'nggi yillarda ko'pik hosil qiluvchi reagentlarning qattiq shakldagi turlari – shashka texnologiyasi keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyada reagentlar quduqqa qattiq holda tushirilib, quduq sharoitida suyuqlik bilan reaksiyaga kirishib ko'pik hosil qiladi. Bu esa suyuqlik zichligini kamaytirish va uni quduqdan samarali chiqarish imkonini beradi.

Biroq mavjud tadqiqotlarda ko'pik barqarorligi, yuqori minerallashtirilgan suvlarda samaradorlik va reagent tarkibini optimallashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur hisoblanadi.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosi dolzarbligini va uni hal qilish uchun yangi, samarali texnologiyalarni

ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi (liquid loading) muammosini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasini takomillashtirish asosida amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida ko'p fazali oqimlar gidrodinamikasi, gaz oqimining suyuqlikni ko'tarish qobiliyati va suyuqlik zichligini kamaytirish orqali ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda o'rganildi.

Gaz quduqlarida mahsulot harakati gaz va suyuqlik fazalarining bir vaqtda harakatlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda quduq ichida ko'p fazali oqim shakllanadi va uning gidrodinamik xususiyatlari quduq ishlash samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gaz oqimi suyuqlikni quduq bo'ylab yuqoriga ko'tarishi uchun uning tezligi ma'lum minimal qiymatdan yuqori bo'lishi talab etiladi. Ushbu kritik tezlik Turner modeli asosida baholanadi va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_{cr} = C \cdot \left(\frac{\sigma(\rho_l - \rho_g)}{\rho_g^2} \right)^{0.25} \quad (1)$$

bu yerda V_{cr} — kritik gaz tezligi, σ — suyuqlik yuza tarangligi, ρ_l va ρ_g — mos ravishda suyuqlik va gaz zichliklari, C — empirik koeffitsiyentdir. Agar quduqdagi gaz tezligi ushbu kritik qiymatdan past bo'lsa, suyuqlik tomchilari gaz oqimi bilan birga harakatlana olmaydi va quduq tubida to'planadi.

Mazkur tadqiqotda suyuqlik yig'ilishi muammosini hal qilishning asosiy yo'nalishi sifatida suyuqlikning effektiv zichligini kamaytirish usuli tanlandi. Ko'pik hosil bo'lishi natijasida suyuqlik zichligi kamayadi va bu gaz oqimining suyuqlikni yuqoriga ko'tarish qobiliyatini oshiradi. Ko'pik holatidagi suyuqlikning effektiv zichligi quyidagi ifoda orqali baholandi:

$$\rho_{eff} = \rho_l(1 - \phi) \quad (2)$$

bu yerda ϕ — ko'pik tarkibidagi gaz ulushini ifodalaydi. Ko'pik hosil bo'lishi natijasida gidrostatik bosim kamayadi va gaz oqimi suyuqlikni osonlik bilan quduq bo'ylab yuqoriga ko'tara oladi.

Tadqiqot doirasida ko'pik hosil qiluvchi reagentning qattiq shakli — shashka ishlab chiqildi. Ushbu reagent quduqqa tushirilgandan so'ng quduq ichidagi suyuqlik bilan reaksiyaga kirishib ko'pik hosil qiladi. Hosil bo'lgan ko'pik gaz va suyuqlik fazalarining aralashmasidan tashkil topgan bo'lib,

suyuqlikning effektiv zichligini kamaytiradi va uning harakatlanishini yengillashtiradi.

Laboratoriya tadqiqotlari jarayonida ishlab chiqilgan shashka tarkibining ko'pik hosil qilish xususiyatlari o'rganildi. Jumladan, ko'pik hosil bo'lish vaqti, uning barqarorligi, suyuqlik zichligining o'zgarishi va yuqori minerallashtirish muhitdagi samaradorligi baholandi. Tajribalar natijasida ko'pikning barqarorligi va uning uzoq vaqt saqlanishi texnologiya samaradorligida muhim omil ekanligi aniqlandi.

Dala sinovlari gaz quduqlarida amalga oshirilib, texnologiyaning amaliy samaradorligi baholandi. Sinov jarayonida quduqning boshlang'ich debiti aniqlandi, so'ngra shashka quduqqa tushirilib, ma'lum vaqtdan keyin qayta o'lchash ishlari olib borildi. Quduq mahsuldorligining o'zgarishi orqali texnologiya samaradorligi baholandi.

Texnologiya samaradorligi quyidagi ifoda orqali aniqlandi:

$$\eta = \frac{Q_2 - Q_1}{Q_1} \times 100\% \quad (3)$$

bu yerda Q_1 — boshlang'ich debit, Q_2 — texnologiya qo'llanilgandan keyingi debit hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich texnologiyaning amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariy gidrodinamik modellar, laboratoriya tajribalari va dala sinovlarini birlashtirgan holda gaz quduqlarida suyuqlik chiqarish jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasining samaradorligi laboratoriya va dala sharoitida baholandi. Olingan natijalar gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosini bartaraf etishda ushbu texnologiyaning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Laboratoriya tadqiqotlari jarayonida ishlab chiqilgan reagent tarkibining ko'pik hosil qilish xususiyatlari aniqlandi. Tajribalar natijasida ko'pik hosil bo'lish vaqti, uning barqarorligi va suyuqlik zichligiga ta'siri baholandi. Olingan natijalarga ko'ra, taklif etilgan reagent yuqori minerallashtirish muhitda ham barqaror ko'pik hosil qilish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Ko'pik hosil bo'lishi natijasida suyuqlikning

effektiv zichligi sezilarli darajada kamaydi. Laboratoriya natijalari shuni ko'rsatdiki, suyuqlikning boshlang'ich zichligi 1000 kg/m³ bo'lgan holda ko'pik hosil bo'lgandan keyin uning effektiv zichligi 550–650 kg/m³ gacha kamaydi. Bu esa gidrostatik bosimning pasayishiga va gaz oqimining suyuqlikni yuqoriga ko'tarish qobiliyatining oshishiga olib keldi.

Quyida laboratoriya tadqiqotlari natijalari jadval ko'rinishida keltirilgan:

1-jadval

Ko'pik parametrlari va suyuqlik zichligi o'zgarishi

Ko'rsatkich	Qiymat (boshlang'ich)	Qiymat (shashkadan keyin)
Suyuqlik zichligi, kg/m ³	1000	550–650
Ko'pik hosil bo'lish vaqti, sek	–	20–35
Ko'pik barqarorligi, min	–	15–25
Gaz ulushi (φ)	–	0.35–0.45

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ko'pik hosil bo'lishi natijasida suyuqlikning zichligi qariyb 40–45% ga kamaygan. Bu esa Turner modeliga muvofiq kritik gaz tezligining pasayishiga olib keladi va suyuqlikning quduq bo'ylab yuqoriga harakatlanishini osonlashtiradi.

Dala sinovlari bir nechta gaz quduqlarida amalga oshirildi. Sinovlar natijasida quduqlarning debitida sezilarli o'zgarish kuzatildi. Texnologiya qo'llanilishidan oldin va keyingi debit ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

2-jadval

Quduq mahsuldorligi o'zgarishi

Quduq №	Boshlang'ich debit (m ³ /sut)	Keyingi debit (m ³ /sut)	Oshish (%)
1	18 000	22 500	25%
2	12 500	15 800	26%
3	9 800	12 100	23%
4	15 200	19 000	25%

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, quduqlar mahsuldorligi o'rtacha 18–27% ga oshgan. Bu esa shashka texnologiyasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ko'pik hosil qilish orqali suyuqlik zichligini kamaytirish gaz quduqlarida liquid loading muammosini hal qilishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu holat gaz oqimining gidrodinamik parametrlarini yaxshilaydi va quduqning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Shuningdek, taklif etilgan texnologiya

mexanik usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- quduq konstruksiyasini o'zgartirish talab etilmaydi;
- ekspluatatsion xarajatlar past;
- qo'llash soda;
- past debitli quduqlarda ham samarali.

Biroq texnologiyaning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, reagentni muntazam ravishda quduqqa kiritish talab etiladi va yuqori harorat sharoitida ko'pik barqarorligi pasayishi mumkin.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasi gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi muammosini samarali hal qilishga qodir ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi (liquid loading) muammosini bartaraf etishga qaratilgan ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasi takomillashtirildi va uning samaradorligi nazariy, laboratoriya hamda dala tadqiqotlari asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishi asosan gaz oqimining tezligi kritik qiymatdan past bo'lgan sharoitlarda yuzaga keladi va bu holat quduq mahsuldorligining pasayishiga olib keladi. Turner modeli asosida olib borilgan tahlillar suyuqlikni samarali chiqarish uchun gaz oqimining minimal tezligini ta'minlash muhim ekanligini tasdiqladi.

Ishlab chiqilgan ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasi suyuqlikning effektiv zichligini kamaytirish orqali ushbu muammoni hal qilish imkonini berdi. Laboratoriya tadqiqotlari natijasida suyuqlik zichligi 35–45% ga kamayishi, ko'pik barqarorligining yuqori ekanligi va minerallashtirish muhitda ham samaradorlik saqlanishi aniqlandi.

Dala sinovlari natijalari esa texnologiyaning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Quduq mahsuldorligi o'rtacha 18–27% ga oshganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar taklif etilgan texnologiyaning yuqori samaradorligini va uni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari gaz quduqlarida suyuqlik to'planishi quduq mahsuldorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Suyuqlik zichligini kamaytirish va ko'pik hosil qiluvchi reagentlardan foydalanish gaz oqimining suyuqlikni ko'tarish qobiliyatini oshirib, quduqning samarali

ishlashini ta'minlaydi. O'tkazilgan tajribalar ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasining ayniqsa past debitli quduqlarda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, mazkur usul iqtisodiy jihatdan maqbulligi, amaliy qo'llashning soddaligi va gaz quduqlarining barqaror ishlashini

ta'minlashi bilan ajralib turadi. Kelgusida texnologiyani yuqori harorat va bosim sharoitlarida qo'llash hamda reagent tarkibini yanada takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Ahmed, T. (2010). Reservoir engineering handbook (4th ed.). Gulf Publishing Company.
- [2] Guo, B., Lyons, W., & Ghalambor, A. (2007). Petroleum production engineering. Elsevier.
- [3] Beggs, H. D., & Brill, J. P. (1991). Two-phase flow in pipes. PennWell Publishing.
- [4] Turner, R. G., Hubbard, M. G., & Dukler, A. E. (1969). Analysis and prediction of minimum flow rate for continuous removal of liquids from gas wells. *Journal of Petroleum Technology*, 21(11), 1475–1482.
- [5] Takács, G. (2005). Gas lift manual. PennWell Books.
- [6] Brown, K. E. (1984). The technology of artificial lift methods. PennWell Publishing.
- [7] Lea, J. F., Nickens, H. V., & Wells, M. R. (2008). Gas well deliquification. Gulf Professional Publishing.
- [8] Economides, M. J., & Hill, A. D. (1994). Petroleum production systems. Prentice Hall.
- [9] Schramm, L. L. (1994). Foams: Fundamentals and applications in the petroleum industry. American Chemical Society.
- [10] Khatib, Z. I., & Hirasaki, G. J. (1988). Foam flow in porous media. *SPE Journal*, 28(6), 919–927.
- [11] Coleman, S. B., Clay, H. B., & McCurdy, D. G. (1991). A new look at predicting gas well load-up. *Journal of Petroleum Technology*, 43(3), 329–333.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Rustamov, M. M. (2026). Gaz quduqlarida suyuqlik yig'ilishini kamaytirish uchun ko'pik hosil qiluvchi shashka texnologiyasini takomillashtirish. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.21>

UO‘K: 532.57

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.3

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

SMART CHANNEL QURILMASINING SEZUVCHANLIGI VA MINIMAL SUV SARFINI EKSPERIMENTAL BAHOLASH



**Otaxonov Maqsud
Yusufovich**

“Smart Solution System” MCHJ
laboratoriya mudiri, dotsent,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: maksud.otakhonov@bk.ru
ORCID ID: 0000-0003-3969-4436
Science ID: FJZ-0525-0015



**Zokirov Ilhomjon
Bahtiyor o‘g‘li**

PhD doktorant, TIQXMMI Milliy
tadqiqot universiteti, Toshkent,
O‘zbekiston
E-mail:
ilhomjonzokirov1@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-9672-3987
Science ID: MNM-0525-0011



**Arifjanov Alisher
Abdullayevich**

Mustaqil izlanuvchi, “O‘zbekiston
Milliy Metrologiya Instituti” Davlat
Muassasasi, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: alisher@nim.uz
ORCID ID: 0009-0003-9552-050X
Science ID: FTN-0426-0086



**Azizov Khurshid
Abduxamidovich**

Mustaqil izlanuvchi, “O‘zbekiston
Milliy Metrologiya Instituti” Davlat
Muassasasi, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail:
xurshidazizov002@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-9290-2533
Science ID: MTN-0426-0047

Annotatsiya. Ushbu maqolada ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchash uchun mo‘ljallangan “Smart Channel” qurilmasining sezuvchanligi va minimal suv sarfi eksperimental usulda baholangan. Tadqiqotning dolzarbligi sug‘orish tizimlarida suv resurslarini oqilona boshqarish, suv hisobini aniq yuritish va kichik sarflarni ishonchli qayd etish zarurati bilan izohlanadi. Tajribalar Toshkent viloyati Quyichirchiq tumanida joylashgan “Smart Solution System” MCHJning “Gidravlika va gidrometriya” laboratoriyasida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida 60×60 sm o‘lchamdagi “Smart Channel” qurilmasi namunasi qabul qilindi. Qurilmaning ishlash prinsipi tezlik–maydon usuliga asoslangan bo‘lib, suv sarfi oqimning o‘rtacha tezligi va tirik kesim yuzi orqali aniqlanadi. Tajriba natijalari 60×60 sm o‘lchamdagi “Smart Channel” qurilmasi namunasi uchun o‘rtacha sezuvchanlik chegarasi 0,45 sm/s ga teng ekanini, minimal qayd etilgan suv sarfi esa 0,269 l/s ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Qurilmaning o‘lchash aniqligi namunaviy elektromagnit sarf o‘lchagich hamda hajmiy usul bilan taqqoslash orqali baholandi. Natijalarga ko‘ra, “Smart Channel” qurilmasining xatoligi namunaviy sarf o‘lchash vositasiga nisbatan +2,47 % dan -2,48 % gacha, hajmiy usulga nisbatan esa +2,43 % dan -2,47 % gacha oraliqda o‘zgargan. Olingan ma‘lumotlar “Smart Channel” qurilmasi kichik suv sarflarini qayd etish va ochiq o‘zanlarda suv hisobini yuritishda amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan qurilma ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari qurilmaning minimal suv sarfini asoslash, sezuvchanlik chegarasini aniqlash va qiyoslash metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Smart Channel, ochiq o‘zan, suv sarfi, minimal suv sarfi, sezuvchanlik, tezlik–maydon usuli, qiyoslash, elektromagnit sarf o‘lchagich, hajmiy usul, o‘lchash xatoligi.

Received: 05.04.2026

Accepted: 11.04.2026

Published: 29.06.2026

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ УСТРОЙСТВА SMART CHANNEL И МИНИМАЛЬНОГО РАСХОДА ВОДЫ

**Отахонов Максуд
Юсуфович**

ООО «Smart Solution System»,
заведующий лабораторией,
доцент, Ташкент, Узбекистан

**Зокиров Илхомжон
Бахтиёр угли**

PhD докторант, Национальный
исследовательский университет
ТИИМХ, Ташкент, Узбекистан

**Арифжанов Алишер
Абдуллаевич**

Независимый исследователь,
Государственное учреждение
«Национальный институт
метрологии Узбекистана»,
Ташкент, Узбекистан

**Азизов Хуршид
Абдухамидович**

Независимый исследователь,
Государственное учреждение
«Национальный институт
метрологии Узбекистана»,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье экспериментальным методом оценены чувствительность и минимальный расход воды устройства «Smart Channel», предназначенного для измерения расхода воды в открытых руслах. Актуальность исследования обусловлена необходимостью рационального управления водными ресурсами в оросительных системах, обеспечения точного учёта воды и надёжной регистрации малых расходов. Экспериментальные исследования проводились в лаборатории «Гидравлика и гидрометрия» ООО «Smart Solution System», расположенной в Куйичирчикском районе Ташкентской области. В качестве объекта исследования был выбран образец устройства «Smart Channel» с размерами 60×60 см. Принцип работы устройства основан на методе «скорость–площадь», при котором расход воды определяется через среднюю скорость потока и площадь живого сечения. Результаты экспериментов показали, что для образца устройства «Smart Channel» размером 60×60 см средний порог чувствительности составляет 0,45 см/с, а минимально зарегистрированный расход воды — 0,269 л/с. Точность измерений устройства оценивалась путём сравнения с эталонным электромагнитным расходомером, а также объёмным методом. Согласно полученным результатам, погрешность устройства «Smart Channel» относительно эталонного расходомера составляет от +2,47 % до -2,48 %, а относительно объёмного метода — от +2,43 % до -2,47 %. Полученные данные подтверждают, что устройство «Smart Channel» может быть эффективно использовано для регистрации малых расходов воды и ведения учёта воды в открытых руслах. Результаты исследования создают научную основу для обоснования минимального расхода воды, определения порога чувствительности и совершенствования методики калибровки устройства.

Ключевые слова: Smart Channel, открытое русло, расход воды, минимальный расход воды, чувствительность, метод «скорость–площадь», сравнение, электромагнитный расходомер, объёмный метод, погрешность измерения.

EXPERIMENTAL ASSESSMENT OF THE SENSITIVITY OF THE SMART CHANNEL DEVICE AND THE MINIMUM WATER DISCHARGE

**Otakhonov Maqsud
Yusufovich**

“Smart Solution System” LLC,
Head of Laboratory, Associate
Professor, Tashkent, Uzbekistan

**Zokirov Ilhomjon
Bakhtiyor ugli**

PhD Doctoral Student, TIAME
National Research University,
Tashkent, Uzbekistan

**Arifjanov Alisher
Abdullayevich**

Independent Researcher, “National
Institute of Metrology of
Uzbekistan”, Tashkent, Uzbekistan

**Azizov Khurshid
Abduxamidovich**

Independent Researcher, “National
Institute of Metrology of
Uzbekistan”, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In this study, the sensitivity and minimum water discharge of the “Smart Channel” device, designed for measuring flow in open channels, were experimentally evaluated. The relevance of the research is justified by the need for rational water resource management in irrigation systems, accurate water accounting, and reliable detection of low discharges. The experiments were conducted in the “Hydraulics and Hydrometry” laboratory of “Smart Solution System” LLC, located in the Kuyichirchik district of the Tashkent region. A 60×60 sm prototype of the “Smart Channel” device was selected as the research object. The operating principle of the device is based on the velocity–area method, where discharge is determined using the average flow velocity and the cross-sectional area. The experimental results showed that for the 60×60 sm “Smart Channel” device, the average sensitivity threshold is 0.45 sm/s, while the minimum recorded discharge is 0.269 L/s. The measurement accuracy of the device was

evaluated by comparison with a reference electromagnetic flow meter and the volumetric method. According to the results, the error of the "Smart Channel" device ranged from +2.47% to -2.48% relative to the reference flow meter, and from +2.43% to -2.47% relative to the volumetric method. The obtained results confirm that the "Smart Channel" device can be effectively applied for measuring low discharges and maintaining water accounting in open channels. The findings provide a scientific basis for determining the minimum measurable discharge, defining the sensitivity threshold, and improving calibration methodologies.

Keywords: Smart Channel, open channel, water discharge, minimum discharge, sensitivity, velocity–area method, comparison, electromagnetic flowmeter, volumetric method, measurement error.

Kirish. Suv inson hayoti, sog‘liqni saqlash, sanitariya, iqtisodiy faoliyat va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning asosiy tabiiy resurslaridan biridir. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, suv barqaror rivojlanishning markazida turadi hamda oziq-ovqat va energiya ishlab chiqarish, sog‘lom ekotizimlar va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Suv yetarli bo‘lmagan sharoitda aholi salomatligi, ishlab chiqarish jarayonlari va oziq-ovqat xavfsizligi izdan chiqadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida suv ekinlarning o‘sishi, hosildorlik darajasi va mahsulot sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. FAO va HLPE materiallarida suv oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishning tayanch omili ekani alohida ta‘kidlanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda suv resurslariga bosim kuchayib bormoqda. UN-Water ma‘lumotiga ko‘ra, suv tanqisligi barcha qit‘alarda ortib borayotgan muammo bo‘lib, bunga aholi sonining ko‘payishi, iqlim o‘zgarishi, suvga talabning oshishi va mavjud resurslarning cheklanganligi sabab bo‘lmoqda. FAO hisobotida 3,2 milliard kishi yuqori yoki juda yuqori suv tanqisligi kuzatiladigan qishloq xo‘jaligi hududlarida yashashi qayd etilgan. Bunday sharoitda suvdan samarasiz foydalanish nafaqat tabiatga, balki global oziq-ovqat ta‘minotiga ham bevosita xavf tug‘diradi [1,2].

Sug‘oriladigan dehqonchilik suv resurslarining eng yirik iste‘molchilaridan biri bo‘lib, aynan shu tarmoqda suvni oqilona boshqarish masalasi eng dolzarb hisoblanadi. FAO suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun suv boshqaruvini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va monitoringni kuchaytirish zarurligini qayd etadi. Suvni aniq o‘lchamasdan turib uni adolatli taqsimlash, yo‘qotishlarni aniqlash, ortiqcha sarfni kamaytirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul

qilish qiyin. Shu sababli sug‘orish tizimlari, suv olish nuqtalari va ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchash qurilmalarini o‘rnatish bugungi kunda zaruratga aylanmoqda [3,4].

Bunday qurilmalar suv sarfini real vaqt rejimida nazorat qilish, suv taqsimotidagi nomutanosibliklarni aniqlash, yo‘qotishlarni kamaytirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, ochiq o‘zanlarda qo‘llaniladigan zamonaviy raqamli qurilmalar suv resurslarini tejash, qishloq xo‘jaligida barqaror hosildorlikni ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ochiq o‘zanlarda suv sarfini aniq o‘lchashga xizmat qiluvchi qurilmalarni ishlab chiqish, joriy etish va ularning qiyoslash metodikasini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchashga oid adabiyotlar va normativ hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud yondashuvlarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga Parshall, SANIIRI, Tomson, Chipoletti va shunga o‘xshash gidravlik inshootlar asosidagi o‘lchash vositalari kiradi. Ikkinchi guruhga esa ichimlik suvi uchun ishlab chiqilgan, yopiq quvurlarda ishlovchi suv hisoblagichlari kiradi. Birinchi guruhdagi qurilmalarda sarf odatda inshoot geometriyasi va napor balandligi asosida aniqlansa, ikkinchi guruhdagi hujjatlar minimal, o‘tuvchi, nominal va maksimal sarflarni aniq metrologik ko‘rsatkichlar sifatida Q_1 , Q_2 , Q_3 va Q_4 ko‘rinishida belgilaydi [5,6].

Parshall va SANIIRI lotoklari bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlardan biri ISO 9826:1992 bo‘lib, u ochiq kanallarda Parshall va SANIIRI lotoklari yordamida suyuqlik sarfini o‘lchash usullarini belgilaydi. Mazkur standartda lotok turini tanlashda sarf diapazoni, mavjud napor, modul chegarasi,

maksimal ko‘milish darajasi, kanal tavsifi, ruxsat etilgan energiya yo‘qotishi va talab etilgan aniqlik kabi omillar hisobga olinishi ko‘rsatilgan. Demak, Parshall va SANIIRI turidagi qurilmalarda sarfni aniqlashning asosiy mantig‘i standartlashtirilgan geometriya va bosh o‘lchoviga tayangan reyting bog‘lanishiga asoslanadi [7,8,9].

Parshall lotogi bo‘yicha amaliy qo‘llanmalarda ham minimal sarf masalasi boshni o‘lchashdagi ishonchlilik bilan bog‘langan. Amaliy jadvallar odatda ma‘lum eng kichik bosh qiymatlaridan boshlab beriladi; bu kichik bosh zonalarida o‘lchash noaniqligi ortishini anglatadi. Shu bois klassik napor-asosli qurilmalarda minimal sarf ko‘pincha nazariy nolga yaqin oqim emas, balki ruxsat etilgan xatolik bilan ishonchli qayd etiladigan eng kichik sarf sifatida talqin qilinadi [10,11].

Tomson va boshqa yupqa devorli suv o‘tkazgichlar bo‘yicha asosiy xalqaro tayanch hujjat ISO 1438:2017 hisoblanadi. Ushbu standart ochiq o‘zanlarda to‘g‘ri to‘rtburchak va uchburchak yupqa devorli suv o‘tkazgichlar yordamida tiniq suv sarfini o‘lchash talablarini belgilaydi. Standart erkin oqim sharoitiga, ventilatsiyaga, boshni o‘lchash nuqtasining to‘g‘ri tanlanishiga va o‘lchash aniqligiga alohida talab qo‘yadi. Tomson suv o‘tkazgichi amalda uchburchak notchli yupqa devorli suv o‘tkazgichlar sinfiga kirgani uchun uning metrologik tavsifi ham bosh o‘lchovi aniqligiga bevosita bog‘liqdir [12,13].

Chipoletti suv o‘tkazgichi bo‘yicha alohida ISO standarti keng tarqalmagan bo‘lsa-da, amaliy qo‘llanmalarda u yupqa devorli suv o‘tkazgichlar nazariyasi doirasida ko‘riladi. Bunday qurilmalarda ham minimal sarf va sezuvchanlik masalasi kichik boshlarni o‘lchash, erkin oqimni saqlash va geometrik shartlarni bajarish bilan belgilanadi. Shuning uchun Tomson va Chipoletti turidagi inshootlarda minimal sarfning quyi chegarasi asosan naporni ishonchli o‘lchash imkoniyati bilan aniqlanadi.

MDH amaliyotida ochiq o‘zan o‘lchovlari uchun MI 2406-97 tavsiyasi muhim o‘rin tutadi. Mazkur hujjat Venturi, lotok va boshqa standart suv o‘lchash inshootlari uchun Q_{max} va Q_{min} kabi ko‘rsatkichlardan foydalanilishini nazarda tutadi. Hujjatning metodologik ahamiyati shundaki, unda ochiq o‘zanlar uchun ham yuqori va pastki ishchi sarf chegaralarini alohida metrologik parametrlar

sifatida ko‘rish zarurligi aks etadi [14].

Ichimlik suvi hisoblagichlari bo‘yicha yondashuv esa ancha formalashgan. OIML R 49-1:2024 va ISO 4064-1:2014 hujjatlarida suv hisoblagichning oqim tavsifi Q_1 , Q_2 , Q_3 va Q_4 qiymatlari bilan belgilanishi ko‘rsatilgan. Bu yerda Q_1 -minimal sarf, Q_2 -o‘tuvchi sarf, Q_3 - doimiy yoki nominal ishga yaqin sarf, Q_4 -ortiqcha yuklama sarfi hisoblanadi. Ushbu hujjatlar odatda $Q_2 = 1.6Q_1$ va $Q_4 = 1.25Q_3$ nisbatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, suv hisoblagichining metrologik tavsifi ko‘pincha Q_3/Q_1 nisbati orqali ifodalanadi. GOST tizimidagi ichimlik suvi hujjatlari ham shu yondashuvga yaqin. GOST R 50193.1-92 sovuq ichimlik suvi hisoblagichlari uchun texnik va metrologik tavsiflarni, GOST R 50193.2-92 esa o‘rnatish talablarini belgilaydi. GOST 8.156-83 hujjatida esa sovuq suv hisoblagichlarini qiyoslash usullari va vositalari ko‘rsatilgan. Garchi bu hujjatlar “Smart Channel” qurilmasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etilmasa ham, ulardagi asosiy metodologik g‘oya — qurilmani minimal, o‘tuvchi, nominal va maksimal ish nuqtalarida tekshirish — “Smart Channel” qiyoslash metodikasiga moslashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ochiq o‘zanlardagi klassik qurilmalarning katta qismi — Parshall, SANIIRI, Tomson, Chipoletti va ularga o‘xshash inshootlar — asosan naporni o‘lchash orqali suv sarfini aniqlaydi. Bunday yondashuvda erkin oqim, standart geometriya, yuqori va quyi sathlar nisbati hamda boshni yetarli aniqlikda o‘lchash imkoniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli bunday qurilmalar ko‘milgan rejim, naporning yetishmasligi, erkin oqimning buzilishi yoki o‘zan geometrik sharoitlari o‘zgaradigan holatlarda cheklanishlarga duch kelishi mumkin.

“Smart Channel” qurilmasining asosiy farqi shundaki, unda suv sarfi napor bo‘yicha emas, balki tezlik va tirik kesim yuzi asosida aniqlanadi, ya‘ni $Q = \omega \cdot \vartheta$. Bu yondashuv napor-asosli klassik inshootlarga qaraganda boshqacha metrologik asos yaratadi: qurilmaning sezuvchanligi bosh o‘lchovining quyi chegarasiga emas, balki minimal o‘lchanadigan tezlik, minimal ishchi sath va kesimni aniqlash aniqligiga bog‘lanadi. Shu sababli “Smart Channel” uchun qiyoslash metodikasida minimal suv sarfi ikkita darajada qaralishi kerak: birinchisi — minimal tezlik va minimal sathdan kelib chiqadigan nazariy pastki chegara, ikkinchisi

— etalon bilan taqqoslash natijasida ruxsat etilgan xatolik doirasida aniqlanadigan metrologik minimal sarf.

Shunday qilib, adabiyotlar va normativ hujjatlar tahlili “Smart Channel” qurilmasining minimal suv sarfi va sezuvchanligini asoslash uchun quyidagi metodologik zaminni beradi: klassik napor-asosli qurilmalardan-pastki ishonchli o‘lchash chegarasi tushunchasi, ichimlik suvi hisoblagichlaridan esa minimal, o‘tuvchi, nominal va maksimal ish nuqtalarida qiyoslash tamoyili olinishi lozim. Aynan shu yondashuv “Smart Channel” qurilmasi uchun ilmiy asoslangan qiyoslash metodikasini ishlab chiqish va uning minimal suv sarfini aniqlashga xizmat qiladi.

Material va metodlar. Tadqiqotlar Toshkent viloyati quyichirchiq tumanida joylashgan “Smart Solution System” MCHJ ning “Gidravlika va gidrometriya” laboratoriyasida olib borildi. Laboratoriya asosan 5 ta qismdan iborat bo‘lib, 1-zaxira suv rezervuaru, 2-nasos, 3-naporli suv rezervuari, 4-taqsimlash kanali, 5-“Smart Channel” qurilmasi o‘rnatish joyi, 6-suv hajmini aniqlash rezervuaridan iborat. Ushbu laboratoriya asosan gidravlik tajribalar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “Smart Channel” suv sarfini olchash qurilmasini sinashda va qiyoslashda foydalaniladi (1-rasm).



1-rasm. Laboratoriyadagi kanallarining sxematik ko‘rinishi.

Laboratoriyaning 3-naporli suv rezervuaridan 4-taqsimlash kanaliga suv diametri $d=600$ mm bo‘lgan dyuker orqali oqib o‘tadi. Aynan ushbu dyukerga DN=600 bo‘lgan elektromagnitli sarf o‘lchagich o‘rnatilgan. Elektromagnitli sarf

o‘lchagichning xatoligi $\pm 0,5\%$ ni tashkil etadi. Ushbu elektromagnitli sarf o‘lchagichdan namunaviy sarf o‘lchash vositasi sifatida foydalaniladi. Ya’ni, namunaviy sarf o‘lchash vositasidan suv miqdori o‘zgarmsdan “Smart Channel” qurilmasidan ham oqib o‘tadi. Ikkala suv sarfi qiyoslanib xatoligi aniqlanadi.

Tadqiqotlarning ishonchliligini oshirish maqsadida, laboratoriyaga 6-suv hajmini aniqlash rezervuari qurilgan. “Smart Channel” qurilmasidan oqib o‘tgan suv miqdori o‘zgarmsdan rezervuarga quyiladi. Ushbu rezervuar yordamida, hajmiy usulda suv sarfi aniqlanadi. Rezervuar prizmatik shaklida bo‘lib, ishchi hajmi 200 m^3 ni tashkol etadi. Rezervuarga suv sathini yuqori aniqlikda o‘lchovchi ultratovushli sath o‘lchash datchiklari qo‘yilgan. Sath o‘lchash datchiklari yuborgan ma’lumotlar, yaratilgan algoritim va dasturiy ta’minot asosida, rezervuardagi suv hajmi avtomatik ravishda aniqlanadi.

Tajriba obyekti. Tajriba obyekti sifatida “Smart Channel” suv sarfini o‘lchash qurilmasining balandligi va eni 60×60 sm bo‘lgan namunasi tanlab olindi (2-rasm).



a) Old ko‘rinishi

b) Orqa ko‘rinishi

2-rasm. “Smart Channel” qurilmasining umumiy ko‘rinishi.

“Smart Channel” qurilmalari ochiq ozanlardagi suv sarfini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Undan asosan sug‘orma dehqonchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanuvchi Fermer xo‘jaliklarining suv olish nuqtalariga o‘rnatiladi. Shu bilan bir qatorda kichik irrigatsiya kanallariga ham o‘rnatiladi. Sanoat korxonalaridan oqib chiqayotgan oqava suvlarni ham hisobini yuritishda foydalaniladi. “Smart Channel” qurilmasi asosan suv o‘tkazish korpusi va saqlovchi shkafdan iborat. Suv o‘tkazish korpusi materiali po‘latdan bolib, zanglashga qarshi

ishlov berilgan. Suv o'tkazish korpusiga suv tezligi, sathini o'lchash uchun ultratovushli datchiklari va suv sarfini boshqarish zatvori o'rnatilgan. Qurilmaning saqlovchi shkafi ishiga ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, masofadan yuborish datchik va chiplar, elektr energiyasi uchun akkumlyator o'rnatilgan. Yuqori qismiga quyosh paneli o'rnatilgan. "Smart Channel" qurilmasiga o'rnatilgan akkumlyator va uni elektr energiyasi bilan to'yintiruvchi quyosh panelining o'rnatilishi natijasida markaziy elektr tarmog'iga umuman ehtiyoj sezilmaydi.

Tajriba olib borish uslubi. Tajribalarni olib borishda gidravlika va gidrometriyada yo'nalishida umumqabul qilingan uslublardan foydalanildi. Tajriba olib borish jarayonida, "Smart Channel" qurilmasining sezuvchanligi va minimal suv sarfini baholash asosiy maqsad qilib olindi. Laboratoriyada olib borilgan tajribalar quyidagi ketma-ketlikda olib borildi:

1) Tanlab olingan "Smart Channel" qurilmasi laboratoriyaning sinov uchun o'rnatish joyiga (5) ga o'rnatildi;

2) Nasos tizimi (2) ishga tushirildi;

3) Namunaviy suv o'lchash vositasi ishga tushirildi;

4) Suv hajmini aniqlash rezervuari (6) ishga tushirildi.

Tajribalarning har bir bosqichida suv sathi va sarfining o'zgarishligi boshqaruv zatvorlari yordamida ta'minlandi. Tajribalarning dastlabki bosqichida "Smart Channel" qurilmasi sezuvchanligi aniqlandi. Keyingi bosqichida minimal suv sarfini aniqlash imkoniyti baholandi.

"Smart Channel" suv sarfini o'lchash qurilmasi tezlik maydon usulida ishlaydi va suv sarfini hisoblaydi. Suv tezligini o'lchash datchiklari minimal tezlik $v_{\min}=0,5$ sm/s va maksimal tezlik $v_{\max}=500$ sm/s qiymatlarida yuqori aniqlikda ishlaydi deb hisoblanadi. "Smart Channel" suv sarfini o'lchash qurilmasi kengligi b , suv chuqurligi h_w , maksimal suv chuqurligi h_{\max} va uzunligi L deb belgilab olindi. Qurilmaga o'rnatilgan tezlik datchiklarning har biri 10-13 sm chuqurlikni qamrab oladi. Shunga ko'ra minimal suv sarfiga to'g'ri keladigan suv chuqurligi $h_w=10-13$ sm oralig'ida qabul qilindi. Qurilmadan o'tayotgan suv sarfi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Q_s = \omega_s \cdot v_s \quad (1)$$

$$\omega_s = b \cdot h_w \quad (2)$$

$$h_w = 10 - 13 \text{ cm} \quad (3)$$

bu yerda: Q_s - "Smart Channel" qurilmasidan o'tayotgan suv sarfi, ω_s - "Smart Channel" qurilmasidan o'tayotgan suv oqimining ko'ndalang kesim yuzasi, h_w - "Smart Channel" qurilmasidan o'tayotgan suv oqimining chuqurligi.

"Smart Channel" qurilmasi yuqorida keltirilgan (1) va (2) formulalar yordamida suv sarfini aniqlaydi. Buning uchun dasturiy ta'minot yaratilgan bo'lib ma'lumotlar avtomatik ko'rsatib boriladi.

Namunaviy suv sarfini o'lchash vositasidan o'tayotgan suv sarfi ham tezlik maydon usuliga asoslangan bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Q_n = \omega_n \cdot v_n \quad (4)$$

$$\omega_n = \frac{\pi D^2}{4} \quad (5)$$

bu yerda: Q_n -namunaviy suv sarfini o'lchash vositasidan o'tayotgan suv sarfi, ω_n -namunaviy suv sarfini o'lchash vositasidan oqib o'tayotgan suv oqimining ko'ndalang kesim yuzasi, D - namunaviy suv sarfini o'lchash vositasining ichki diametri ($D = 600$ mm).

Suv saqlash rezervuariga quyilgan suv hajmidan kelib chiqib suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_r = \frac{V}{t} \quad (6)$$

$$V = \Omega_r \cdot h_r \quad (7)$$

$$\Omega_r = B \cdot S \quad (8)$$

bu yerda: Q_r -rezervuarga tushayotgan suv sarfi, V -rezervuardagi suv hajmi, Ω_r -rezervuar asosining yuzasi, h_r -rezervuardagi suv chuqurligi, B va S rezervuar asosining tomonlari.

"Smart Channel" qurilmasi ko'rsatgan suv sarfi va namunaviy sarf o'lchash vositasidan o'tayotgan suv sarfi xatoligi quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$\Delta Q_{sn} = \frac{Q_s - Q_n}{Q_s} \cdot 100\% \quad (9)$$

"Smart Channel" qurilmasi ko'rsatgan suv sarfi va suv hajmini aniqlash rezervuariga tushayotgan suv sarflari orasidagi xatoligi quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$\Delta Q_{sr} = \frac{Q_s - Q_r}{Q_s} \cdot 100\% \quad (10)$$

Natija va muhokama. Tajribaning dastlabki bosqichida "Smart Channel" qurilmasining sezuv-


chanligini aniqlash masalasida tadqiqotlar olib borildi. Suv chuqurligi 10 dan 50 sm gacha hamda tezlikning 0,1 dan 0,5 sm/s gacha bo'lgan qiymatlarida tajribalar olib borildi. Olib borilgan tajriba natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

Olib borilgan tajribalar davomida "Smart Channel" qurilmasida suv chuqurligi 10,2 sm bo'lganda, tezlik 0,44 sm/s, suv chuqurligi 21,3 sm bo'lganda, tezlik 0,46 sm/s, suv chuqurligi 30,2 sm bo'lganda, tezlik 0,45 sm/s, suv chuqurligi 40,7 sm bo'lganda, tezlik 0,44 sm/s, suv chuqurligi 51,7 sm bo'lganda, tezlik 0,47 sm/s qiymatlarini ko'rsatdi. Undan kichik tezliklarni ko'rsatmadi va suv sarfi aniqlanmadi. Chuqurliklar bo'yicha o'rtacha tezlik qiymati 0,45 sm/s ni tashkil etdi. Hisoblash natijalariga ko'ra bir soatdagi suv sarfi har bir chuqurli uchun aniqlandi va quyidagi chiziqli bog'lanish olindi (3-rasm).

1-jadval

Smart Channel qurilmasining sezuvchanligini aniqlash bo'yicha eksperimental natijalar

№	Qurilmaning o'lchamlari va suv chuqurligi			Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining ko'ndalang kesim yuzasi ω_n, sm^2	Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining o'rtacha tezligi $\vartheta_n, \text{sm/s}$	Qurilmadan o'tayotgan suv sarfi $Q_n, \text{l/s}$	Bir soatdagi qurilmadan oqib o'tgan suv sarfi $Q_h, \text{m}^3/\text{s}$
	b	h	h_w				
1	60	60	10,2	612	0,44	0,269	0,969
2	60	60	21,3	1278	0,46	0,588	2,116
3	60	60	30,2	1812	0,45	0,815	2,935
4	60	60	40,7	2442	0,44	1,074	3,868
5	60	60	51,7	3102	0,47	1,458	5,249
O'rtacha qiymat					0,45		



3-rasm. "Smart Channel" qurilmasining chuqurliklar bo'yicha sezuvchanlik sarfi qiymatining o'zgarishi garfigi.

Olingan natijalar matematika va ststistika uslublarida tahlil qilinib, "Smart Channel" qurilmasining 60x60 sm o'lchamidagi sezuvchanlik sarfini aniqlash bo'yicha quyidagi formula ishlab chiqildi.


$$Q_h = 10,008h_w - 0,008 \quad (11)$$

Tadqiqotlarning keying bosqichida "Smart Channel" qurilmasining o'lchash xatoligini aniqlash bo'yicha tajribalar olib borildi. Qurilmadan o'tayotgan suv chuqurligining 10,1 dan 53,3 sm gacha, oqim tezligining 0,50 dan 0,59 sm/s gacha bo'lgan qiymatlarida tajribalar olib borildi. Qurilmaning o'lchash imkoniyati namunaviy o'lchash qurilmasi sarfi bilan taqqoslandi. Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval):

2-jadval

"Smart Channel" qurilmasining o'lchash xatoligini aniqlash jadvali

№	Qurilmaning o'lchamlari va suv chuqurligi			Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining ko'ndalang kesim yuzasi ω_n, sm^2	Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining o'rtacha tezligi $\vartheta_n, \text{sm/s}$	Qurilmadan o'tayotgan suv sarfi $Q_n, \text{l/s}$	Namunaviy suv sarfini o'lchash vositasi ko'rsatkichi $Q_n, \text{l/s}$	Xatolik qiymati $\Delta Q_n, \%$
	b	h	h_w					
1	60	60	11,3	678	0,51	0,346	0,340	1,67
2	60	60	10,1	606	0,52	0,315	0,311	1,31
3	60	60	12,5	750	0,51	0,383	0,392	-2,48
4	60	60	11,2	672	0,53	0,356	0,351	1,45
5	60	60	10,7	642	0,57	0,366	0,374	-2,20
6	60	60	20,1	1206	0,58	0,699	0,695	0,64
7	60	60	20,3	1218	0,59	0,719	0,722	-0,47
8	60	60	20,5	1230	0,51	0,627	0,635	-1,23
9	60	60	21,4	1284	0,53	0,681	0,672	1,25
10	60	60	22,7	1362	0,52	0,708	0,725	-2,37
11	60	60	29,8	1788	0,56	1,001	1,026	-2,47
12	60	60	30,2	1812	0,51	0,924	0,935	-1,18
13	60	60	30,7	1842	0,52	0,958	0,941	1,76
14	61	61	31,5	1921,5	0,56	1,076	1,055	1,96
15	62	62	30,9	1915,8	0,54	1,035	1,057	-2,17
16	63	63	39,8	2507,4	0,55	1,379	1,368	0,80
17	64	64	40,5	2592	0,57	1,477	1,441	2,47
18	65	65	40,3	2619,5	0,51	1,336	1,367	-2,32
19	66	66	40,9	2699,4	0,50	1,350	1,379	-2,17
20	67	67	41,8	2800,6	0,58	1,624	1,613	0,70
21	68	68	49,7	3379,6	0,51	1,724	1,705	1,08
22	69	69	50,6	3491,4	0,50	1,746	1,785	-2,25
23	70	70	50,3	3521	0,50	1,761	1,747	0,77
24	71	71	50,2	3564,2	0,52	1,853	1,847	0,34
25	72	72	51,3	3693,6	0,53	1,958	1,975	-0,89



4-rasm. "Smart Channel" qurilmasining o'lchash xatoligini ko'rsatuvchi grafik.

Olib borilgan tajribalar natijalari tahlil etildi. Tahlilga ko'ra, "Smart Channel" qurilmasi va namunaviy sarf o'lchash qurilmasi o'rtasidagi xatoliklar + va - ishoralarda qayd etildi. Bu shuni anglatadiki + ishorali xatoliklarda "Smart Channel" qurilmasi sarfi ko'proq, - ishorali xatoliklarda esa

kamroq suv sarfini ko'rsatmoqda. Xatolikning eng kichik qiymati 0,34% bo'lgan bo'lsa, eng yuqori qiymati -2,48% ni tashkil etdi. Suv chuqurligi bo'yicha xatolik qiymatlari tahlil etildi va quyidagi bog'lanish olindi (4-rasm).

Tadqiqotlarning ishonchliligini ortirish maqsadida hajmiy usulda ham tajribalar olib borildi. "Smart Channel" qurilmasi ustida olib borilayotgan tajribalar davomida namunaviy sarf o'lchash vositasi bilan bir vaqtda hajmiy usulda ham tajribalar olib borildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, namunaviy sarf o'lchash vositasidan o'tayotgan suv sarfi o'zgarimasdan "Smart Channel" qurilmasi o'tadi va suv hajmini aniqlash rezervuariga quyiladi. Suv saqlash rezervuariga tushayotgan suv sarfi hajmiy usulda aniqlanadi. Hajmiy usulda aniqlanadigan suv sarfi formulalari yuqorida (6), (7), (8) keltirilgan bo'lib, yaratilgan dasturiy ta'minot yordamida avtomatik hisoblab boriladi. Hajmiy usulda olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval


"Smart Channel" qurilmasining o'lchash xatoligini aniqlash jadvali

№	Qurilmaning o'lchamlari va suv chuqurligi			Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining ko'ndalang kesim yuzasi	Qurilmadan oqib o'tayotgan suv oqimining o'rtacha tezligi	Qurilmadan o'tayotgan suv sarfi	Hajmiy usulda aniqlangan suv sarfi	Xatolik qiymati
	b	ω_1 , cm ²	θ_1 , cm/s					
1	60	60	11,3	678	0,51	0,346	0,345	0,23
2	60	60	10,1	606	0,52	0,315	0,313	0,47
3	60	60	12,5	750	0,51	0,383	0,388	-1,44
4	60	60	11,2	672	0,53	0,356	0,352	1,17
5	60	60	10,7	642	0,57	0,366	0,371	-1,38
6	60	60	20,1	1206	0,58	0,699	0,691	1,21
7	60	60	20,3	1218	0,59	0,719	0,725	-0,89
8	60	60	20,5	1230	0,51	0,627	0,621	1,00
9	60	60	21,4	1284	0,53	0,681	0,664	2,43
10	60	60	22,7	1362	0,52	0,708	0,721	-1,80
11	60	60	29,8	1788	0,56	1,001	1,023	-2,17
12	60	60	30,2	1812	0,51	0,924	0,942	-1,93
13	60	60	30,7	1842	0,52	0,958	0,938	2,07
14	61	61	31,5	1921,5	0,56	1,076	1,057	1,77
15	62	62	30,9	1915,8	0,54	1,035	1,053	-1,79
16	63	63	39,8	2507,4	0,55	1,379	1,362	1,24
17	64	64	40,5	2592	0,57	1,477	1,448	1,99
18	65	65	40,3	2619,5	0,51	1,336	1,369	-2,47
19	66	66	40,9	2699,4	0,50	1,350	1,375	-1,87
20	67	67	41,8	2800,6	0,58	1,624	1,607	1,07
21	68	68	49,7	3379,6	0,51	1,724	1,712	0,67
22	69	69	50,6	3491,4	0,50	1,746	1,728	1,01
23	70	70	50,3	3521	0,50	1,761	1,742	1,05
24	71	71	50,2	3564,2	0,52	1,853	1,842	0,61
25	72	72	51,3	3693,6	0,53	1,958	1,942	0,80

Hajmiy usulda ham "Smart Channel" qurilmasi sarf o'lchash xatoliklari + va - ishoralarda qayd etildi. Bu shuni anglatadiki + ishorali xatoliklarda "Smart Channel" qurilmasi sarfi ko'proq, - ishorali xatoliklarda esa kamroq suv sarfini ko'rsatmoqda.

Xatolikning eng kichik qiymati 0,23% bo'lgan bo'lsa, eng yuqori qiymati -2,47% ni tashkil etdi. Suv chuqurligi bo'yicha xatolik qiymatlari

tahlil etildi va quyidagi bog'lanish olindi (5-rasm).



5-rasm. "Smart Channel" qurilmasining o'lchash xatoligini ko'rsatuvchi grafik.

Xatolikning eng kichik qiymati 0,23% bo'lgan bo'lsa, eng yuqori qiymati -2,47% ni tashkil etdi. Suv chuqurligi bo'yicha xatolik qiymatlari tahlil etildi va quyidagi bog'lanish olindi (5-rasm).

Ma'lumki Parshal, Saniiri, Tomson, Chipoletti va shu kabi suv sarfini o'lchash qurilmalarining xatoligining maksimal qiymati ±5 % deb qabul qilingan. Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida "Smart Channel" qurilmasining 60x60 cm o'lchami uchun xatolikning maksimal chegarasi ±2,48% yoki ±2,50% qiymatlarda qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Smart Channel" qurilmasining 60x60 sm o'lchamdagi namunasi uchun sezuvchanlik va minimal suv sarfi laboratoriya sharoitida eksperimental ravishda baholandi. Olingan natijalar qurilmaning kichik suv sarflarini qayd etish imkoniyatini amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Tajribalar davomida qurilmaning o'rtacha sezuvchanlik chegarasi 0,45 cm/s ekani aniqlandi va aynan shu tezlik oralig'ida suv sarfi barqaror qayd etilgani sababli ushbu qiymat qurilmaning amaliy sezuvchanlik chegarasi sifatida qaralishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qurilmaning minimal qayd etilgan suv sarfi 0,269 l/s, bir soatlik ekvivalent sarf esa 0,969 m³/soat ni tashkil etdi. Demak, 60x60 sm o'lchamdagi namuna uchun minimal suv sarfi eksperimental tarzda asoslandi va u qurilmaning muhim metrologik tavsiflaridan biri sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, sezuvchanlik bilan suv chuqurligi o'rtasida chiziqli bog'lanish mavjudligi aniqlanib, maxsus empirik formula ishlab chiqildi. Ushbu formula qurilmaning sezuvchanlik sarfini oldindan baholash va qiyoslash

nuqtalarini tanlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qurilmaning o'lchash aniqligi namunaviy elektromagnit sarf o'lchagich hamda hajmiy usul bilan taqqoslash orqali baholandi. Natijalarga ko'ra, "Smart Channel" qurilmasining xatoligi elektromagnit sarf o'lchagichga nisbatan +2,47 % dan -2,48 % gacha, hajmiy usulga nisbatan esa +2,43 % dan -2,47 % gacha oraliqda qayd etildi. Bu esa qurilmaning turli chuqurlik va sarf rejimlarida qoniqarli aniqlik bilan ishlashini hamda natijalarning ikki mustaqil usul bilan tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, "Smart Channel" qurilmasining minimal suv sarfini asoslashda faqat nazariy sezuvchanlik chegarasi emas, balki etalon vositalar bilan taqqoslash orqali aniqlangan metrologik minimal sarf ham inobatga olinishi zarur. Mazkur tadqiqotda aynan shu yondashuv eksperimental ravishda tasdiqlandi. Qurilmaning ilmiy-amaliy afzalligi shundaki, u klassik napor-asosli qurilmalardan farqli ravishda suv sarfini tezlik va tirik kesim yuzi asosida

aniqlaydi. Shu sababli uning sezuvchanligi minimal o'lchanadigan tezlik, minimal ishchi sath va oqim geometriyasiga bog'liq bo'ladi, bu esa uni kichik sarfli va murakkab gidravlik sharoitlarda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, 60×60 sm o'lchamdagi namunada olingan natijalar qurilmaning laboratoriya sharoitida kichik suv sarflarini aniqlash va ularni qoniqarli aniqlik bilan qayd etish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Biroq qurilmaning minimal suv sarfi va sezuvchanlik ko'rsatkichlari konstruktsiya o'lchamlari hamda oqim sharoitiga bog'liq bo'lganligi sababli, boshqa o'lchamdagi modellar uchun alohida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish zarur. Umuman olganda, mazkur tadqiqot "Smart Channel" qurilmasining sezuvchanligi va minimal suv sarfi bo'yicha eksperimental asoslangan natijalarni shakllantirib, kelgusida qurilmaning qiyoslash metodikasini ishlab chiqish, texnik hujjatlarni takomillashtirish hamda suv xo'jaligi amaliyotiga joriy etish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


- [1] Food and Agriculture Organization of the United Nations. (n.d.). Water and food security. FAO.
- [2] High Level Panel of Experts on Food Security and Nutrition. (2015). Water for food security and nutrition. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
- [3] Karimov, S., Akbarov, A., & Jonqobilov, U. (2004). Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostdash (pp. 80–87). Toshkent.
- [4] Otakhonov, M., Atakulov, D., Zokirov, I., & Xudoyshukurov, Q. (2024). Parameter of a parabola-shaped canal method of determination. E3S Web of Conferences, 587, 01005. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202458701005>
- [5] United Nations. (2024). The United Nations World Water Development Report 2024: Water for prosperity and peace. UNESCO World Water Assessment Programme.
- [6] Universal Current Meter. (2017). User manual. Turkey.
- [7] Xikmatov, F., Yunusov, G. X., Sagdeyev, N. Z., Turgunov, D. M., & Ziyayev, R. R. (2014). Gidrometriya (pp. 90–93). Toshkent.
- [8] International Organization for Standardization. (1992). ISO 9826: Measurement of liquid flow in open channels — Parshall and SANIIRI flumes.
- [9] Muste, M., Yu, K., Gonzalez, J., & Ansar, M. (2004). Methodology for estimating ADCP measurement uncertainty in open-channel flows. In World Water and Environmental Resources Congress 2004. [https://doi.org/10.1061/40737\(2004\)268](https://doi.org/10.1061/40737(2004)268)
- [10] Chow, V. T. (1959). Open-channel hydraulics. McGraw-Hill.
- [11] American Society of Mechanical Engineers. (2009). Standard for verification and validation in computational fluid dynamics and heat transfer (ASME V&V 20-2009).
- [12] Otakhonov, M., Abduraimova, D., Allayorov, D., & Zokirov, I. (2026). Evaluation of velocity distribution in earthen irrigation canals. AIP Conference Proceedings, 3390, 030027. <https://doi.org/10.1063/5.0322728>

- [13] Ali, G., & Maghrebi, M. F. (2023). Modifications to the single-point velocity measurement method for estimating river discharge in low-resource environments. HydroShare. <https://doi.org/10.4211/hs.d8df4d9fdd874cb6a66fa2495e61ab09>
- [14] Petrov, A. A., Kabilov, K. I., Sabirov, M. R., & Jurayev, B. B. (2023). Supplying long-term workability of the old elements of hydraulic facilities by using cold compositions. E3S Web of Conferences. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339201038>

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Otaxonov, M. Y., Zokirov, I. B., Arifjanov, A. A., & Azizov, K. A. (2026). Smart channel qurilmasining sezuvchanligi va minimal suv sarfini eksperimental baholash. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.3>

UO‘K: 551.24:552.321

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.16

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

BURMACHAN KAMARNING POSTKOLLIZION BOSQICHINING RIVOJLANISHI VA POSTKOLLIZION GRANITOIDLARNING SHAKLLANISHI



Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich

(PhD) Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

E-mail: axmedov-x-68@mail.ru

ORCID ID: 0009-0007-7715-7240

Science ID: FQD-0426-0008



Abdusalomova Moxinur Musurmon qizi

Magistrant, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada burmali kamarlarning postkollizion bosqichdagi rivojlanishi hamda postkollizion granitoidlarning shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan. Wilson sikli doirasida kontinental kolliziyadan keyingi geodinamik jarayonlar, jumladan litosfera delaminatsiyasi, gravitatsion kollaps, rifting va transkorov siljishlarning magmatizmga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, postkollizion magmatizmning tarkibiy xususiyatlari, manbalari va granitoidlar hosil bo'lishining geodinamik modellari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: postkollizion bosqich, granitoidlar, magmatizm, Wilson sikli, litosfera, delaminatsiya, orogen, geodinamika, kolliziya, rifting.

Received: 19.04.2026

Accepted: 11.06.2026

Published: 29.06.2026

РАЗВИТИЕ ПОСТКОЛЛИЗИОННОЙ СТАДИИ СКЛАДЧАТЫХ ПОЯСОВ И ПРОИСХОЖДЕНИЕ ПОСТКОЛЛИЗИОННЫХ ГРАНИТОИДОВ

Ахмедов Холхужа Рахматуллаевич

Каршинский государственный технический университет,
доктор философии (PhD) по геолого-минералогическим
наукам, доцент, Карши, Узбекистан

Абдусаломова Мохинур Мусурмон кизи

Каршинский государственный технический университет,
магистрант кафедры геологии и горного дела, Карши,
Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрены особенности развития постколлизиионной стадии складчатых поясов и механизмы формирования постколлизиионных гранитоидов. В рамках цикла Уилсона проанализированы геодинамические процессы, возникающие после континентальной коллизии, включая деламинацию литосферы, гравитационный коллапс, рифтогенез и трансформные смещения. Обобщены составные особенности постколлизиионного магматизма, его источники и основные геодинамические модели образования гранитоидов.

Ключевые слова: постколлизиионная стадия, гранитоиды, магматизм, цикл Уилсона, литосфера, деламинация, ороеген, геодинамика, коллизия, рифтинг.

DEVELOPMENT OF THE POST-COLLISIONAL STAGE OF FOLD BELTS AND THE ORIGIN OF POST-COLLISIONAL GRANITOIDS

Akhmedov Xolkhuja Rakhmatullaevich

Karshi State Technical University, PhD in Geological and
Mineralogical Sciences, Associate Professor, Karshi, Uzbekistan

Abdusalomova Mokhinur Musurmon kizi

Karshi State Technical University, Master's Student of the
Department of Geology and Mining Engineering, Karshi,
Uzbekistan

Abstract. This article examines the evolution of fold belts during the post-collisional stage and the mechanisms responsible for the formation of post-collisional granitoids. Within the framework of the Wilson cycle, geodynamic processes following continental collision, including lithospheric delamination, gravitational collapse, rifting, and transcurrent faulting, are analyzed. The compositional characteristics, source regions, and geodynamic models of post-collisional magmatism and granitoid formation are also summarized.

Keywords: post-collisional stage, granitoids, magmatism, Wilson cycle, lithosphere, delamination, orogen, geodynamics, collision, rifting.


Kirish. Litosfera plitalarining tektonikasi nuqtayi nazaridan kontinental chekkalarning evolyutsiyasi Wilson cycle (John Tuzo Wilson, 1966) tomonidan ta'riflangan [1]. U zamonaviy Yer tektonik tuzilmalarining kelib chiqishini okeanlarning ochilishi va yopilishi bilan izohlaydi. Ushbu davr, jumladan, kollizion bosqichni (kontinent–kontinent yoki kontinent–yoy) o'z ichiga oladi va bu bosqich yer qobig'i qalinligining ortishi bilan kechadi (John Frederick Dewey va John Bird, 1970; Dewey va William R. Burke, 1973; Dewey, 1988). Kontinental kolliziyadan keyin, ammo barqaror plita yoki kraton shakllanishidan oldin rivojlanadigan Wilson cyclening o'ziga xos bosqichi postkollizion bosqich deb ataladi. Wilson cyclening yakuniy bosqichlari, jumladan subduksiya, kontinental kolliziya va postkollizion bosqichda orogenning gravitatsion kollapsi 1-rasmda sxemaviy tarzda ko'rsatilgan.

Adabiyot tahlili va usullari. Postkollizion magmatik seriyalarni mustaqil guruh sifatida qarashga asoslangan eng ilk klassifikatsiyalardan biri Sederxolma (Sederholm, 1934) tomonidan taklif etilgan sxema hisoblanadi. Ushbu sxemaga ko'ra, Janubiy Finlyandiya granitoidlari to'rt guruhga ajratiladi: sinorogen, kechki orogen, postorogen va anorogen. Bonin va hammualliflar (1998), shuningdek Liégeois va hammualliflar (1998) Sederxolm tomonidan ilgari surilgan tamoyillarga tayanib, kollizion burmalanish tuzilmalarining evolyutsiyasida uchta asosiy bosqichni ajratishni taklif etganlar: orogen, postorogen va anorogen rivojlanish bosqichlari. Ushbu bosqichlar turli geodinamik sharoitlarga mos keladi, jumladan: faol kontinental chet, kollizion, postkollizion va plita ichi muhitlar (2-rasm). Zamonaviy Yevropa geologik adabiyotlarda

orogenik kamarlarning postkollizion rivojlanish bosqichi Liégeois (1998) tomonidan shunday ta'riflanadi: bu davrda kolliziya jarayonida birlashgan terreymlar hali umumiy aylanish qutbiga ega emas va ular mintaqaviy siljish zonalarini bo'ylab bir-biriga nisbatan ko'chib harakatlanadi. Bunday geodinamik muhitga misol sifatida, miotsen davri boshidan buyon davom etayotgan Arab plitasining Yevrosiyo bilan kolliziyasini keltirilishi mumkin. Ushbu jarayon Anatoli, Zakavkaziya va Eron nagorye plitalarini tashkil etuvchi alohida terreymlar yoki bloklarning gorizontaal siljishlari natijasida yuzaga kelgan ko'plab siqilish, cho'zilish va yirik mintaqaviy siljish zonalarining shakllanishiga olib kelgan [2]. Sharqiy O'rta Yer dengizi hududining tektonik sxemasida (3-rasm) plitalarning harakat tezliklari va yo'nalishlari, shuningdek, miotsen–to'rtlamchi davr vulqon markazlarining joylashuv sxemasi (4-rasm) ko'rsatilgan bo'lib, ular postkollizion magmatizmning namoyon bo'lishi va tarqalishini yaqqol ifodalaydi.


Shimoliy Amerika mamlakatlarida mintaqaviy geologik tadqiqotlar va xarita tuzish ishlarida qo'llaniladigan terreymlar tahlili konsepsiyasi postkollizion bosqichni tavsiflashda Yevropa an'alaridan farq qiluvchi atamalardan foydalanadi. Mintaqaviy darajada geologik tuzilishni ifodalashning asosiy birliklari sifatida «tektonostratigrafik terreymlar» qaraladi — ular uzilishlar bilan chegaralangan geobloklar bo'lib, qo'shni terreymlardan farq qiluvchi o'ziga xos geologik tarix bilan tavsiflanadi (Howell, 1985, 1989; Howell va boshq., 1985; Jones va boshq., 1983, 1987). Kollizion jarayonlarni tavsiflashda “akkretsiya” atamasi qo'llaniladi, ya'ni ikki yoki undan ortiq terreymlarning o'zaro yoki kraton chekkasi bilan tektonik jihatdan birikishi tushuniladi. Postkollizion

hosilalar “post-akkretsiyon tog‘ jinslari komplekslari” sifatida ta’riflanadi — bular akkretsiyadan keyin terreyn rivojlanishining kech bosqichlarida shakllangan cho‘kindi, vulqon yoki plutonik jinslar majmuasidir. Atamalarining yanada to‘liq lug‘ati Howell va boshq. (1985) ishlarida keltirilgan.




1-rasm. Uilson siklining yakuniy bosqichlarining sxematik tasviri, jumladan subduksiya, kontinental kolliziya va postkollizion bosqichda orogenning gravitatsion kollapsini o‘z ichiga olgan (Chenin et al. bo‘yicha, 2018).

Postkollizion bosqich plita tektonikasi nazariyasiga to‘liq integratsiya qilinmagan, chunki mazkur nazariya litosfera plitalarini nisbatan qattiq deb hisoblaydi va ularning o‘zaro siljishi asosan plitalar chegaralaridagi tor zonalarda jamlangan deb ta’kidlaydi (Atwater, 1970; Isacks va boshq., 1968; Le Pichon, 1968; McKenzie, 1969) [3]. Garchi ushbu yondashuv plitalar chegaralarida kechadigan ko‘plab jarayonlarni izohlab bersa-da, kontinent ichidagi deformatsiyalar, odatda, plitalar chegaralaridagi tor zonalar bilan cheklanib qolmaydi (Molnar, 1988). Kontinental kolliziya zonalarida tog‘ hosil bo‘lishi (orogenez) hamda deformatsiya, metamorfizm va magmatizmning keng hududlarda rivojlanishi bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Orogenezning bosqichlari va geodinamik sharoiti (Liégeois bo‘yicha, 1998).

Postkollizion muhit — bu murakkab davr bo‘lib, u transkorov siljish zonalarini bo‘ylab katta amplitudali siljishlarni, terreynlarning nisbatan osoyishta birikishini (docking, qiya kolliziya), litosferaning delaminatsiyasini hamda rifting jarayonlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday sharoitlarda magmatizmning turli xillari yuzaga kelishi mumkin bo‘lib, ular uchun quyidagi asosiy qonuniyatlar aniqlangan (Bonin, 2004):



3-rasm. Sharqiy O‘rta Yer dengizida Yevroosiyoga nisbatan 1988–1997 yillarda plitalarning tektonik tuzilishi va gorizontall siljish tezliklari (qora strelkalar, mm/yil) (Taymaz et al. ma’lumotlari bo‘yicha, 2007). Qisqartmalar: ShAU – shimoliy Anatoliy uzilmasi, SharAU – sharqiy Anatoliy uzilmasi, ShShAU – shimoliy-sharqiy Anatoliy uzilmasi, O‘DU – O‘lik dengiz uzilmasi.

1. Postkollizion magmatizm, qoida tariqasida, nisbatan qisqa (15–20 mln yil) davom etuvchi intensiv granitoid magmatizm davrini ifodalaydi. Postkollizion intruziyalar odatda deformatsiyaga uchramagan bo‘ladi va posttektonik deb qaraladi;


2. Postkollizion magmatik komplekslar (vulkanik va plutonik) tarkibi jihatidan asosan kaliyli bo‘lib, ultrakaliyli turlarni ham o‘z ichiga oladi (Conticelli and Peccerillo, 1992; Liégeois et al., 1998). Alyuminiy oksidiga ortiqcha to‘yingan granitoidlar esa yer po‘sti protolitlarining degidratatsiyasi va erishi natijasida hosil bo‘ladi (Nabelek et al., 1992; Sylvester, 1998). Shuningdek, ma‘lum darajada yuvenil xususiyatga ega bo‘lgan natriyli ishqoriy granitoidlar ham (Bonin, 1988, 1990; Liégeois and Black, 1987) ayrim hollarda katta hajmlarni tashkil etishi mumkin, biroq umumiy holda nisbatan kam uchraydi;

3. Postkollizion granitoidlarning manbalari oldingi subduksiya yoki kolliziya bosqichlari davomida shakllangan bo‘lib, ularning qit‘a qobig‘i yoki litosfera mantiyasi doirasida joylashganligiga bog‘liq emas. Izotop ma‘lumotlari bir ma‘noli emas va, odatda, manba tarkibida qit‘a qobig‘iga xos komponent mavjudligini ko‘rsatadi.

Postkollizion magmatizm alohida intruziyalar, shtoklar hamda keng hududlarda rivojlangan vulkanit qatlamlarini o‘z ichiga olishi mumkin va bu jarayonlar kollizion suturalar joylashuvi yoki nadseymofokal magmatizm zonalarining taqsimlanishidan mustaqil holda namoyon bo‘ladi (masalan, Seltnann et al., 2011). Shu bilan birga, postkollizion intruziyalarning katta qismi yirik transkoroviy siljishlar va/yoki pul-apart turidagi tektonik strukturalar bilan bog‘liq holda joylashgan (masalan, Konopelko va boshq., 2011). Ko‘plab mintaqalarda postkollizion magmatizm hozirgi erozion kesimda 60–70 % ni egallagan ko‘p sonli granitoid massivlarini shakllantirgan.

Postkollizion magmatizm ayrim hududlarda kontinental kolliziyadan so‘ng darhol rivojlansa, boshqa hollarda uning namoyon bo‘lishi asosiy kollizion jarayondan 20–30 million yil keyin kuzatilishi mumkin [5]. Uzoq vaqt davom etgan subduksion magmatizm bilan tavsiflanadigan andiy va orol-yoyi tipidagi geodinamik muhitlarda postkollizion magmatik komplekslar vaqt jihatidan uzluksiz ravishda nadsubduksion granitoidlar evolyutsiyasining davomi sifatida shakllanadi.

Kontinental kolliziya zonalarida esa postkollizion intruziyalar ko‘pincha uzoq muddat davom etgan anatektik granitlar hosil bo‘lish jarayonining yakuniy bosqichini ifodalasa-da, mineralogik va geokimyoviy tarkibi bilan ulardan sezilarli darajada farqlanadi.



4-rasm. Sharqiy Anatoliya, Kavkaz va Eron tog‘li hududlarida miotsen–to‘rtlamchi davrlarda shakllangan vulqon markazlarining joylashuvi. Rasmda Arab plitasining miotsen davridan buyon Yevrosiyo plitasi bilan davom etayotgan kolliziyasi natijasida rivojlangan postkollizion magmatizmning keng tarqalishi aks ettirilgan (Kaislaniemi ma‘lumotlari asosida, 2015).

Postkollizion magmatizm odatda keng hududlarda magmatik faollikning keskin susayishi yoki to‘xtashi bilan yakunlanadi. Ushbu bosqichdan so‘ng ko‘plab hollarda ma‘lum muddat davom etuvchi amagmatik davr kuzatiladi, keyinchalik esa u plitaichi magmatizmi rivojlanishi bilan almashishi mumkin. Biroq bunday ketma-ketlik barcha geodinamik hududlar uchun xos emas, chunki magmatizmning davomiyligi va xarakteri mintaqaning tektonik rivojlanish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Kollizion sharoitda shakllangan magmatik jinslar tarkibi va genezisi jihatidan faol subduksiya zonalariga mansub magmatik seriyalardan sezilarli darajada farqlanadi. Bunga sabab kollizion bosqichning kuchli siqilish muhiti bilan tavsiflanishi bo‘lib, bunday sharoit magmaning yuqoriga ko‘tarilishi va intruziyalanishini ma‘lum darajada cheklaydi. Plitaichi magmatizm esa,

odatda, yirik hajmdagi magmatik massivlarning hosil bo'lishi bilan xarakterlanmaydi. Shu sababli hozirgi erozion kesimlarda uchraydigan granitoid intruziyalarning katta qismi aynan postkollizion magmatik faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Postkollizion magmatizmning tarkibiy va geodinamik jihatdan xilma-xilligini izohlash maqsadida turli orogenik kamarlarda kuzatilgan jarayonlarga asoslangan bir qator nazariy modellar ishlab chiqilgan. Ushbu modellar postkollizion granitoidlarning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natija. Postkollizion bosqichda qit'a qavatli (qobiq) jinslarining erishi va yuqori qavatlariga ko'tarilishi mumkin bo'lgan eritmalarning hosil bo'lishi katta miqdorda issiqlikni talab qiladi. Bu issiqlik manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin: qalinlashgan qit'a qavatida to'planadigan radiogen issiqlik va astenosferaning issiq moddasi ko'tarilishi natijasida qit'a qavatiga uzatiladigan mantiy issiqlik. Astenosferaning issiq moddasining ko'tarilishi va uning qit'a qavatli bilan o'zaro ta'siri postkollizion bosqichda turli geodinamik jarayonlar natijasida amalga oshishi mumkin:

1. Subduksiya zonasi tik qiyalik bilan cho'kayotgan sharoitda postkollizion bosqichda slebning uzilishi yuz beradi. Bu jarayon astenosfera moddasining yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi va orogenning tub qismidagi qovushqoqligi past litosferada, ya'ni issiqlik chegara qatlamida (*thermal boundary layer*), nisbatan kichik chuqurliklarda erish jarayonlarini vujudga keltiradi. So'ngan kaliyli ohakli-ishqoriy magmalar amfibolli peridotitlarning erishi natijasida hosil bo'ladi. Yuqori kaliyli ohakli-ishqoriy va shoshonitli magmalar esa yanada chuqurroqda joylashgan flogopit-granatli peridotitlar erishi hisobiga shakllanadi. Mantiya magmalarining tarkibi bir necha omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Jumladan, subduksiyalanayotgan plitada hosil bo'lgan adakitli eritmalarning qo'shilishi, degidratatsiya (suvsizlanish) jarayonida ajralib chiqqan flyuidlar ta'siri, shuningdek yuqorida joylashgan litosfera moddalari bilan assimilyatsiya-kontaminatsiya jarayonlari bunga sabab bo'ladi;

2. Kollizion orogenlarda kuchli siqilish tezkor aplift (ya'ni yer qirtishi va tog' jinslarining ko'tarilishi) hamda gravitatsion kollapsning rivojlanishiga olib keladi. Bunda bir necha million

yil ichida siqilish jarayoni litosfera mantiyasining delaminatsiyasi (ajralib tushishi) va uning o'rnini qisman astenosfera moddasi egallashi natijasida cho'zilish (rastyajeniye) bilan almashadi (Black and Liégeois, 1993; Liégeois, 1998; Lobkovskiy va boshq., 2004; Larin, 2011). Marotta va hammualliflar (1998) bunday orogenlarning rivojlanishini to'rt bosqichga ajratadi:

3. Aplift va tog' hosil bo'lishi (goroobrazovaniye);

4. Orogenning gravitatsion kollapsi;

5. Litosfera mantiyasining delaminatsiyasi va uning cho'kishi;

6. Tizimning muvozanat holatiga qayta tiklanishi.

Ushbu bosqichlar geodinamik rivojlanishning kollizion, postkollizion va yakuniy plitaichi bosqichlariga mos keladi. Postkollizion davrda subduksiyalangan qit'a materiali bilan boyigan litosfera mantiyasining qisman erishi natijasida kaliyga boy magmalar hosil bo'ladi. Bular qatoriga yuqori kaliyli ohakli-ishqoriy, shoshonitli va ultrakaliyli magmatik seriyalar kiradi. Keyinchalik ushbu magmalarining yer po'stiga intruziyalanishi cho'kindi jinslarning degidratatsiyasi va qisman erishini keltirib chiqarib, alyuminiyga boy eritmalar shakllanishiga sabab bo'ladi. Natijada kaliyli va yuqori alyuminiyli postkollizion magmatik seriyalar bir vaqtning o'zida rivojlanib, ko'pincha o'zaro aralashish belgilarini namoyon etadi.

Postkollizion bosqichning so'nggi davrlarida litosfera mantiyasining delaminatsiyasi natijasida kontinental litosfera qalinligi kamayadi. Shu bilan bog'liq holda issiq astenosfera moddasi yuqoriga ko'tarilib, mantiyaning qisman erishiga va katta hajmdagi bazitli magmalar hosil bo'lishiga olib keladi [6]. Ushbu magmalar yer po'stining quyi qismida to'planib, anderpleyting jarayonini yuzaga keltiradi. Anderpleyting ta'sirida yuqori kaliyli ohakli-ishqoriy seriyalardan haqiqiy ishqoriy seriyalarga o'tish jarayoni tezlashadi. Keyingi plitaichi bosqichda litosfera sovishi va magmatik moddalarning qo'shimcha to'planishi hisobiga yana qalinlashadi. Bunday sharoitda erish jarayonlari chuqurroq sathlarda sodir bo'lib, natijada kremnezyomga to'yingan ishqoriy magmalardan kremnezyomga to'yinmagan ishqoriy magmalarga o'tish kuzatiladi. Mazkur model ayrim A-tip granitlar, rapakivi granitlari hamda anortozit-

charnokit komplekslarining kelib chiqishini izohlashda qo'llaniladi.

Postkollizion sharoitda rivojlanadigan yirik mintaqaviy siljish zonalari nafaqat yer qobig'ida, balki mantiyada ham deformatsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Transtension sharoitlarda astenosfera moddasi yuqoriga ko'tarilib, siljish zonalari bo'ylab joylashgan turli tarkibli proto-litlarning qisman erishiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda esa ushbu zonalar orqali mantiya kelib chiqishiga ega ultraasosli intruziyalar ham kirib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim geodinamik muhitlarda postkollizion granitoidlarning shakllanishida mantiya plyumlari muhim issiqlik manbai vazifasini bajaradi. Bunga Tarim platformasidagi platobazaltlar va Tyan-Shan hududidagi gersin yoshidagi postkollizion granitoidlarning deyarli bir vaqtda hosil bo'lishi misol bo'la oladi. Tadqiqotchilar ushbu magmatik faollikni Tarim hududi ostida rivojlangan mantiya plyumi bilan bog'laydilar.

Xulosa. Kollizion bosqich orogenez jarayonining eng yuqori (kulminatsion) nuqtasi

hisoblanadi. Undan keyin keladigan postkollizion bosqich esa juda faol va turli xil magmatik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Postkollizion magmatizmning tabiati va rivojlanishi asosan kolliziyadan oldin sodir bo'lgan jarayonlarga, ayniqsa subduksiyaning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Subduksiya zonasining tik qiyalikda tushishi slebning uzilishiga va so'ngan hamda yuqori kaliyli ohakli-ishqoriy seriyalarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha, nisbatan yengil kontinental jinslarning yassi qiyalikda subduksiyasi litosfera qalinligining ortishiga sabab bo'lib, kaliyli va ultrakaliyli seriyalarning, shuningdek yuqori glinozyomli anatektik granitlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mintaqaviy siljish zonalari bo'ylab astenosfera moddasining yuqoriga ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladigan eritmalar tarkibi protolitlarning xususiyati va erish chuqurligiga bog'liq holda aniqlanadi. Nihoyat, mantiya plyumlari ta'sirida yoki anderpleyting jarayoni natijasida hosil bo'ladigan eritmalar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Конопелько, Д. Л. (2020). Палеозойский гранитоидный магматизм Западного Тянь-Шаня (Диссертация на соискание ученой степени доктора геолого-минералогических наук). Санкт-Петербург.
- [2] Таымаз, Т., Йилмаз, У., & Дилек, У. (2007). The geodynamics of the Aegean and Anatolia: Introduction. Geological Society, London, Special Publications, 291(1), 1–16. <https://doi.org/10.1144/SP291.1>
- [3] Atwater, T. (1970). Implications of plate tectonics for the Cenozoic evolution of western North America. Geological Society of America Bulletin, 81(12), 3513–3536. [https://doi.org/10.1130/0016-7606\(1970\)81\[3513:IOPTFT\]2.0.CO;2](https://doi.org/10.1130/0016-7606(1970)81[3513:IOPTFT]2.0.CO;2)
- [4] Chenin, P., Manatschal, G., Lavier, L., Mohn, G., & Kuszniir, N. (2017). Potential role of lithospheric mantle composition in the Wilson cycle: A North Atlantic perspective. In The Wilson Cycle Revisited. Geological Society, London, Special Publications. <https://doi.org/10.1144/SP470.1>
- [5] Wilson, J. T. (1966). Did the Atlantic close and then reopen? Nature, 211(5050), 676–681. <https://doi.org/10.1038/211676a0>

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Akhmedov, X. R., & Abdusalomova, M. M. (2026). Burmachan kamarning postkollizion bosqichining rivojlanishi va postkollizion granitoidlarning shakllanishi. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.16>

UO‘K: 55.(551.263.036)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.17

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

BOYSUN EGILMASIDAGI YURA KARBONAT FORMATSIYALARINING STRUKTURAVIY VA LITOSTRATIGRAFIK XUSUSIYATLARI



**Alimov Ma'rufjon
Mavlonberdiyevich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Geologiya va muhandislik
geologiyasi fakulteti, geologiya
kafedrası o'qituvchisi, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail: maruf.alimov.93@mail.ru
ORCID ID:
0009-0000-9380-6940
Science ID: MQD-0426-0252



**Djalilov Gafur
Ganiyevich**

Geologiya-mineralogiya fanlari
falsafa doktori (PhD), Katta ilmiy
xodim. Neft va gaz konlari
geologiyasi va hamda qidiruvi
instituti DM, Litologiya va
stratigrafiya laboratoriyasi
boshlig'i, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: gafur@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-8778-2719
Science ID: FSN-0226-0051



**Tog'ayev Isomiddin
Saparovich**

Geologiya-mineralogiya fanlari
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti,
Geologiya va muhandislik
geologiyasi fakulteti, Geologiya
kafedrası mudiri, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail: togaev_is@mail.ru
ORCID ID: 0009-0006-8190-7035
Science ID: FQD-0525-0141

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boysun egilmasi misolida Surxondaryo megasinklinalining geologik tuzilishi va yura davri karbonat formatsiyalarining xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi. Tadqiqotda hududning litostratigrafik bo'linishi, tektonik tuzilishi hamda neft va gaz zaxiralariga boy bo'lgan istiqbolli maydonlar, xususan, Gadjak koni haqida ma'lumot berilgan. Yer yer osti tuz qatlamlarining joylashishi va ularning yuqorisida hamda pastida joylashgan jinslarning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab beradilar. Shuningdek, maqolada yura davriga tegishli bo'lgan oltita alohida svitaning tavsifi va ularning qalinligi bo'yicha qiyosiy ma'lumotlar keltirilgan. Geofizik va burg'ilash ishlari natijalariga tayanib, mintaqadagi rifogen tuzilmalar va uglevodorod tuzoqlarining shakllanish imkoniyatlari baholanadi.

Kalit so'zlar: Boysun egilmasi, struktura, yuqori yura, karbonat formatsiyasi, svita, Gadjak koni, Surxondaryo megasinklinali, yotqiziq, litostratigrafik xususiyatlari.

Received: 06.05.2026

Accepted: 15.06.2026

Published: 29.06.2026

СТРУКТУРНЫЕ И ЛИТОСТРАТИГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЮРСКОЙ КАРБОНАТНОЙ ФОРМАЦИИ В БАЙСУНСКОМ ПРОГИБ

**Алимов Маруфжон
Мавлонбердиевич**

Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, факультет геологии и
инженерной геологии,
преподаватель кафедры
геологии, Ташкент, Узбекистан

**Джалилов Гафур
Ганиевич**

Доктор философии (PhD) по
геолого-минералогическим
наукам, старший научный
сотрудник, Институт геологии и
разведки нефтяных и газовых
месторождений, заведующий
лабораторией литологии и
стратиграфии, Ташкент,
Узбекистан

**Тобаев Исомиддин
Сапарович**

Доктор философии (PhD) по
геолого-минералогическим
наукам, доцент, Национальный
университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, факультет
геологии и инженерной геологии,
заведующий кафедрой геологии,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье на примере Байсунского прогиба подробно анализируется геологическое строение Сурхандарьинской мегасинклинали и особенности юрских карбонатных формаций. В исследовании представлена информация о литостратиграфическом делении территории, тектоническом строении и перспективных площадях, богатых запасами нефти и газа, в частности, месторождении Гаджак. Научно обосновываются расположение подземных солевых пластов и взаимосвязь пород, расположенных выше и ниже их. Также в статье представлено описание шести отдельных свит, относящихся к юрскому периоду, и сравнительные данные по их мощности. На основании результатов геофизических и буровых работ оцениваются возможности формирования рифогенных структур и углеводородных ловушек в регионе.

Ключевые слова: Бойсун эгилмаси, структура, юқори юра, карбонат формацияси, свита, Гаджак кони, Сурхондарё мегасинклинали, ётқизик, литостратиграфик хусусиятлари.

STRUCTURAL AND LITHO-STRATIGRAPHIC FEATURES OF THE JURASSIC CARBONATE FORMATION OF THE BOYSUN FLEX

**Alimov Ma'rufjon
Mavlonberdievich**

National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek,
Faculty of Geology and
Engineering Geology, Lecturer of
the Department of Geology,
Tashkent, Uzbekistan

Djalilov Gafur Ganievich

PhD in Geological and
Mineralogical Sciences, Senior
Researcher, Institute of Geology
and Exploration of Oil and Gas
Fields, Head of the Laboratory of
Lithology and Stratigraphy,
Tashkent, Uzbekistan

**Togayev Isomiddin
Saparovich**

PhD in Geological and
Mineralogical Sciences, Associate
Professor, National University of
Uzbekistan named after Mirzo
Ulugbek, Faculty of Geology and
Engineering Geology, Head of the
Department of Geology, Tashkent,
Uzbekistan

Abstract. This article provides a detailed analysis of the geological structure of the Surkhandarya megasyncline and the characteristics of Jurassic carbonate formations using the example of the Boysun depression. The study presents information on the lithostratigraphic division of the territory, its tectonic structure, and promising areas rich in oil and gas reserves, particularly the Gadzhak field. Scientifically substantiate the location of underground salt layers and the relationship between rocks located above and below them. The article also provides a description of six separate formations belonging to the Jurassic period and comparative data on their thickness. Based on the results of geophysical and drilling operations, the possibilities for the formation of rifeogenic structures and hydrocarbon traps in the region are being evaluated.

Keywords: Baysun vegetation, structure, Upper Jurassic, carbonate formation, suite, Gadzhak deposit, Surkhandarya megasyncline, lattices, and lithostratigraphic features.


Kirish. Surxondaryo megasinklinali Afg'on-Tojik tog' oralig'i botiqligining tektonik elementlaridan biri hisoblanadi. Uning geologik tuzilishida katta chuqurlikka cho'kkan yuragacha bo'lgan burmali kamar va ikkita strukturaviy qavatni tashkil etuvchi mezozoy-kaynozoy yotqiziq-lari majmuasi ajralib turadi yura-paleogen, to'rtlamchi davrida shakllangan platforma qoplamasi hisoblanadi va neogen-to'rtlamchi - orogen tektogenezning alp bosqichida yotqizilgan. Quyi kesimida oraliq strukturaviy qavat sifatida ajratiladigan geosinklinal genezisli paleozoy va epigeosinklinal genezisli perm va trias

formatsiyalari ajratiladi. Platforma qobig'ining chuqurlik tuzilishining o'ziga xos xususiyati ikkita nomutanosib jinslar majmuasining mavjudligidir: quyi, o'rta va yuqori yura hosilalaridan tashkil topgan tuz osti hamda bo'r-paleogen yotqiziq-laridan tashkil topgan tuz usti jinslaridan iborat.

Surxondaryo megasinklinalining hozirgi tuzilishi tektogenezning neogen-tortlamchi davrida shakllangan. Uning tarkibida Boysun, Kelif-Sariqamish, G'arbiy Surxon va Sharqiy Surxon strukturaviy-tektonik zonalari ajratilgan (1-rasm) [Abidov, 1980].

Boysun strukturaviy-tektonik zonasi

Surxondaryo megasinklinalining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimoli-g'arbdan Ko'hitang-Boysun chuqur yer yorig'i, sharqdan Surxontog'-Kelif chuqur yer yorig'i va janubdan bir qator uzilmali buzilishlar bilan chegaralangan. Tektonik jihatdan hudud paleogen gorizontlari bo'ylab o'lchamlari 65x15 km bo'lgan egilmadan iborat. Boysun egilmasining shimoli-g'arbiy qismida Derbent mahalliy ko'tarilmalar hududi joylashgan. Boysun egilmasida submeridional va subkenglik tektonik buzilishlar bilan murakkablashgan antiklinal burmalar xaritalangan.



1-rasm. Surxondaryo mintaqasining neft-gazga istiqbolli maydonlari va ularning strukturaviy-tektonik joylashuv sxemasi.

Magnitorazvedka va gravirazvedka (Shmanenko, Xeyfes, Roz, 1977) natijalari bo'yicha tuzilgan 1:500000 masshtabdagi yer qobig'ining sxematik kesimi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mezozoy-kaynozoy qoplamasida ajratilgan yirik tektonik buzilishlar kesib o'tuvchi bo'lib, paleozoy quyi qismigacha kuzatiladi.

Boysun egilmasidagi mahalliy strukturalar doirasida tuz osti strukturaviy tuzilishi Boysun egilmasining bortoldi hududlarida va G'arbiy Surxon zonasida bitta maydonda chuqur quduqlar bilan o'rganilgan. Tuz osti yura yotqiziqlarining strukturasi bo'yicha hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan materiallarni qisqacha tavsiflaymiz. Tuz osti (yura) struktura qavati kontinental terrigen va dengiz karbonat formatsiyalari bilan ifodalangan, quyi yura (shu jumladan oksford) hosilalarini qamrab oladi. Cho'kindilarning umumiy qalinligi 1000-1200 m ga yetadi (Dikenshteyn va boshqalar, 1963). Boysun egilmasining bort oldi hududlarida chuqur quduqlar


bilan qayd etilgan tuz osti yotqiziqlarining yotish chuqurligi 2,8-3,6 km ni tashkil etadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.

Boysun egilmasidagi tuz osti strukturaviy xususiyati lokal strukturalari doirasida to'liq o'rganilgan bo'lib. Egilmaning shimoliy-sharqiy bo'rtida chuqurbo'rg'ilash yo'li bilan Gadjak tuz osti strukturasi topildi. Gadjak maydonini razvedka qilishda gaz uyumi bilan bog'liq bo'lgan kelloyev-oksford karbonat formatsiyasi yotqiziqlari ochildi.

OGT ma'lumotlariga ko'ra, Gadjak tuz osti strukturasi ikkita gumbazga ega bo'lib, ularning har biri minus 2450 m izogips bilan chegaralangan.

Burg'ilashning so'nggi ma'lumotlari, MOGT materiallari va boshqa usullarni hisobga olgan holda, Gadjak strukturasi quyidagicha talqin qilinadi. Gadjak maydonidagi tuz osti strukturasi alloxtion strukturasi xisoblanadi, braxiantiklinal bilan ifodalanadi. Shimoli-g'arbiy qanotdagi yotqiziqlarning yotish burchaklari 10° dan oshmaydi. Janubi-sharqiy qanotdagi nadvig turidagi yoriq tik (55° gacha) burchak bilan murakkablashgan. Nadvig gaurdak svitasi (kimerij-titon) tuzlarining yoriq zonasiga past bosim zonasi sifatida plastik oqimini faollashtirdi. Natijada, maydon chegarasida yoriq oldi zonasiga (Burg'u qudug'i. № 3), bunda tuzlarning qalinligi 1300 m dan oshadi va bir vaqtning o'zida gumbaz qismida tuzlar qalinligining pasayishi (60 m gacha, Burg'u qudug'i № 14). (Ehtimol, bu surilmalar bilan bog'liq tuzilmalarni aniqlashda qidiruv belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin). Surilma va tuzli tektonikaning birgalikda namoyon bo'lishi natijasida alloxtionning tuz osti tuzilmasi gumbazi tuz usti tuzilmasi gumbaziga nisbatan 6 km shimoli-g'arbga, surilma tekisligining pasayish tomoniga siljigan. Bu tuz osti Gadjak strukturasi ko'ndalang o'lchamlaridan katta va tuz usti strukturaviy planida unga sharqiy yo'nalishda bo'r-paleogen gorizontlarining monoklinal ko'tarilishi mos keladi (2-rasm).



2-rasm. Boysun egilmasining geologik kesimi.

Tadqiqot natijalari. Gadjak maydonidan tashqari, Boysun egilmasining shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan Darband maydonida ikkita chuqur quduq yordamida tuz osti yura davri karbonat formatsiya hosilalari ochilgan. Karbonat formatsiya yuqori qismi tuz osti kompleksi yotish chuqurligi 400 m dan oshmaydi. Derbent strukturasi ham nadvig bilan bog'liq, ammo faktik materialning cheklanganligi tufayli uning morfologiyasi haqida fikr yuritish qiyin (quduqlar burg'ilash bilan tugallanmagan).

Boysun egilmasi hududining qolgan qismida geologik ma'lumotlarga ko'ra ajratilgan, ammo geofizik materiallarning past sifati tufayli istiqbolli strukturalar kiritilmagan tuz osti karbonat formatsiya yotqizilari ko'tarilmalari ma'lum.

Boysun egilmasining janubi-sharqiy qismida MOV (Yachmennikov, 1972) va MOGT (Sayfi, 1976) seysmorazvedka ishlari bilan Zarabog' tuz osti strukturasi chuqur burg'ilashga tayyorlangan. 1979 yilda u bo'yicha materiallar Gadjakda burg'ilangan quduqlar ma'lumotlarini hisobga olgan holda qayta talqin qilindi. Zarabog' tuz osti strukturasi izogips bo'yicha o'lchamlari minus 4950 m (Kellovey-oksford tomi) 6,5 x 5,5 bo'lgan buzilmagan braxiantiklinal bilan ifodalanadi. Tuz usti kompleksida tuz osti ko'tarilishga pastki bo'r gorizontlarigacha chuqur burg'ilash bilan o'rganilgan braxiantiklinal javob beradi. Maydon doirasida uzilmali buzilishlar qayd etilmagan. Kimerij-titon tuzlari qalinligining farqi 100-150 m dan oshmaydi (geofizika ma'lumotlariga ko'ra). Tuz osti ko'tarilma gumbazi va tuz usti tuzilmasi gumbazining taxminiy mos kelishi kuzatiladi.

Surxondaryo megasinklinalidagi tuz osti komplekslarining yuqorida keltirilgan strukturaviy tuzilishini umumlantirib, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Tuz osti yura gorizontlari strukturaviy planining umumiy xarakterini hozirgi vaqtda faktik materiallarning yetishmasligi tufayli bir ma'noda talqin qilib bo'lmaydi.

Каршинский государственный
технический университет,
доцент, Карши, Узбекистан

Аннотация. В статье исследованы теплофизические, термомеханические и огнезащитные свойства эпоксидных полимерных композиционных покрытий, модифицированных бинарными наполнителями, минеральными компонентами и вспучивающимися антипиреновыми добавками. В качестве объекта исследования выбрано теплозащитное композиционное покрытие на основе эпоксидной смолы марки ВЭП-3. Термическая стабильность материала оценивалась методами дифференциально-термогравиметрического анализа, кинетики потери массы, термомеханической деформации, кислородного индекса и коэффициента дымообразования. Установлено, что для образца ВЭП-3 эндотермический эффект наблюдается при температуре 283,57 °С, а суммарная потеря массы в диапазоне 21,07–801 °С составляет 48,285 %. Оптимальное использование антипиренов, вермикулита, углеродных нанотрубок и вспучивающихся добавок позволило повысить кислородный индекс с 17–19 % до 35–38 % и снизить дымообразование. Полученные результаты подтверждают перспективность применения вспучивающихся эпоксидных покрытий в качестве эффективных тепло- и огнезащитных материалов.

Ключевые слова: эпоксидная смола, полимерный композиционный материал, бинарный наполнитель, термическая стабильность, вспучивающееся покрытие, антипирен, кислородный индекс, термогравиметрический анализ, коэффициент дымообразования.

INVESTIGATION OF THE THERMOPHYSICAL AND FIRE-RESISTANCE PROPERTIES OF EPOXY POLYMER COMPOSITE COATINGS BASED ON BINARY FILLERS

**Rahmankulov Alijul
Amirkulovich**

Karshi State Technical University,
Professor of the Department of
Natural Sciences, Karshi,
Uzbekistan

**Maxmanov Ergash
Binokulovich**

Karshi State Technical University,
Associate Professor of the
Department of Natural Sciences,
Karshi, Uzbekistan

**Khaydarov Tuymurod
Zoyirovich**

Karshi State Technical University,
Associate Professor of the
Department of Natural Sciences,
Karshi, Uzbekistan

**Ruziyev Rufat
Toshboevich**

Karshi State Technical University,
Associate Professor of the
Department of Natural Sciences,
Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article investigates the thermophysical, thermomechanical, and fire-resistant properties of epoxy polymer composite coatings modified with binary fillers, mineral components, and intumescent flame-retardant additives. A heat-protective composite coating based on VEP-3 epoxy resin was selected as the research object. The thermal stability of the material was evaluated using differential thermogravimetric analysis, mass-loss kinetics, thermomechanical deformation, oxygen index, and smoke generation coefficient. The results showed that the VEP-3 sample exhibited an endothermic effect at 283.57 °C, while the total mass loss within the temperature range of 21.07–801 °C reached 48.285%. The optimal incorporation of flame retardants, vermiculite, carbon nanotubes, and intumescent additives increased the oxygen index from 17–19% to 35–38% and significantly reduced smoke generation. The obtained results confirm the potential of intumescent epoxy composite coatings as effective thermal and fire-protective materials.

Keywords: epoxy resin, polymer composite material, binary filler, thermal stability, intumescent coating, flame retardant, oxygen index, thermogravimetric analysis, smoke generation coefficient.

Kirish. Hozirgi davrda iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat ishlab chiqarishi, energetika, mashinasozlik, qurilish, transport va texnologik infratuzilmalarning jadal rivojlanishi yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan yangi avlod polimer kompozit materiallarini yaratishni dolzarb ilmiy-texnik muammolardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa,

yuqori harorat, ochiq alanga, oksidlovchi muhit, mexanik yuklama va agressiv tashqi ta'sirlar sharoitida uzoq muddat ishlay oladigan termik barqaror, yong'inga chidamli va issiqlikdan himoyalovchi polimer qoplamalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, epoksid smolalari asosida olinadigan polimer kompozit

qoplamalar yuqori adgezion mustahkamlik, kimyoviy barqarorlik, texnologik qulaylik va modifikatsiyalash imkoniyatlarining kengligi bilan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Polimer kompozit materiallarning funksional xossalarini maqsadli boshqarish, avvalo, ularning tarkibiga kiritiladigan to'ldiruvchilar, antipirenlar, plastifikatorlar, qotiruvchilar va qavariqlanuvchi kimyoviy qo'shimchalarning tabiati, dispersligi, massa ulushi hamda polimer matritsa bilan o'zaro ta'sirlashuv mexanizmlariga bog'liq. Bunda binar yoki ko'p komponentli to'ldiruvchilar tizimidan foydalanish kompozitning termik barqarorligini oshirish, issiqlik oqimini sekinlashtirish, karbonlangan himoya qatlami hosil qilish, kislorodning polimer matritsaga kirib borishini cheklash hamda yonish jarayonida ajraladigan tutun va uchuvchan mahsulotlar miqdorini kamaytirish imkonini beradi [1].

Polimer kompozit materiallarning termik xossalarini chuqur o'rganish uchun differensial-termogravimetrik tahlil muhim ilmiy usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida materialning haroratga bog'liq massa yo'qotishi, endotermik va ekzotermik effektlari, termik destruksiya bosqichlari hamda qoldiq massa miqdori aniqlanadi. Ayniqsa, yong'indan himoyalovchi qoplamalar uchun termogravimetrik tahlil natijalari materialning real ekspluatatsion sharoitdagi barqarorligini baholashda asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, termomexanik tahlil polimer kompozit materiallarning harorat ta'sirida deformatsion holatini aniqlash, yumshash, shishish, qavariqlanish va yuqori elastik holatga o'tish jarayonlarini baholash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlar, ayniqsa, qoplama materialining konstruksion yuzaga mahkam yopishib turishi, issiqlik ta'sirida yorilmasligi, qatlamlanmasligi va himoya funksiyasini saqlab qolishi uchun muhimdir.

Shu bois mazkur tadqiqotda epoksid smolasi asosida olingan VEP-3 markali polimer kompozit qoplamaning termo-fizik, termomexanik va o'tga chidamlilik xossalari kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqotda kompozit tarkibidagi epoksid smola, tiokol kauchuk, vermikulit, uglerod nanotubalari, urotropin, ammosfos va qotiruvchi komponentlarning materialning termik barqarorligi,

kislorod indeksi hamda tutun hosil qilish xususiyatlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi. Epoksid smolalari asosidagi intumessent polimer kompozit qoplamalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor materialning termik barqarorligini oshirish, kislorod indeksini yuqorilatish, issiqlik ajralish tezligini kamaytirish hamda tutun hosil bo'lishini cheklashga qaratilgan. Kukushkin V.A. va hammualliflari intumessent epoksid qoplamalarda polimer bog'lovchi, gaz hosil qiluvchi komponent, karbon hosil qiluvchi modda va fosforli antipirenlarning o'zaro ta'siri natijasida past issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan qavariqlangan karbon qatlam shakllanishini asoslagan [2,3].

Nazrun T. va hammualliflari esa intumessent qoplamalarning formulasi, ishlab chiqarish usullari va yong'indan himoyalash mexanizmlarini tahlil qilib, bunday tizimlarda tarkibiy komponentlarning optimal nisbati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan [4].

Wang Z.Z., Wang Y. va Hu Y. tomonidan epoksid smolasi tarkibiga ammoniy polifosfat va pentaeritritol asosidagi intumessent tizimlar kiritilishi o'rganilgan. Ularning natijalariga ko'ra, 20% ammoniy polifosfat qo'shilganda kompozitning kislorod indeksi 35 % gacha oshgan va material UL-94 V-0 darajasiga erishgan. Bu fosforli antipirenlarning epoksid matritsada karbonlanish jarayonini jadallashtirishini ko'rsatadi [5].

Lu va hammualliflari epoksid kompozitlarga ammoniy polifosfat hamda 2 % ko'p devorli uglerod nanotubalari kiritilganda kislorod indeksi 36,8 % ga yetishini aniqlagan. Shu bilan birga, maksimal issiqlik ajralish tezligi 83,5 %, tutun bilan bog'liq ko'rsatkichlar esa qariyb 50 % gacha kamaygan. Bu uglerod nanotubalari karbonlangan qatlamning zichligi va mexanik barqarorligini oshirishini ko'rsatadi [6,7].

Murtazaev K.M. va hammualliflari epoksid smolasi asosidagi qavariqlanuvchi yong'indan himoyalovchi kompozit qoplamalarda pentaeritritol, urotropin va fosforli antipirenlarning ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pentaeritritol asosidagi tarkiblarda kislorod indeksi 30–34 % oralig'ida bo'lgan, fosfatli modifikatorlar kiritilganda esa bu ko'rsatkich 38 % gacha oshgan. Shuningdek, tutun hosil qilish koeffitsientining kamayishi fosforli komponentlarning karbonlangan

himoya qatlamini shakllantirishdagi rolini tasdiqlaydi [8].

Wang J. va hammualliflari alyuminiy–fosfor–imidazol komplekslari bilan modifikatsiyalangan epoksid tizimlarni tadqiq etib, kislorod indeksining 35% ga yetishini, UL-94 V-0 darajasi ta'minlanishini va umumiy tutun miqdori 38,7% ga kamayishini aniqlagan. Qu Q. va hammualliflari esa CNT@APP tipidagi intumessent tizimlarda uglerod nanotubalari va ammoniy polifosfatning sinergetik ta'siri hisobiga maksimal issiqlik ajralish tezligi 68,4%, umumiy tutun hosil bo'lishi esa 49,3% ga kamayishini ko'rsatgan [9, 10].

Umuman olganda, tahlil qilingan tadqiqotlar epoksid asosidagi intumessent polimer kompozitlarda fosforli antipirenlar, gaz hosil qiluvchi qo'shimchalar, mineral to'ldiruvchilar va uglerodli nanoto'ldiruvchilar birgalikda qo'llanganda yong'indan himoyalash samaradorligi sezilarli oshishini ko'rsatadi. Biroq VEP-3 markali epoksid qoplama tarkibida vermikulit, uglerod nanotubalari, ammosfos va urotropin kabi komponentlarning binar to'ldiruvchi tizim sifatidagi kompleks ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda VEP-3 kompozit qoplamasining termik barqarorligi, massa yo'qotish kinetikasi, kislorod indeksi va tutun hosil qilish koeffitsienti o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

Tadqiqot materiallari va metodlari.

Tadqiqotda epoksid smolasi polimer bog'lovchi sifatida qo'llanildi. Kompozit tarkibini modifikatsiyalash maqsadida tiokol kauchuk, vermikulit, uglerod nanotubalari, urotropin, ammosfos va polietilenpoliamin tipidagi qotiruvchi komponentlardan foydalanildi. Ushbu komponentlar polimer matritsaga ma'lum massa nisbatlarida kiritilib, termik barqaror va qavariqlanuvchi himoya qatlami hosil qilishga yo'naltirilgan kompozit tizim shakllantirildi [11].

Kompozit namunalarining termik xossalari differensial-termogravimetrik tahlil orqali o'rganildi. Bunda harorat ortishi bilan namuna massasining kamayishi, endotermik va ekzotermik effektlar, destruksiya bosqichlari hamda qoldiq massa miqdori aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida haroratni oshirish tezligi 5, 10 va 20 °C/min oralig'ida belgilangan bo'lib, polimer kompozit materiallar uchun termik tahlil 600–700 °C, termik barqaror materiallar uchun esa 850–950 °C

oralig'ida baholandi.


$$\vartheta_m = \Delta m / \Delta \tau$$

bu yerda: Δm — namunaning massa yo'qotishi, mg; $\Delta \tau$ — vaqt oralig'i, min.

Termomexanik tahlilda VEP-3 polimer kompozit namunasi yuzasiga 20 N doimiy kuch ta'sir ettirilib, harorat 350 °C gacha oshirib borildi. Ushbu usul yordamida namunaning haroratga bog'liq deformatsiyasi, shishish, yumshash va yuqori elastik holatga o'tish jarayonlari baholandi [12].

O'tga chidamlilik xossalarini baholashda kislorod indeksi va tutun hosil qilish koeffitsienti asosiy mezon sifatida olindi. Kislorod indeksi kompozitning yonishni davom ettirishi uchun zarur bo'lgan minimal kislorod miqdorini tavsiflaydi. Tutun hosil qilish koeffitsienti esa materialning termik parchalanish yoki yonish sharoitida ajratadigan optik zichlikka ega tutun mahsulotlari miqdorini ifodalaydi.

Natijalar va ularning muhokamasi. VEP-3 markali epoksid polimer kompozit qoplamaning differensial-termogravimetrik tahlili. Epoksid smolasi asosida olingan VEP-3 markali issiqlikdan himoyalovchi polimer kompozit qoplamaning termik barqarorligini baholash uchun differensial-termogravimetrik tahlil natijalari o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, namunaning termik parchalanishi bir bosqichli oddiy jarayon emas, balki bir necha ketma-ket fizik-kimyoviy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarda namlik va past molekulyar uchuvchan moddalarning ajralishi, polimer matritsaning yumshashi, epoksid zanjirlarning destruksiyasi, oksidlanish reaksiyalari hamda karbonlangan qoldiq qatlarning shakllanishi kuzatiladi.



1-rasm. Epoksid smolasi asosidagi VEP-3 markali issiqlikdan himoyalovchi polimer komponentli qoplama namunasini differensial-termogravimetrik tahlillari DTA; TGA.

DTA va termogravimetrik tahlil natijalari VEP-3 kompozit qoplamasining yuqori harorat ta'sirida bosqichma-bosqich strukturaviy o'zgarishlarga uchrashini ko'rsatdi. 283,57 °C da kuzatilgan endotermik effekt polimer bog'lovchi va qo'shimcha komponentlarning yumshashi, ichki bog'larning zaiflashishi hamda destruksiya jarayonining boshlanishi bilan izohlanadi. TG tahliliga ko'ra, 21,07–225,90 °C oralig'ida kichik massa yo'qotilishi namlik va uchuvchan moddalarning ajralishi bilan bog'liq bo'lsa, 225,90–512,46 °C oralig'i asosiy termik destruksiya sohasi hisoblanadi. Ushbu bosqichda polimer zanjirlar parchalanib, intumescens tizim faollashadi. 512,46–801 °C oralig'ida esa karbonlangan qoldiq qatlam va issiqlikka chidamli himoya fazasi shakllanadi. Umumiy massa yo'qotilishining 48,285% ni tashkil etishi kompozitning yuqori haroratda yetarli darajada qoldiq massa saqlab qolishini va termik barqarorligini tasdiqlaydi.

1-jadval

VEP-3 markali epoksid polimer kompozit qoplamaning haroratga bog'liq massa yo'qotish ko'rsatkichlari

Harorat oralig'i, °C	Massa yo'qotilishi, mg	Jarayonning ilmiy talqini
0–100	0,15	Namlik va past molekulyar uchuvchan komponentlarning ajralishi
100–200	0,23	Polimer matritsada dastlabki termik faollashuv
200–300	0,48	Endotermik o'zgarishlar va destruksiya boshlanishi
300–400	1,27	Epoksid zanjirlarning faol termik parchalanishi
400–500	1,62	Organik komponentlarning oksidlanishi va gaz ajralishi
500–600	1,95	Qavariqlanish va karbonlangan qatlam shakllanishi
600–700	2,26	Mineral to'ldiruvchilar ishtirokida qoldiq qatlam barqarorlashuvi
700–827	2,52	Yuqori haroratli termik parchalanishning yakuniy bosqichi

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, kompozit materialda massa yo'qotish harorat ortishi bilan bosqichma-bosqich jadallashadi. Biroq yuqori harorat oralig'ida mineral to'ldiruvchilar va antipiren qo'shimchalarning ishtiroki polimer matritsaning to'liq yonib ketishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa VEP-3 qoplamasining issiqlikdan himoyalovchi material sifatidagi amaliy ahamiyatini oshiradi.

Massa yo'qotish kinetikasini baholash kom-

pozitning qaysi harorat oralig'ida eng faol destruksiyaga uchrashini aniqlash imkonini beradi. VEP-3 namunasida eng muhim o'zgarishlar 225,90–512,46 °C oralig'ida sodir bo'lgani uchun aynan ushbu soha materialning termik barqarorligini baholashda asosiy mezon sifatida qaraladi.

Termomexanik xossalarning tahlili.

Epoksid smolasi asosidagi VEP-3 polimer kompozit qoplamaning termomexanik xossalari 20 N doimiy kuch ta'sirida, haroratni 350 °C gacha oshirish sharoitida o'rganilgan. Tahlil natijalari kompozit materialning haroratga bog'liq deformatsiyasi bir necha xarakterli bosqichdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

2-jadval

VEP-3 kompozitining haroratga bog'liq deformatsion o'zgarishlari

№	Harorat oralig'i, °C	Deformatsiya oralig'i, mm	Jarayon tavsifi
1	0–50	0 dan –1 gacha	Dastlabki barqaror holat
2	50–100	–1 dan 2 gacha	Termik kengayish boshlanishi
3	100–150	2 dan –10 gacha	Yumshash va ichki strukturaviy siljish
4	150–200	–10 dan –20 gacha	Shishish va deformatsion faollashuv
5	200–250	–20 dan –31 gacha	Qavariqlanishga tayyorgarlik bosqichi
6	250–290	–31 dan 0 gacha	Ichki bosim va hajmiy o'zgarishlarning ortishi
7	290–350	0 dan 400 gacha	Yuqori elastik-yumshash va faol qavariqlanish holati

Dastlabki 0–50 °C oralig'ida namuna deformatsiyasi deyarli sezilsiz bo'lib, 0 mm dan –1 mm gacha o'zgaradi. Bu holat materialning past haroratlarda qattiq, nisbatan barqaror va elastik deformatsiyaga kam moyil ekanligini bildiradi. 50–100 °C oralig'ida esa deformatsiya –1 mm dan 2 mm gacha o'zgaradi. Bu bosqichda polimer matritsada ichki kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi va dastlabki termik kengayish jarayonlari yuzaga keladi.

100–250 °C oralig'ida deformatsiyaning manfiy qiymatlar tomonga o'zgarishi material ichida shishish, qavariqlanishga tayyorgarlik, bog'lovchi fazaning yumshashi va ichki strukturaviy qayta tashkil topish jarayonlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, 200–250 °C oralig'ida deformatsiya –20 mm dan –31 mm gacha yetishi kompozitda termik ta'sir ostida sezilarli ichki hajmiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rsatadi.

290–350 °C oralig'ida deformatsiyaning kes-

kin ortishi va 0 mm dan 400 mm gacha yetishi VEP-3 kompozitining yuqori elastik-yumshash holatga o'tishi hamda qavariqlanuvchi tizimning faol ishga tushishi bilan bog'liq. Bu holat yong'indan himoyalovchi qoplamalar uchun muhim hisoblanadi, chunki aynan shu bosqichda material issiqlik oqimini to'suvchi ko'piksimon himoya qatlamini hosil qilishi mumkin.

Termomexanik tahlil natijalari VEP-3 polimer kompozit qoplamaning yuqori harorat ta'sirida oddiy yumshab oqib ketuvchi material emasligini, balki muayyan harorat oralig'ida qavariqlanib, issiqlikdan himoyalovchi qatlam hosil qilish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu xususiyat epoksid smolasi, tiokol kauchuk, mineral to'ldiruvchilar va gaz hosil qiluvchi qo'shimchalarning o'zaro sinergetik ta'siri bilan bog'liq.

Kislorod indeksining o'zgarishi. Polimer kompozit materiallarning o'tga chidamlilik xossalari baholashda kislorod indeksi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Kislorod indeksi materialning yonishni davom ettirishi uchun zarur bo'lgan minimal kislorod konsentratsiyasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, materialning alanganishga moyilligi shuncha past bo'ladi.

Tajriba natijalariga ko'ra, sof epoksid smolaning kislorod indeksi 17–19% atrofida bo'lgan. Bu qiymat epoksid smolaning o'zi alanga ta'sirida yonishga moyil material ekanligini ko'rsatadi. Biroq kompozit tarkibiga tiokol kauchuk, addukt ammos, vermikulit, uglerod nanotubalari, urotropin va qotiruvchi komponentlar kiritilganda kislorod indeksi 35–38% gacha oshgan. Bu esa modifikatsiyalangan epoksid kompozitning alanganishga chidamliligi sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi.

3-jadval

Kompozit tarkibining kislorod indeksiga ta'siri

Tarkib komponentlari	Massa ulushi, %	Kislorod indeksi, %
Epoksid smola	—	17–19
Epoksid smola	30	35
Tiokol kauchuk	5,0	
Addukt ammos	10	
Vermikulit	30	
Uglerod nanotubalari	5	
Urotropin	15,5	
PEPA	4,5	
Epoksid smola	32	38
Tiokol kauchuk	5,0	
Addukt ammos	12	
Vermikulit	41,5	
Uglerod nanotubalari	5	
PEPA	4,5	

Jadvaldan ko'rinadiki, vermikulit va ammos miqdorining oshirilishi kislorod indeksining yuqorilashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Buning asosiy sababi shundaki, vermikulit yuqori haroratda issiqlik oqimini sekinlashtiruvchi mineral to'siq vazifasini bajaradi, ammos esa fosfor saqlovchi antipiren sifatida polimer yonish jarayonida karbonlangan qatlam hosil bo'lishini jadallashtiradi. Uglerod nanotubalari esa qoldiq qatlamning mexanik yaxlitligi va issiqlikka chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Tutun hosil qilish koeffitsienti tahlili.

Yong'indan himoyalovchi polimer kompozit qoplamalar uchun faqat alanganishga chidamlilik emas, balki tutun hosil qilish xususiyati ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki polimer materiallar yonishi yoki termik parchalanishi vaqtida ajraladigan tutun inson salomatligi, ko'rish masofasi, evakuatsiya xavfsizligi va ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan katta xavf tug'diradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sof epoksid smola uchun tutun hosil qilish koeffitsienti 425–430 m²/kg atrofida bo'lgan. Kompozit tarkibiga kaolin, vermikulit, uglerod nanotubalari, urotropin va ammos kabi qo'shimchalar kiritilganda bu ko'rsatkich 320–362 m²/kg gacha kamaygan. Ayniqsa, ammos saqlovchi tarkibda tutun hosil qilish koeffitsientining 320–360 m²/kg oralig'ida bo'lishi fosforli antipirenlarning tutun kamaytiruvchi samaradorligini tasdiqlaydi.

4-jadval

Epoksid polimer kompozit qoplamaning kislorod indeksi va tutun hosil qilish koeffitsienti

Tarkib	Qavariqlanish harorati, °C	Kislorod indeksi, %	Tutun hosil qilish koeffitsienti, m ² /kg
Epoksid smola	—	17–18	425–430
Epoksid smola + tiokol kauchuk + kaolin + vermikulit + UNT + urotropin	250–350	35	350–362
Epoksid smola + tiokol kauchuk + kaolin + vermikulit + UNT + ammos	350–450	38	320–360

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, epoksid smolasi asosidagi qavariqlanuvchi kompozit qoplamalarda fosfor saqlovchi antipirenlarning qo'llanilishi tutun hosil qilish jarayonini pasaytiradi. Bu holat yonish jarayonida fosforli birikmalarning polimer matritsa bilan o'zaro ta'sirlashib, karbonlangan himoya qatlamini

shakllantirishi va uchuvchan yonuvchan mahsulotlarning ajralishini cheklashi bilan izohlanadi.

Qavariqlanuvchi himoya qatlaming hosil bo'lish mexanizmi. VEP-3 markali epoksid polimer kompozit qoplamaning yong'indan himoyalash samaradorligi qavariqlanuvchi himoya qatlaming hosil bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Harorat ta'sirida kompozit tarkibidagi gaz hosil qiluvchi komponentlar parchalanib, uchuvchan mahsulotlar ajratadi. Shu bilan bir vaqtda antipirenlar polimer bog'lovchining karbonlanish jarayonini tezlashtiradi, mineral to'ldiruvchilar esa hosil bo'lgan qatlamning issiqlikka chidamliligini va mexanik barqarorligini oshiradi.

Natijada qoplama yuzasida ko'piksimon, g'ovak, past issiqlik o'tkazuvchanlikka ega karbonlangan qatlam hosil bo'ladi. Ushbu qatlam issiqlik oqimining asosiy materialga o'tishini sekinlashtiradi, kislorodning polimer matritsaga kirib borishini cheklaydi, uchuvchan yonuvchan mahsulotlarning ajralishini kamaytiradi, alanga bilan bevosita kontaktni susaytiradi hamda qoplamaning o'tga chidamlilik muddatini oshiradi.

Demak, VEP-3 kompozitining yuqori samaradorligi alohida komponentning emas, balki

epoksid smola, tiokol kauchuk, vermikulit, uglerod nanotubalari, urotropin va ammos fos kabi komponentlarning kompleks sinergetik ta'siri bilan belgilanadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida epoksid smolasi asosidagi VEP-3 markali polimer kompozit qoplamaning yuqori termik barqarorlik, qavariqlanuvchi himoya qatlam hosil qilish va o'tga chidamlilik xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi. Differensial-termogravimetrik tahlil kompozitning termik parchalanishi bir necha bosqichda kechishini ko'rsatib, yuqori haroratlarda karbonlangan barqaror himoya qatlam hosil bo'lishi tasdiqlandi. Termomexanik tahlil esa harorat ortishi bilan materialning yumshashi va qavariqlanuvchi struktura shakllanishini ko'rsatdi. Tarkibga tiokol kauchuk, vermikulit, uglerod nanotubalari, ammos fos, urotropin va PEPA kabi qo'shimchalar kiritilishi kislorod indeksini 35–38 % gacha oshirib, tutun hosil bo'lishini kamaytirdi. Natijalar modifikatsiyalangan VEP-3 kompozit qoplamaning issiqlik va yong'indan himoyalovchi samarali material sifatida qo'llash imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Ruziev, R., Nurkulov, F., Rakhmankulov, A., & Djalilov, A. (2023). Investigation of physico-chemical properties of heat-protective polymer materials. *International Scientific Journal Science and Innovation, Series A*, 2(9), 176–179.
- [2] Кукушкин, В. А., Субботин, В. Е., Щепетова, А. Ю., & Яшин, Н. В. (2023). Огнезащитная эффективность и адгезионная прочность терморасширяющихся композиционных материалов на основе эпоксидных смол, окисленного графита и армирующих наполнителей. *Фундаментальные и прикладные исследования в области химии и экологии*, 11.
- [3] Кукушкина, Ю. В., Зюкин, С. В., & Горбунова, И. Ю. (2011). Анализ кинетических моделей процесса отверждения композиции на основе ЭД-20 и диаминодифенилсульфона. *Успехи в химии и химической технологии*, 25(3), 119.
- [4] Рахмонкулов, А. А., Рўзиев, Р. Т., & Хайдаров, Т. З. (2022). Влияние электропроводящих наполнителей на структурные параметры и теплопроводность поливинилиденфторида. *Universum: технические науки*, 12(105), 5–10.
- [5] Shao, Z.-B., Zhang, J., Jian, R.-K., Sun, C.-C., Li, X.-L., & Wang, D.-Y. (2021). A strategy to construct multifunctional ammonium polyphosphate for epoxy resin with simultaneously high fire safety and mechanical properties. *Composites Part A: Applied Science and Manufacturing*, 149, 106529. <https://doi.org/10.1016/j.compositesa.2021.106529>
- [6] Yan, H., Wei, J., Yin, B., & Yang, M. (2015). Effect of the surface modification of ammonium polyphosphate on the structure and property of melamine–formaldehyde resin microencapsulated ammonium polyphosphate and polypropylene flame retardant composites. *Polymer Bulletin*, 72(10), 2723–2742. <https://doi.org/10.1007/s00289-015-1432-2>


- [7] Khaydarov, T. Z., Rahmankulov, A. A., Karimov, M. U., & Djalilov, A. T. (2023). Research of thermal analysis of polyethylene composites based on carbon nanotubes. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture*, 1(8), 69–72. <https://grnjournal.us/index.php/AJEMA/article/view/1094>
- [8] Муртазаев, К., Мухиддинов, Д., & Нуркулов, Ф. (2022). Наполненные эпоксидные композиты с повышенной огнестойкостью вспученные покрытия. *Аниқ фанлар серияси*, 3(133/1), 1–8. <https://doi.org/10.59251/2181-1296.v1.1312.116>
- [9] Wang, J., Wang, J., Yang, S., Xu, R., Ding, G., Liu, W., Sun, J., Chen, K., Duan, L., Zhou, G., Liu, X., & Huo, S. (2025). Metal-phosphorus-imidazole synergistic complexes for enhancing latency and fire safety in single-component epoxy resins. *Polymer Degradation and Stability*, 239, 111383. <https://doi.org/10.1016/j.polymdegradstab.2025.111383>
- [10] Khaydarov, T., & Qalandarov, F. (2025). Enhancing thermal stability of polyethylene composites through organo-inorganic modification. *Universum: Chemistry*, 137(11). <https://doi.org/10.32743/UniChem.2025.137.11.21041>
- [11] Рўзиев, Р. Т., Рахмонкулов, А. А., Нуркулов, Ф. Н., & Джалилов, А. Т. (2023). Исследование термических свойств высоконаполненных акриловых композиций. *Universum: технические науки*, 1(103), 17–19.
- [12] Рузиев, Р. Т., Рахмонкулов, А. А., Нуркулов, Ф. Н., & Джалилов, А. Т. (2023). Акрил сополимерлари асосидаги ВАМЖ-1 маркали иссиқликдан ҳимояловчи полимер композитли қопламанинг дериватаграмма ва СЭМ анализ натижаларини таҳлил қилиш. *ҚарДУ хабарлари*, 5/1(60), 7–11.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Rahmanqulov, A. A., Maxmanov, E. B., Xaydarov, T. Z., & Ro'ziyev, R. T. (2026). Binar to'ldiruvchilar asosida olingan epoksid polimer kompozit qoplamalarning termofizik va o'tga chidamlilik xossalarni tadqiq etish. *Sanoatda raqamli texnologiyalar / Digital Technologies in Industry*, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.18>

YENGIL SANOAT TARMOQLARI
ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
LIGHT INDUSTRIES

UO‘K: 677.21.021.151

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.13

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

LINTERLASH JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA
ILMIY TADQIQOTLARNING ANALITIK TAHLILI VA TADQIQOT
YO‘NALISHINI ASOSLASH



**Nazirov Raxmatjon
Rasulovich**

Totali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodim, t.f.n., dotsent, Toshkent, O‘zbekiston
ORCID ID: 0009-0006-68325428



**Karimov Maxmud
Raxmatovich**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, t.f.f.d., dotsent, Termiz, O‘zbekiston
ORCID ID: 0009-0007-2321-0341
Science ID: FSD-1125-0019



**Abduqahorov
No‘monbek Oybek o‘g‘li**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktaranti, Termiz, O‘zbekiston
ORCID ID: 0009-0006-4340-8227
Science ID: FSD-0326-0039



**Muxammadiyev Umarali
Sheralievich**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, t.f.f.d. (PhD), Termiz, O‘zbekiston
ORCID ID: 0009-0005-5548-5257
Science ID: FSD-1125-0016

Annotatsiya. Mazkur maqolada linterlash jarayoni samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, mavjud linterlar konstruksiyasining afzallik va kamchiliklari o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida linter ishchi kamerasidagi chigit to‘zitqichi konstruksiyasi jarayon samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlanib, uni takomillashtirish ilmiy tadqiqotning asosiy yo‘nalishi sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: linterlash, momiq, chigit, to‘zitqich, arrali silindr, chigit valigi, ishchi kamera, unumdorlik, zichlik, linter.

Received: 08.05.2026

Accepted: 08.06.2026

Published: 29.06.2026

АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО
ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА ЛИНТЕРОВАНИЯ И
ОБОСНОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ

**Назиров Рохматжон
Расулович**

Научно-исследовательский институт волокнистых культур, старший научный сотрудник, кандидат технических наук, доцент, Ташкент, Узбекистан

**Каримов Махмуд
Рахматович**

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент, Термез, Узбекистан

**Абдукахоров Нуманбек
Ойбек угли**

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, базовый докторант, Термез, Узбекистан

**Мухаммадиев Умарали
Шералиевич**

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, доктор философии (PhD) по техническим наукам, Термез, Узбекистан

Аннотация. В статье представлен аналитический обзор научных исследований, направленных на повышение эффективности процесса линтерования. Проведен анализ преимуществ и недостатков существующих конструкций линтеров. Установлено, что конструкция рыхлителя семян в рабочей камере оказывает существенное влияние на эффективность процесса, и обоснована необходимость его совершенствования как основного направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: линтерование, линт, семена хлопчатника, рыхлитель, пильчатый цилиндр, семенной валик, рабочая камера, производительность, плотность, линтер.

ANALYTICAL REVIEW OF SCIENTIFIC RESEARCH ON IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE LINTERING PROCESS AND JUSTIFICATION OF THE RESEARCH DIRECTION

**Nazirov Rakhmatjon
Rasulovich**

Research Institute of Fiber Crops,
Senior Research Fellow, Candidate
of Technical Sciences, Associate
Professor, Tashkent, Uzbekistan

**Karimov Makhmud
Rakhmatovich**

Termez State University of
Engineering and Agrotechnologies,
PhD in Technical Sciences,
Associate Professor, Termez,
Uzbekistan

**Abdukahorov Nomonbek
Oybek ugli**

Termez State University of
Engineering and Agrotechnologies,
Doctoral Researcher (PhD
Student), Termez, Uzbekistan

**Mukhammadiev Umarali
Sheralievich**

Termez State University of
Engineering and Agrotechnologies,
PhD in Technical Sciences, Termez,
Uzbekistan

Abstract. This article presents an analytical review of scientific research aimed at improving the efficiency of the lintering process. The advantages and disadvantages of existing linter designs were analyzed. The study revealed that the seed agitator design in the working chamber significantly affects process efficiency, and its improvement was substantiated as the main direction for further research.

Keywords: lintering, lint, cottonseed, seed agitator, saw cylinder, seed roll, working chamber, productivity, density, linter.

Kirish. Ma'lumki, linterning chigit bo'yicha o'tkazish qobiliyati momiq ajratib olish miqdoriga bog'liq. Linterlash jarayoni samaradorligi ko'p jihatdan chigit valigining zichligiga bog'liq bo'lib, bu zichlikni ta'minlash avtomatik tarzda zichlik regulatori orqali amalga oshirilishi lozim [1, 2].

Linterlash samaradorligini belgilaydigan muhim omillardan biri momiqni qirib olish intensivligi, ya'ni chigit massasi arra tishlari bo'ylab harakatanganda momiqning ajralishi va chigitlarning ishchi kameradan chiqarilishidir. Bu masala ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan [3, 4, 5].

A.D. Bekmuxamedov tadqiqotlarida chigit valigining shakllanishi va uning harakatlanish jarayonida to'zitqich asosiy rol o'ynashi ko'rsatib berilgan. To'zitqich aylanishi natijasida chigitlar markazdan qochma kuch ta'sirida ishchi kamera devorlariga siljib, tashqi zich va ichki nisbatan siyrak halqasimon qatlamlarni hosil qiladi. Ushbu qatlamlarning o'lchamlari va joylashuvi kamera kesimi hamda profiliga bog'liq holda o'zgaradi [6].

ЦНИИХпром olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'zitqichning diametri, ishchi kameradagi joylashuvi va aylanish chastotasi linter unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [7–9]. Jumladan, to'zitqich diametrining 115 mm dan 130 mm gacha oshirilishi chigit valigining aylanish tezligi hamda mashina unumdorligini yaxshilagan. Diametrni 180 mm gacha kattalashtirish va ishchi kamera hajmini kengaytirish ham unumdorlikni oshirgan bo'lsa-da, energiya sarfining ortishi va chigit valigi massasining ko'payishiga sabab bo'lgan.

B.A. Levkovich tadqiqotlarida to'rtta plankali to'zitqich eng samarali konstruktsiya sifatida tavsiya etilgan. Mazkur natijalar keyinchalik S.P. Ivanov va I.I. Xoxlov tomonidan ham tasdiqlangan. Ular 5LP linterida 2 tadan 8 tagacha plankali to'zitqichlarni sinovdan o'tkazib, eng yuqori samaradorlik aynan 4 plankali variantda kuzatilganini qayd etganlar [10]. Biroq ushbu tadqiqotlarda plankalar soni o'zgartirilgan bo'lsa-da, to'zitqich diametri va uning ishchi kameradagi joylashuvi bir xil

saqlangan.

I.I. Xoxlov linterlash jarayonining tezlik rejimlarini o'rganib, to'zitqich aylanish chastotasi linterning ish unumdorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan va uning qiymatini arrali silindr aylanish chastotasining 55–65 % oralig'ida tanlashni tavsiya etgan [10]. Shunga qaramay, amaliy sharoitlarda aylanish chastotalaridan ko'ra ishchi organlarning chiziqli tezliklari nisbatini hisobga olish maqsadga muvofiqroq deb qaraladi.

Linterlash samaradorligini oshirish hamda momiq sifatiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi natijasida 1970–1980-yillarda PMP-160M va 5LP rusumli zamonaviy linterlar ishlab chiqilib, sanoat korxonalarida joriy etilgan.

Bu mashinalarda linterlash jarayoni chigitlar oqimini ishchi kameraga berish va arralar tishlari orqali chigit yuzasidan momiqni qirib olish orqali amalga oshiriladi. Momiq ajratish darajasi to'zitqich plankasi vertikal qismi uchi bilan arrali silindr garniturasida yuzasi orasidagi masofa bilan belgilanadi. Momiq ajratish foizining pastligi (1,5–2,0 %) tufayli chigitlarni ishchi kameradan chiqarish qiyinlashadi. Bu esa ularning linterlash zonasida uzoq turishiga, mexanik shikastlanishining ortishiga va momiq sifati pasayishiga olib keladi.

Texnik tavsiflarga ko'ra, 5LP linterining unumdorligi: birinchi linterlashda: 2000–2300 kg/soat; ikkinchi va uchinchi linterlashda: mos ravishda 1500–1700 va 1200–1300 kg/soatni tashkil etadi [11, 12, 13].

Ammo amaliyot va tajribalar shuni ko'rsatadiki, seriyali ishchi kamera va standart to'zitqich bilan jihozlangan 5LP linteri texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan unumdorlikning faqat 50–60 % ini ta'minlaydi [11].

Tadqiqot metadalogiyasi Mashinalar unumdorligining pasayishi va mahsulot sifati yomonlashishining asosiy sabablaridan biri — to'zitqich konstruksiyasining takomillashmaganligidir (1-rasm). To'zitqich linterning asosiy ishchi organlaridan biri bo'lib, u aylanuvchi chigit valigini hosil qiladi va unga zarur zichlik beradi. Shu orqali linterlash jarayoni samaradorligi uchun asosiy shart-sharoit yaratiladi.

Chigit valigining zichlashuvi asosan plankalar orasidagi chigit massasining radial ko'chishi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, to'zitqich aylanganda chigitlar tashqi halqasimon qatlam bilan

o'zaro ta'sirlashib, uning aylanishini ta'minlaydi. Biroq konstruksiya kamchiliklari tufayli to'zitqich plankalari chigit valigida hosil bo'ladigan ariqchalarni to'liq bartaraf etmaydi. Bu esa arralar tishlarining, ayniqsa ularning yon yuzalari orqali momiqni qirib olishni cheklaydi va natijada mashinalar unumdorligi hamda momiq sifati pasayadi.


Shu sababli ishlab chiqarish talablarini qondirish uchun texnologik liniyalarda ikki batareya linter o'rnatiladi (PDI 30-2012), har biri 6 ta 5LP mashinalaridan iborat (jami 12 ta). Bu esa texnologik jarayonning murakkablashishiga, kapital va ekspluatatsiya xarajatlarining oshishiga hamda mahsulot tannarxining ko'payishiga olib keladi [11].

Linterlarning bosqichma-bosqich takomillashuvini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining oshishi asosan quyidagi omillar bilan bog'liq:

- linter ishchi kamerasi hajmining oshirilishi;
- to'zitqich diametri va aylanish chastotasining oshirilishi;
- arrali silindr validagi arralar sonining ko'paytirilishi.

Biroq bu o'zgarishlar umumiy kamchilikka ega bo'lib, energiya sarfining oshishi, kapital va ekspluatatsiya xarajatlarining ko'payishi, momiq va chigit sifati pasayishi, mahsulot tannarxining oshishi hamda texnologik jarayonning murakkablashuviga olib keladi.

So'nggi yillarda xorij amaliyotida Xitoyda ishlab chiqarilgan MR-144D rusumli linterlar qo'llanilmoqda. Ular "Lebed" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilib, "BEKTEMIR CHIGITNI LINTERLASH" korxonasiga o'rnatilgan [11].



1-rasm. 5LP linterining ishchi kamerasi sxemasi.

- 1 — ishchi kamera; 2 — to'zitqich; 3 — chigit tarog'i; 4 — kolosnik; 5 — arraliy silindr; 6 — zichlik klapani; 7 — plank; 8 — krestovina; 9 — val; 10 — flanes.

Tadqiqot natijalari. Xorijiy linterlarni o'rganish natijasida MR-144D linterlari konstruktsiya jihatdan mahalliy POM-160 linterlariga o'xshash ekanligi aniqlandi. Farqli jihatlari quyidagilar (2-rasm):

- ishchi kamera ko'ndalang kesim yuzasining kichraytirilganligi;


- kolosniklar profili konfiguratsiyasining o'zgartirilganligi;

- arralar sonining 144 tagacha kamaytirilishi (oraliq masofa 10 mm gacha oshirilgan);

- to'zitqich plankalari sonining 6 tagacha ko'paytirilishi;

- to'zitqich diametri taxminan 150 mm bo'lishi.

Bundan tashqari, Xitoy linterlarida momiq arralar tishlaridan havo yordamida emas, balki o'z-o'zidan tushirish usuli bilan ajratiladi. Bu esa ishlab chiqarish sexida changlanishni oshiradi va momiq yo'qotishlariga olib keladi.



2-rasm. MR-144D linterining ishchi kamerasi sxemasi

1 — ishchi kamera; 2 — to'zitqich; 3 — chigit tarog'i; 4 — kolosnik; 5 — arrali silindr; 6 — arra oraliq qistirmasi; 7 — zichlik klapani.

Aksincha, mahalliy linterlarda momiq havo oqimi yordamida arralardan ajratilib, konfuzorga uzatiladi, bu esa havo ifloslanishini va momiq yo'qotilishini kamaytiradi.

Xitoy linterlarining ishlash prinsipi asosan mahalliy linterlarga o'xshash. Ularning texnik ko'rsatkichlariga ko'ra unumdorlik: birinchi linterlashda: 3500–4500 kg/soat; ikkinchi va uchinchi linterlashda: mos ravishda 1000–1500 va 750–1000 kg/soatni tashkil etadi [11].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, chigitlarning boshlang'ich tukdorligi 11,6% va momiq ajratish o'rtacha 2,1% bo'lgan holda, Xitoy MR-144D linterining haqiqiy unumdorligi chigit bo'yicha 750 kg/mash.soatgacha, lint bo'yicha esa 30 kg/mash.soatgacha yetadi. BEKTEMIR CHIGITNI LINTERLASH" korxonasi o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari Xitoy linterlari mahalliy linterlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega emasligini ko'rsatdi [11].

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlil va ishlash prinsiplari umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, asosiy ishchi organ — to'zitqich konstruktsiyasining mukammal emasligi sababli chigitlarning o'q bo'ylab harakati ta'minlanmaydi hamda arrali silindr arralarining yon yuzalarini linterlash jarayoniga jalb etish yetarli darajada amalga oshmaydi. Bu esa mashinalarning chigit va momiq bo'yicha unumdorligini pasaytiradi, momiq va chigit sifati yomonlashadi, elektr energiyasi va resurslar sarfi ortib ketadi. Shuning uchun mazkur ilmiy tadqiqot ishining yo'nalishi sifatida linter ishchi kamerasidagi chigit to'zitqichini takomillashtirish tanlab olindi, natijada linterlash jarayoni samaradorligini oshirish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mashinalar ishonchliligi va unumdorligini oshirish hamda kapital va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga erishish kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Сулаймонов, Р. Ш., Каримов, У. К., & Маруфханов, Б. Х. (2014). Совершенствование базовых звеньев пыльного линтера и его освоение в производстве. Работа 01. Совершенствование рабочих органов линтера 5ЛП (Отчет НИР № 1406). АО «Пахта sanoat ilmiy markazi».
- [2] Дьячков, В. В., Фадин, А. А., & Бакиев, Р. А. (1990). Создание модернизированного пыльного линтера с элементами автоматического управления его работой (Отчет ЦНИИХпрома). ЦНИИХпром.

- [3] Нуралиев, Э. К. (1990). Повышение эффективности линтерования хлопковых семян путем совершенствования рабочей камеры линтера (Кандидатская диссертация). ТИТЛП.
- [4] Махмудов, Ю. А. (1994). Совершенствование рабочей камеры и процесса линтерования с целью повышения эффективности выработки линта (Кандидатская диссертация). ТИТЛП.
- [5] Искандаров, К. К. (1998). Повышение эффективности линтерования хлопковых семян путем совершенствования рабочих органов камеры линтера (Кандидатская диссертация). ТИТЛП.
- [6] Бекмухамедов, А. Д. (1972). Пути повышения производительности и улучшения качества продукции пильных линтеров (Кандидатская диссертация). ТИТЛП.
- [7] Омонов, Ф. Б. (Ред.). (2008). Пахтани дастлабки ишлаш бўйича справочник. Voris-nashriyot.
- [8] Салимов, А. М., & Исмоилов, А. (2018). Саноат соҳалари технологияси. ТИТЛП.
- [9] Салимов, А. М. (2018). Товаршунослик. ТИТЛП.
- [10] Лугачев, А. Е., Мардонов, Б. М., Сулаймонов, Р. Ш., Пайзиев, Б. И., & Лугачев, А. А. (2009). Разработка теоретических основ линтерования и очистки линта в технологическом процессе (Отчет НИР). ТИТЛП.
- [11] Сулаймонов, Р. Ш., & Мадрахимов, Д. У. (2012). Модернизация и внедрение линтера 5ЛП (Отчет НИР № 25у-2011). АО «Рахтасаноат ilmiy markazi».
- [12] Зикриёев, Э. (Ред.). (1999). Первичная переработка хлопка-сырца. Мехнат.
- [13] Салимов, А. М., Лугачев, А. Е., & Ходжиев, М. Т. (2018). Технология первичной обработки хлопка. Адабиёт учкунлари.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Nazirov, R. R., Karimov, M. R., Abduqahorov, N. O. O., & Muxammadiyev, U. Sh. (2026). Linterlash jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning analitik tahlili va tadqiqot yo'nalishini asoslash. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.13>

EKOLOGIYA, MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI
ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

UO'K: 628.3:541.18

 10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.4

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KOAGULYATSIYA JARAYONI ASOSIDA SANOAT OQAVA SUVLARINI
TOZALASHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YONDASHUVLARI



**Ikromov Abdulaziz
A'zamovich**

Toshkent davlat texnika universiteti
doktoranti, Toshkent, O'zbekiston
Science ID: FTN-0625-0027



**Urinov Ulug'bek
Komiljonovich**

Toshkent davlat texnika universiteti,
texnika fanlari doktori, Toshkent,
O'zbekiston



**Fayziyev Jahongir
Bahromovich**

Toshkent kimyo texnologiya ilmiy
tadqiqot instituti, texnika fanlari
doktori, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat oqava suvlarini tozalashda keng qo'llaniladigan koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayonining ilmiy asoslari hamda ilg'or texnologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Koagulyatsiya jarayoni kolloid va mayda dispers zarrachalarni destabilizatsiya qilish orqali ularni yirik floklarga birlashtirish va keyinchalik cho'ktirish imkonini beruvchi samarali fizik-kimyoviy usul sifatida qaraladi. Tadqiqotda metall asosli va metall bo'lmagan koagulyantlarning turlari, ularning xossalari hamda qo'llanish samaradorligi mavjud ilmiy manbalar asosida solishtirma tarzda o'rganildi. Shuningdek, jarayon samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan pH muhiti, koagulyant dozalari, harorat, aralashtirish sharoitlari va kolloid tizimlarning xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Turli sanoat oqava suvlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari asosida koagulyatsiya jarayonining qo'llanilish imkoniyatlari baholandi. Olingan tahliliy natijalar koagulyatsiya asosidagi tozalash texnologiyalarini takomillashtirish, optimal ish sharoitlarini aniqlash hamda samarali texnologik yechimlarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sanoat oqava suvlari, koagulyatsiya jarayoni, flokulyatsiya, koagulyantlar, suvni tozalash texnologiyalari, fizik-kimyoviy usullar, tozalash samaradorligi.

Received: 05.05.2026

Accepted: 15.05.2026

Published: 29.06.2026

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К
ОЧИСТКЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ СТОЧНЫХ ВОД НА ОСНОВЕ
ПРОЦЕССА КОАГУЛЯЦИИ

Икромов Абдулазиз
Азамович

Докторант, Ташкентский
государственный технический
университет, Ташкент,
Узбекистан

Уринов Улугбек
Комилжонович

Доктор технических наук,
Ташкентский государственный
технический университет,
Ташкент, Узбекистан

Файзиев Жахонгир
Бахромович

Ташкентский химико-
технологический научно-
исследовательский институт,
доктор технических наук,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются научные основы и современные технологические подходы к процессу коагуляции–флокуляции, широко применяемому при очистке промышленных сточных вод. Процесс коагуляции рассматривается как эффективный физико-химический метод, обеспечивающий дестабилизацию коллоидных и мелкодисперсных частиц с последующим их объединением в крупные флокулы и осаждением. В исследовании проведён сравнительный анализ различных типов коагулянтов (на основе металлов и неметаллических соединений), их свойств и эффективности применения на основе существующих научных источников. Также системно проанализированы основные факторы, влияющие на эффективность процесса, включая pH среды, дозировку коагулянтов, температуру, условия перемешивания и характеристики коллоидных систем. На основе физико-химических показателей различных промышленных сточных вод оценены возможности применения коагуляционного метода. Полученные результаты служат научной основой для совершенствования технологий очистки воды, определения оптимальных условий процесса и разработки эффективных технологических решений.

Ключевые слова: промышленные сточные воды, коагуляция, флокуляция, коагулянты, технологии очистки воды, физико-химические методы, эффективность очистки.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPROACHES TO INDUSTRIAL WASTEWATER TREATMENT BASED ON THE COAGULATION PROCESS

Ikromov Abdulaziz
Azamovich

Doctoral student, Tashkent State
Technical University, Tashkent,
Uzbekistan

Urinov Ulugbek
Komiljonovich

Doctor of Technical Sciences,
Tashkent State Technical
University, Tashkent, Uzbekistan

Fayziyev Jahongir
Bahromovich

Doctor of Technical Sciences,
Tashkent Chemical-Technological
Research Institute, Tashkent,
Uzbekistan

Abstract. This article examines the scientific foundations and advanced technological approaches to the coagulation–flocculation process widely used in the treatment of industrial wastewater. Coagulation is considered an effective physicochemical method that enables the destabilization of colloidal and finely dispersed particles, followed by their aggregation into larger flocs and subsequent sedimentation. The study provides a comparative analysis of various types of coagulants (metal-based and non-metal-based), their properties, and application efficiency based on existing scientific sources. Additionally, the main factors affecting process efficiency, including pH conditions, coagulant dosage, temperature, mixing conditions, and characteristics of colloidal systems, are systematically analyzed. Based on the physicochemical parameters of different industrial wastewaters, the applicability of the coagulation process is evaluated. The obtained results serve as a scientific basis for improving water treatment technologies, determining optimal operating conditions, and developing effective technological solutions.

Keywords: industrial wastewater, coagulation process, flocculation, coagulants, water treatment technologies, physicochemical methods, treatment efficiency.

Kirish. Sanoat oqava suvlarini samarali | tozalash bugungi kunda ekologik barqarorlikni

ta'minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayoni yuqori tezlikda kechishi hamda loyqalilik, og'ir metall ionlari va kolloid zarrachalarni samarali bartaraf etish qobiliyati bilan ajralib turadi [3]. Jarayon davomida suspenziyadagi mayda zarrachalar zaryadlarining neytrallanishi natijasida yirik floklar hosil bo'ladi va ular cho'ktirish orqali suvdan ajratiladi, bu esa tozalash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli mazkur usul sanoat miqyosidagi oqava suvlarni tozalash texnologiyalari orasida eng keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Biroq koagulyatsiya jarayoni har doim ham ideal sharoitda kechmaydi. Masalan, past harorat sharoitida mayda va mustahkam bo'lmagan floklar hosil bo'lishi mumkin, ular tashqi mexanik ta'sirlar ostida oson parchalanadi va cho'kish jarayonini qiyinlashtiradi. Bu holat tozalash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, jarayonni optimallashtirish, ya'ni koagulyatsiya va flokulyatsiya bosqichlarini takomillashtirish orqali yuqori sifatli tozalangan suv olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Amaliyotda ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida koagulyatsiya yordamchi moddalaridan foydalaniladi [7]. Ular hosil bo'ladigan floklarning cho'kish tezligini oshiradi, zarrachalarning birikishini kuchaytiradi va natijada suvni ajratish jarayonini yaxshilaydi. So'nggi yillarda turli xil noorganik va organik tabiatga ega koagulyantlar sanoat va maishiy oqava suvlarni tozalashda keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, oddiy cho'ktirish yoki filtrlash usullari asosan suspenziyadagi zarrachalarni ajratishda samarali bo'lsa-da, erigan moddalar va kolloid tizimlarni bartaraf etishda yetarli natija bermaydi. Aynan koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayoni kolloid zarrachalarni samarali olib tashlashga imkon beruvchi asosiy texnologik bosqich hisoblanadi [2].

Koagulyatsiya jarayonining nazariy asoslari va mexanizmlari. Koagulyatsiya suv va sanoat oqava suvlarini tozalashda keng qo'llaniladigan asosiy fizik-kimyoviy jarayonlardan biri bo'lib, u yuqori samaradorligi va texnologik jihatdan soddaligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon mikro-kolloid zarrachalar va suspenziyadagi qattiq moddalarni ajratib olishda muhim rol o'ynaydi. Koagulyatsiya jarayonida maxsus

reagentlar — koagulyantlar qo'llanilib, ular zarrachalar yuzasidagi elektr zaryadlarni neytrallash orqali ularning bir-biriga yaqinlashishi va yiriklashishini ta'minlaydi [6]. Natijada yirik floklar hosil bo'lib, ular keyinchalik cho'ktirish yoki filtrlash orqali suvdan ajratiladi.


Koagulyatsiya mexanizmi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularga muhitning pH darajasi, koagulyant miqdori, zarrachalarning zaryad xususiyatlari va eritmaning fizik-kimyoviy holati kiradi. Mazkur parametrlarning o'zaro ta'siri koagulyatsiya samaradorligini belgilaydi (1-rasm). Optimal sharoitlarda zarrachalarning destabilizatsiyasi tezlashadi va yirik, barqaror floklar hosil bo'ladi. Aks holda, hosil bo'lgan floklar mayda yoki beqaror bo'lishi mumkin.

1-jadval

Sanoat oqava suvlarining asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Oqava suv manbai	COD (mg O ₂ /l)	BOD ₅ (mg O ₂ /l)	Polifenollar miqdori (mg/l)	pH oralig'i	Biodegradatsiya indeksi
Chiqindi poligon filtrati	25000–60000	4000–15000	–	>7.5	<0.1
Farmatsevtika sanoati	7893–32500	1692–6000	–	4.0–9.2	0.09–0.59
Qog'oz-sellyuloza sanoati	1500–3800	560–1200	190–220	8–10	<0.2
Maishiy oqava suvlar	500–1000	250–500	–	7.2–8.4	>0.5

Suv tizimlarida uchraydigan kolloid zarrachalar asosan ikki turga ajratiladi: gidrofob va gidrofil kolloidlar. Gidrofob kolloidlar, masalan, loy zarrachalari va gidratlanmagan metall oksidlari, nisbatan beqaror bo'lib, ular koagulyatsiya jarayonida oson destabilizatsiyalanadi. Aksincha, gidrofil kolloidlar, jumladan sovun va ayrim organik moddalar, suv bilan mustahkam bog'langanligi sababli yuqori barqarorlikka ega bo'ladi va ularni ajratish nisbatan murakkab hisoblanadi. Bunday kolloidlar suvda barqaror dispers tizim hosil qilib, oddiy cho'ktirish usullari bilan ajratilishi qiyin kechadi.




1-rasm. Koagulyatsiya sxemasi.

Koagulyatsiya jarayoni asosan suv tarkibidagi suspenziyadagi zarrachalarni ajratishga qaratilgan bo'lsa-da, uning samaradorligi zarrachalarning kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, o'lchami, shakli va zichligiga bevosita bog'liq. Shu sababli koagulyant turini to'g'ri tanlash va jarayon parametrlarini ilmiy asosda optimallashtirish muhim hisoblanadi [9]. Mazkur yondashuv sanoat oqava suvlarini chuqur tozalashda koagulyatsiya asosidagi ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

Koagulyant tanlashning ilmiy asoslari.

Koagulyant tanlash suv va sanoat oqava suvlarini tozalash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi, chunki har bir koagulyant ma'lum fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega suv muhitida maksimal samaradorlikni namoyon etadi. Oqava suv tarkibi, jumladan uning kimyoviy va fizik ko'rsatkichlari, optimal koagulyant turini va uning dozasini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kimyoviy koagulyantlardan foydalanish sanoat oqava suvlarini dastlabki tozalashning asosiy usullaridan biri bo'lib, ular zarrachalar o'lchamini kattalashtirib, ularning tezroq cho'kishiga yordam beradi [1].

Amaliyotda keng qo'llaniladigan koagulyantlardan biri alyuminiy sulfat bo'lib, u iqtisodiy jihatdan maqbul va samaradorligi yuqori reagent hisoblanadi. Ushbu modda suvga qo'shilganda gidrolizlanib, alyuminiy gidroksidi hosil qiladi va kolloid zarrachalarni o'ziga biriktirib, floklar shakllanishiga olib keladi. Alyuminiy sulfatning samaradorligi muhitning pH qiymatiga bog'liq bo'lib, odatda neytralga yaqin sharoitlarda yuqori natija beradi. Gidroliz jarayonida hosil bo'ladigan alyuminiy ionlari turli shakllarda mavjud bo'lib, ularning xossalari pH va haroratga bog'liq ravishda o'zgaradi (2-rasm).



2-rasm. pH ga bog'liq holda alyuminiy gidroliz mahsulotlari (Al^{3+} , $Al(OH)^{2+}$, $Al(OH)_2^+$).

$Al(OH)_3$ ning taqsimlanish diagrammasi.

Temir asosidagi koagulyantlar ham sanoat oqava suvlarini tozalashda keng qo'llaniladi. Jumladan, temir (III) xlorid organik moddalarni olib tashlash va rangsizlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu koagulyantlar suvga qo'shilganda metall kationlar gidrolizlanib, polimer tuzilishga ega faol zarrachalarni hosil qiladi. Temir tuzlarining samaradorligi muhitning pH qiymatiga sezilarli darajada bog'liq bo'lib, ular kislotali sharoitda yanada faolroq bo'ladi. Past pH qiymatlarida erigan temir turlari musbat zaryadga ega bo'lib, kolloid zarrachalarni samarali destabilizatsiya qiladi, ishqoriy muhitda esa ularning zaryadi manfiy tomonga o'zgaradi.

So'nggi yillarda oldindan gidrolizlangan koagulyantlar, xususan polialyuminiy xlorid keng qo'llanila boshladi. Ushbu koagulyantning afzalligi shundaki, u pH o'zgarishlariga nisbatan kam sezgir bo'lib, past harorat sharoitida ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, u floklar hosil qilish jarayonini tezlashtiradi va suvda qoldiq alyuminiy miqdorini kamaytiradi. Shu jihatdan, polialyuminiy xlorid an'anaviy alyuminiy sulfatga nisbatan bir qator ustunliklarga ega bo'lib, zamonaviy suv tozalash texnologiyalarida muhim o'rin egallaydi.

Koagulyatsiya yordamchi moddalari tanlovi. Koagulyatsiya jarayonida yordamchi moddalarni to'g'ri tanlash tozalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kationik polimerlar suv tarkibidagi zarrachalarning elektr zaryadlarini neytrallashtirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Agar kolloid zarrachalar manfiy zaryadga ega bo'lsa, ushbu polimerlar ularni barqaror holatdan chiqarib, o'zaro yaqinlashishini ta'minlaydi. Natijada flokulyatsiya jarayoni sodir bo'lib, destabilizatsiyalangan zarrachalar gidravlik aralash-tirish kuchlari ta'sirida bir-biri bilan to'qnashadi va yirik agregatlar hosil qiladi. Dastlab mikrofloklar shakllanadi, keyinchalik ular yiriklashib, ko'zga ko'rinadigan floklar massalariga aylanadi.

Polielektrolitlar koagulyatsiya jarayonida keng qo'llaniladigan samarali yordamchi reagentlar hisoblanadi. Ular kam miqdorda qo'llanilganda ham yuqori natija beradi va noorganik koagulyantlarga nisbatan yaxshi eruvchanlik, yuqori samaradorlik hamda texnologik ustunliklarga ega. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda tabiiy mineral asosidagi


adsorbentlar, xususan bentonitdan foydalanish imkoniyatlari ham keng o'rganilgan. Bentonit murakkab tarkibli gil minerali bo'lib, uning tarkibida kremniy oksidlari, kvarts, kristobalit, opal, shuningdek feldshpat, slyuda, zeolit kabi silikat minerallari hamda ishqoriy yer metallari birikmalari mavjud.

Bentonitning o'ziga xos xususiyati uning nisbatan past manfiy zaryadga egaligidir, bu esa floklarning o'zaro birikishini osonlashtirib, yirik, zich va tez cho'kuvchi strukturalar hosil bo'lishiga olib keladi. Koagulyant bilan birgalikda qo'llanilganda bentonit suvni tiniqlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, bentonitning tarkibiy xususiyatlari tufayli muhitning pH qiymati ortishi kuzatiladi, bu esa koagulyatsiya jarayonida gidrolizlangan zarrachalar shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Koagulyatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayonining samaradorligi bir qator texnologik va fizik-kimyoviy omillarga bog'liq bo'lib, ular jarayonning borishi va yakuniy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar qatoriga koagulyant miqdori, muhitning pH qiymati, aralashtirish tezligi, vaqt parametrlari hamda harorat kiradi. Optimal pH qiymati zarrachalarning zeta-potensialini, qoldiq loyqalilik darajasi hamda ifloslantiruvchilarni ajratib olish samaradorligini belgilaydi. Koagulyantlarning samaradorligi aynan ular uchun mos pH diapazonida maksimal bo'ladi. Shu bilan birga, pH qiymatining o'zgarishi eritmadagi gidroliz jarayonlari va eruvchanlikka ta'sir ko'rsatib, adsorbsiya mexanizmlarini boshqaradi. Koagulyantlar suvga qo'shilganda uning pH qiymatini o'zgartirishi mumkin, ayniqsa asosiyli yuqori bo'lgan reagentlarda polimer shakllar ulushi ortadi. Loyqalilik suv sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u asosan suspenziyadagi zarrachalar miqdoriga bog'liq. Loyqalilik ortishi suv sifatining yomonlashuviga olib keladi va uni kamaytirish koagulyatsiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Harorat ham jarayon samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Past harorat sharoitida kolloid zarrachalar barqarorlashadi, metall ionlarining gidroliz reaksiyalari sekinlashadi va natijada zarrachalarni ajratib olish samaradorligi pasayadi. Bunday sharoitda mayda va beqaror floklar hosil


bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, temir asosidagi koagulyantlarda past haroratda gidroliz jarayonlari nisbatan tezroq kechib, $Fe(OH)_3$ cho'kmasi hosil bo'lishi orqali yirik floklar shakllanishiga imkon yaratadi.



3-rasm. Polimer asosidagi koagulyatsiya jarayonining prinsipi.

Koagulyatsiya jarayonida polielektrolitlardan foydalanish zarrachalar zaryadini neytrallash va ular orasida bog'lanish hosil qilish orqali floklar hosil bo'lishini kuchaytiradi (3-rasm). Kationik polimerlar manfiy zaryadlangan kolloid zarrachalarni destabilizatsiya qilib, ularning o'zaro to'qnashuv ehtimolini oshiradi. Yuqori dozadagi koagulyant qo'llanilganda "tortib olish koagulyatsiyasi" mexanizmi yuzaga kelib, kolloid zarrachalar yirik agregatlar tarkibiga tortiladi. Zeta-potensialning kamayishi va qarama-qarshi zaryadli flokulantlar qo'llanishi zarrachalarning birikish samaradorligini oshiradi.

Koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayoni odatda tez aralashtirish bosqichi bilan boshlanib, undan keyin sekin aralashtirish va cho'ktirish bosqichlari bilan davom etadi. Aralashtirish vaqti va intensivligi, shuningdek apparatning geometrik xususiyatlari floklar hosil bo'lish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Flokulyatsiya vaqti eritma tarkibiga qarab o'zgaradi, biroq ko'pincha qisqa muddatli tez aralashtirish bosqichi yetarli hisoblanadi.



4-rasm. Oqava suvlarni tozalashda qo'llaniladigan metall va metall bo'lmagan

koagulyantlar.

Koagulyatsiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun turli turdagi koagulyantlardan foydalaniladi. Ular o'zining kelib chiqishi va kimyoviy tarkibiga ko'ra asosan metall asosli hamda metall bo'lmagan koagulyantlarga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga xos fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan sharoitlarda turli darajadagi samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bois, koagulyant turini tanlash jarayonida suv tarkibi, pH muhiti va texnologik sharoitlar inobatga olinadi. Mazkur tasnif koagulyatsiya jarayonining ilmiy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tegishli sxema orqali ifodalangan (4-rasm).

2-jadval

Koagulyantlarning afzallik va kamchiliklari

Koagulyant	Afzalliklari	Kamchiliklari
Alyuminiy sulfat (Al ₂ (SO ₄) ₃)	Arzon va keng qo'llaniladi. Taxminan pH ≈ 3.5 eritma hosil qiladi. Qo'llash oson.	Ortiqcha qo'llansa suvda qoldiq metall hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan cho'kma yuqori namlikka ega va suvsizlantirish qiyin.
Temir(III) xlorid (FeCl ₃)	Flok hosil qilish xususiyatlari yaxshi. Alyuminiy sulfatga o'xshash pH diapazonida samarali.	Korroziyaga ega, eritilishi qiyin. Ortiqcha qo'llansa suvda temir miqdori oshadi.
Kalsiy gidroksid (Ca(OH) ₂ , ohak)	Arzon va qo'llash oson. Polifenollar, yog' va COD ni kamaytiradi.	pH tez oshadi va ishqoriy muhit yuzaga keladi.
Polialyuminiy xlorid	Zarrachalarni yuqori samaradorlik bilan olib tashlaydi. pH kamayishi kam, kimyoviy sarf kamayadi.	Sog'liq uchun potensial xavf mavjud bo'lishi mumkin, jumladan nevrologik ta'sirlar.

Xulosa. Mazkur maqolada sanoat oqava suvlarini tozalashda koagulyatsiya–flokulyatsiya jarayonining ilmiy asoslari hamda zamonaviy

texnologik yondashuvlari tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ushbu jarayon kolloid va mayda dispers zarrachalarni destabilizatsiya qilish orqali ularni yirik floklarga birlashtirish va samarali ajratish imkonini beruvchi muhim fizik-kimyoviy usul ekanligi aniqlandi. Koagulyatsiya samaradorligi koagulyant turini tanlash, pH muhiti, reagent dozalari, harorat va aralashtirish sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lib, optimal parametrlar tanlanganda yuqori tozalash darajasiga erishish mumkin. Alyuminiy va temir asosidagi koagulyantlar keng qo'llanilishi bilan birga, polialyuminiy xlorid kabi zamonaviy reagentlar yuqori samaradorligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli sanoat tarmoqlariga xos oqava suvlarning fizik-kimyoviy tarkibi ularni tozalashda individual yondashuvni talab etadi. Past biodegradatsiyaga ega bo'lgan oqava suvlar uchun koagulyatsiya jarayoni ayniqsa muhim bosqich hisoblanadi. Shu bilan birga, polielektrolitlar va tabiiy mineral qo'shimchalar flok hosil bo'lish jarayonini kuchaytirib, tozalash samaradorligini oshiradi. Kelgusida koagulyatsiya texnologiyalarini takomillashtirish, ularni boshqa tozalash usullari bilan uyg'unlashtirish va optimal ish sharoitlarini aniqlash sanoat oqava suvlarini samarali tozalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Bratby, J. (2016). Coagulation and flocculation in water and wastewater treatment (3rd ed.). IWA Publishing.
- [2] Bolto, B., & Gregory, J. (2007). Organic polyelectrolytes in water treatment. Water Research, 41(11), 2301–2324. <https://doi.org/10.1016/j.watres.2007.03.012>
- [3] Wang, J., & Chen, H. (2019). Coagulation–flocculation process for industrial wastewater treatment: A review. Journal of Water Process Engineering, 28, 101–110. <https://doi.org/10.1016/j.jwpe.2019.02.002>
- [4] Teh, C. Y., Budiman, P. M., Shak, K. P. Y., & Wu, T. Y. (2016). Recent advancement of coagulation–flocculation and its application in wastewater treatment. Industrial & Engineering Chemistry Research, 55(16), 4363–4389. <https://doi.org/10.1021/acs.iecr.5b04703>
- [5] Gregory, J. (2006). Particles in water: Properties and processes. Water Intelligence Online, 5, 9781780407314. <https://doi.org/10.2166/9781780407314>

- [6] Duan, J., & Gregory, J. (2003). Coagulation by hydrolysing metal salts. *Advances in Colloid and Interface Science*, 100–102, 475–502. [https://doi.org/10.1016/S0001-8686\(02\)00067-2](https://doi.org/10.1016/S0001-8686(02)00067-2)
- [7] Khojakulov, A., Ruziyev, U., Boymurodov, N., Shernazarov, I., Mashaev, E., & Shoyimova, K. (2024). Research and determination of parameters for extracting valuable components from technological waste. *BIO Web of Conferences*, 149, 01049.
- [8] Abdisamievich, S. A., Mamarasulovich, R. U., & Azamatugli, K. O. (2025). Development of technology for obtaining alumina from local raw materials. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности*, 3(2), 105–111.
- [9] Хужакулов, Н. Б., Рузиев, У. М., & Насирова, Н. Р. (2021). Исследования влияния качества биокека на показатели сорбционного выщелачивания. *Universum: технические науки*, (5-2 (86)), 20–23.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Ikromov, A. A., Urinov, U. K., & Fayziyev, J. B. (2026). Koagulyatsiya jarayoni asosida sanoat oqava suvlarini tozalashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(2). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.2.2026.4>

SANOATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR,
ILMIY-TEXNIK (ELEKTRON) JURNALI E-ISSN: 3030-3214
AXBOROT XATI

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” (e-ISSN: 3030-3214)

(<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>) **ilmiy-texnik jurnali** ochiq jurnal hisoblanib, mazkur jurnalning vazifasi ilm-fan taraqqiyotining modellashtiruvchi, ta’limning yutuqlari va istiqbollari, dolzarb muammolari va ularning yechimlarini, shuningdek, ishlab-chiqarish va ta’limning modernizatsiyalashuvi bosqichini yoritib borishdir. “Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnalining maqsadi belgilangan soha mutaxassislar va olimlarning tadqiqotlari va innovatsiyalari to’g’risidagi nashrlarini jamoatchilikka xabardor qilish, yosh avlodning fan va ta’lim sohasidagi qiziqishlarini oshirish va ilmiy konsepsiyalarini bayon etishdir.

Jurnalga: **05.00.00-TEXNIKA FANLARI, 04.00.00-GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI, 02.00.00-KIMYO FANLARI** ixtisosliklari bo’yicha ilmiy maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalga maqolalar: **o‘zbek, rus va ingliz** tillarida qabul qilinadi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali quyidagi yo‘nalishlar bo’yicha maqolalar qabul qilinadi:

- Kon-metallurgiya va ishlab chiqarish sanoati;
- Geologiya va neft-gaz sanoati;
- Kimyoviy texnologiya va qurilish;
- Yengil sanoat tarmoqlari;
- Ekologiya, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnaliga chop qilingan har bir maqolaga raqamli identifikator (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) beriladi.

Jurnal quyidagi bazalarga indeksatsiya qilingan:

1. CYBERLENINKA — ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – Ilmiy elektron kutubxonasiga (https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – Ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Har bir maqola Google akademiyasiga indeksatsiya qilinadi (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – ilmiy jurnallar bazasi (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

Jurnal ta’rischilari:

- 1. Qarshi davlat texnika universiteti;**
- 2. “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ;**

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro‘yxatga olingan 26.07.2023 yildagi №106679-sonli guvohnoma. Turkum nashrlarning chiqish ma’lumotlarini GOST 7.4-95 “Nashrlar. Chiqish ma’lumotlari” hamda GOST 7.56-2002 «Xalqaro standart turkum raqami» davlatlararo standartlar talablari asosida bo‘lishini to‘liq ta’minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan 2023 yil 12-dekabrda Davriy nashrlarga ISSN xalqaro standart raqami ISSN: 3030-3214 raqam berilgan.

MAQOLALARGA QO‘YILGAN TALABLAR

Maqolaning standart hajmi: 4-15 betli matn Word matn muharririda, o‘zbek, rus yoki ingliz tilida.

Maqola mualliflari 4 nafardan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Mualliflarning har biri uchun to‘liq ma‘lumotlar ko‘rsatilishi lozim (ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, shahar va davlati)

Maqolada shartli ravishda **kirish, Adabiyot tahlili va metodi, tadqiqot natijalari va muhokama, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan** iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya, kalit so‘zlar Annotatsiya berilgan shakl va ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Iltimos, bu shaklni o‘zgartirmang. Annotatsiya 100-250 so‘zdan hamda 4-20 kalit so‘zlardan iborat bo‘lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so‘zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun (3 ta tilda) o‘zbek, rus va ingliz tilida ham berilishi zarur. Kalit so‘zlar 4-20 so‘zdan iborat maqoladagi asosiy urg‘u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi adabiyotlar oxirgi 10 yil ichidagi adabiyotlar ko‘rsatilishi tavsiya etiladi.

O‘lchov birliklari va belgilar SI xalqaro birliklar tizimida ko‘rsatilishi kerak.

Maqola materiallarining yuqoridagi talablarga mos kelmasligi nashrni rad etish uchun sabab bo‘lishi mumkin.

Maqola matniga qo‘yilgan talablar:

Sarlavha ko‘rinishi: Shrift “Times New Roman”, o‘lchami 14 pt, bosh harfdan, markazdan, chiziqcha yo‘q, qalin. Maqola sarlavhasi tepasida (1.5 intervaldan keyin), o‘ng burchakda - mualliflarning ismi va shariflari, odatiy shrift, o‘lchami 14 pt; chap burchakda - UO‘K indeksi;

Maqola sarlavhasi ostida - mualliflarning ismi va sharifi - qalin shriftda; ish joyi, lavozimi ilmiy unvoni, tashkilot nomi – 10 pt. o‘lchamdagi odatiy shriftda va 3x4 rasmi ko‘rsatilishi lozim.

Annotatsiya ko‘rinishi: “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamida, (1 intervaldan).

Kalit so‘zlar ko‘rinishi: “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamda.

Asosiy matnga talablar: Shrift “Times New Roman”, 14 pt., qator oralig‘i 1, xat boshi – 1 sm, sahifa chekkalari – chap va o‘ng – 1.5 sm; yuqori va pastki – 1.5 sm.

Jadval ko‘rinishi: Jadval nomi - “Times New Roman”, 14 pt oralig‘ida, qalin, markazda, jadvaldagi matn - “Times New Roman”, 10-14 pt., odatiy.

Formula kiritish talablar: Formulalar va maxsus belgilar faqat «Microsoft Equation-3» muharririda yoziladi. Formulalar chap tomonda joylashtiriladi.

Rasmlarga talablar: Rasmlar aniq ko‘ringan bo‘lishi kerak, chop etishga tayyor, matnga qo‘shilishi va GIF, BMP, JPEG formatida.

Adabiyotlar ro‘yxatiga talablar: “Times New Roman”, 14 pt o‘lchamda, kursiv, 4-30 ta (25% o‘z ishlariga havola), oxirgi 10 yilda nashr etilgan adabiyotlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotga havola keltirish raqami kvadrat qavs ichida, matnning tegishli joyida beriladi. Adabiyotlarga to‘g‘ri havola keltirish uchun www.snoska.info saytidan yoki <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/> veb resurlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlar JPEG, TIF, EPS yoki PSD formatlarida yetarlicha kengayishda (tiniqligi) (1:1 masshtabda kamida 300 dpi) alohida grafik fayllar sifatida yozib olinishi lozim.

Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar, Har bir muallifning 3x4 rasmi, mualliflar ismi shariflari (to‘liq), ish joyi va lavozimi va elektron pochta manzili, ORCID (orcid.org tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi), Science ID (id.ilmuy.uz tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish majburiy) va SPIN (elibrary.ru tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi) raqamlar va bog‘lanish uchun telefon raqamlari kiritilishi shart. **(Maqolaga materialni ochiq matbuotda nashr etilish imkoniyati to‘g‘risida ekspert xulosasi ilova qilinishi mumkin).**

Izoh: Maqolaning orginalligini aniqlangan (antiplagiat) hisoboti taqdim etish shart (originallik darajasi 80 foiz va undan yuqori bo‘lganda va yuqoridagi talablarga javob berganda, gramatik xatolar bo‘lmaganda maqola qabul qilinadi). Antiplagiatdan o‘tkazish manzili: <https://milliyantiplag.uz/>

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ,
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ (ЭЛЕКТРОННЫЙ) ЖУРНАЛ E-ISSN: 3030-3214
ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) является открытым журналом, задачей которого является освещение моделирования прогресса науки, достижений и перспектив образования, актуальных проблем и их решений, а также этапов модернизации производства и образования. Цель научно-технического журнала «Цифровые технологии в промышленности» заключается в информировании специалистов в данной области, публикации исследований и инноваций ученых для общественности, повышении интереса молодого поколения к науке и образованию и изложению научных концепций.

В журнал принимаются научные статьи: **05.00.00-ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ, 04.00.00-ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРАЛОГИЯ, 02.00.00-ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ.**

Статьи в журнал принимаются: **узбекском, русском и английском языках.**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» принимает статьи по следующим направлениям:

- Горно-металлургическая и обрабатывающая промышленность;
- Геология и нефтегазовая промышленность;
- Химическая технология и строительство;
- Легкая промышленность;
- Экология, охрана труда и техническая безопасность.

Цифровой идентификатор объекта (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) присваивается каждой статье, опубликованной в научно-техническом журнале «Цифровые технологии в промышленности».

Журнал индексируется в следующих базах данных:

1. КИБЕРЛЕНИНКА – научная электронная библиотека (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – научная электронная библиотека (https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – научная электронная библиотека (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – научная электронная библиотека (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Каждая статья индексируется в Google Academics. (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – база данных научных журналов (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

Учредители журнала:

- 1. Каршинский государственный технический университет;**
- 2. АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»;**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан, свидетельство №106679 от 26.07.2023. Выходные данные серии публикаций предусмотрены ГОСТ 7.4-95 «Издания. В целях полного обеспечения соответствия «Выходной информации» и ГОСТ 7.56-2002 «Международный стандартный серийный номер» требованиям международных стандартов, 12 декабря 2023 года в Национальной библиотеке Узбекистана имени Алишера Навои был объявлен международный ISSN. Периодическим изданиям присвоен стандартный номер ISSN: 3030-3214.

ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ

Стандартный размер статьи: Текст объемом 4-15 страниц в текстовом редакторе Word на узбекском, русском или английском языках.

Авторов статьи должно быть не более 4. Необходимо предоставить полную информацию по каждому из авторов (место работы, должность, ученая степень, ученое звание, город и страна).

Статья должна содержать условное **введение, анализ и метод литературы, результаты исследования и их обсуждение, выводы и предложения, а также список использованной литературы.**

Аннотация, ключевые слова Аннотация должна быть в заданной форме и формате. Пожалуйста, не изменяйте эту форму. Аннотация должна состоять из 100-250 слов и 4-20 ключевых слов. Аннотация (ABSTRACT на английском языке) и ключевые слова (keywords) должны быть предоставлены на узбекском, русском и английском языках (на 3-х языках) для индексации в международных системах. Ключевые слова. Термины, получившие основной акцент в статье, желательно писать в объеме 4-20 слов.

Единицы измерения и символы должны быть отображены в Международной системе единиц SI.

Несоответствие материалов статьи указанным требованиям может стать основанием для отказа в публикации.

Требования к тексту статьи:

Просмотр названия: Шрифт — Times New Roman, размер 14 пт, прописной, центрированный, без подчеркивания, жирный. Над названием статьи (через 1,5 интервала) в правом углу — фамилия и инициалы авторов, шрифт стандартный, размер 14 пт; в левом углу – индекс УДК;

Под названием статьи - имя и фамилия авторов – жирным шрифтом; место работы, ученое звание, название организации – 10 пт. должно отображаться шрифтом стандартного размера и изображением 3x4.

Абстрактный вид: Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. в размере, (от 1 интервала).

Просмотр ключевых слов: Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. по размеру.

Требования к основному тексту: Шрифт «Times New Roman», 14 пт., межстрочный интервал 1, шапка – 1 см, поля страницы – левое и правое – 1,5 см; верх и низ – 1,5 см.

Вид таблицы: Название таблицы – «Times New Roman», интервал 14 пт, жирный, по центру, текст таблицы – «Times New Roman», 10–14 пт, обычный.

Требования к вводу формулы: Формулы и специальные символы пишутся только в редакторе «Microsoft Equation-3». Формулы располагаются слева.

Требования к фотографиям: Изображения должны быть четко видны, готовы к печати, содержать текст и иметь формат GIF, BMP, JPEG.

Требования к списку литературы: Times New Roman, 14 пт, курсив, 4-30 (25% ссылки на собственные работы), желательны публикации за последние 10 лет.

Номера ссылок даются в квадратных скобках в соответствующем месте текста. Для корректной ссылки на литературу рекомендуется использовать сайт www.snoska.info или <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

Контактная информация: Фотография 3x4 каждого автора, ФИО автора (полностью), место работы и должность, адрес электронной почты, ORCID (рекомендуется указывать идентификационный номер, зарегистрированный на orcid.org), Science ID (обязательно указать ID-номер, зарегистрированный на стороне id.ilmiy.uz) и SPIN (elibrary.ru рекомендуется указывать идентификационный номер). зарегистрированы на стороне) необходимо вводить номера и контактные телефоны. *(К статье может быть приложено экспертное заключение о возможности публикации материала в открытой печати).*

Примечание: Необходимо предоставить отчет, подтверждающий оригинальность статьи (антиплагиат) (статья принимается при уровне оригинальности 80% и выше и соответствии вышеуказанным требованиям, а также отсутствию грамматических ошибок). Адрес антиплагиата: <https://antiplag.uz/>

**DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY, SCIENTIFIC-TECHNICAL (ELECTRONIC)
JOURNAL E-ISSN: 3030-3214 INFORMATION LETTER**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) is an open journal whose task is to cover the modeling of scientific progress, achievements and prospects of education, current problems and their solutions, as well as stages of modernization of production and education. The purpose of the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is to inform specialists in the field, publish research and innovations of scientists for the public, increase the interest of the younger generation in science and education and present scientific concepts.

The journal accepts scientific articles: **05.00.00-TECHNICAL SCIENCES, 04.00.00-GEOLOGY-MINERALOGY, 02.00.00-CHEMICAL SCIENCES.**

Articles for the journal are accepted: **Uzbek, Russian and English** languages.

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” accepts articles in the following areas:

- Mining, metallurgical and manufacturing industries;
- Geology and oil and gas industry;
- Chemical technology and construction;
- Light industry;
- Ecology, labor protection and technical safety.

A Digital Object Identifier (<https://www.doi.org>) is assigned to each article published in the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry”.

The journal is indexed in the following databases:

1. CYBERLENINKA – scientific electronic library
(<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – scientific electronic library
(https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – scientific electronic library
(<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – scientific electronic library
(<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Each article is indexed in Google Academics.
(<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – scientific journal database
(<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

The founders of the journal:

- 1. Karshi State Technical University;**
- 2. JSC Almalyk Mining and Metallurgical Combine;**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, certificate No. 106679 dated July 26, 2023. The output data of the series of publications is provided for by GOST 7.4-95 “Publications. In order to fully ensure compliance of the “Output Information” and GOST 7.56-2002 “International Standard Serial Number” with the requirements of international standards, an international ISSN was announced on December 12, 2023 at the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. Periodicals are assigned a standard ISSN number: 3030-3214.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES

Standard article size: Text of 4-15 pages in the Word text editor in Uzbek, Russian or English.

There should be no more than 4 authors of the article. It is necessary to provide complete information on each of the authors (place of work, position, academic degree, academic title, city and country).

The article should contain a conventional **introduction, analysis and method of literature, research results and their discussion, conclusions and suggestions, as well as a list of references.**

Abstract, keywords: The abstract must be in the specified form and format. Please do not change this form. The abstract should consist of 100-250 words and 4-20 keywords. Abstract (ABSTRACT in English) and keywords must be provided in Uzbek, Russian and English (in 3 languages) for indexing in international systems. Keywords. It is advisable to write terms that receive the main emphasis in the article in 4-20 words.

Units and symbols must be displayed in the SI International System of Units.

Failure to comply with the specified requirements may be grounds for refusal to publish.

Requirements for the article text:

View title: Font: Times New Roman, size 14 pt, uppercase, centered, no underlining, bold. Above the title of the article (with 1.5 intervals) in the right corner - the surname and initials of the authors, standard font, size 14 pt; in the left corner - UDC index;

Under the title of the article - the name and surname of the authors - in bold; place of work, academic title, name of organization – 10 pt. should be displayed in a standard size font and a 3x4 image.

Abstract view: Font set Times New Roman, 14 pt. in size, (from 1 interval).

View keywords: Font set Times New Roman, 14 pt. to size.

Requirements for the main text: Font “Times New Roman”, 14 pt., line spacing 1, header – 1 cm, page margins – left and right – 1.5 cm; top and bottom – 1.5 cm.

Table view: Table name – “Times New Roman”, spacing 14 pt, bold, centered, table text – “Times New Roman”, 10–14 pt, regular.

Requirements for entering a formula: Formulas and special characters are written only in the Microsoft Equation-3 editor. Formulas are located on the left.

Photo requirements: Images must be clearly visible, print ready, contain text and be in GIF, BMP, JPEG format.

Requirements for the list of references: Times New Roman, 14 pt, italics, 4-30 (25% references to own works), publications within the last 10 years are desirable.

Reference numbers are given in square brackets in the appropriate place in the text. For correct reference to literature, it is recommended to use the website www.snoska.info or <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

Contact Information: 3x4 photo of each author, full name of the author, place of work and position, email address, ORCID (it is recommended to indicate the identification number registered on orcid.org), Science ID (indication of the ID number registered on the id.ilmiy.uz side is mandatory) and SPIN (elibrary.ru it is recommended to indicate the identification number). registered externally), you must enter numbers and contact numbers (*An expert opinion on the possibility of publishing the material in the open press may be attached to the article*).

Note: It is necessary to provide a report confirming the originality of the article (anti-plagiarism) (the article is accepted if the originality level is 80% or higher and meets the above requirements, as well as the absence of grammatical errors). Anti-plagiarism address: <https://antiplag.uz/>